# "ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI"

## mavzusidagi Respublika ko'p tarmoqli, ilmiy KONFERENSIYA

#15
JANUARY
2024



## TAHRIRIYAT A'ZOLARI

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*
*Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.*
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*
*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*
*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*
*Otadjanova M.O. f.f.d.*
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*
*Hasanov A.M. fil.f.f.d*
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*

*Mas'ul kotib:* ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
**ISSN: 2181-3558**

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI**

**№ 15-**SONLI RESPUBLIKASI KO’P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
30-YANVAR 2024-YIL

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES**

**15th** REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
JANUARY 30, 2024

# ҲОМИЛАНИНГ БОШ МИЯ АНАТОМИК ҲОСИЛАЛАРНИНГ ДИНАМИКАДА ЎЗГАРИШИ

***Муштари Муроджон қизи Нурёгдиева***
*Андижон давлат тиббиёт институти*

***Сайёра Мухамадовна Ахмедова***
*Тошкент тиббиёт академияси, Ўзбекистон*

**Аннотация**. У 160 плодов пренатально в ходе ультразвукового исследования были изучены ширина прозрачной перегородки, боковых желудочков и IV желудочка. Беременные женщины были разделены на две группы, основную группу составили беременные в состоянии гипотиреоза, в контрольную группу включены женщины с неосложненным течением беременности. Анализ наших данных показал, что у беременных в состоянии гипотиреоза наблюдается расширение полости прозрачной перегородки, боковых желудочков и переднезадний размер IV желудочка по сравнению с контрольной группой.

**Ключевые слова:** фетометрия, гипотиреоз, скрининг плода

**Аннотация**. 160 та ҳомилада ультратовуш текшируви ёрдамда ён қоринчалар, тини қпарда ва IV қоринча кўрсаткичларининг хар хил даврларда ўрганилди. Хомиладор аёллар 2 та гуруҳга ажратилди. Асосий гуруҳни гипотиреоз ҳолатдаги аёллар ташкил қилди, назорат гуруҳини эса асоратсиз кечаётган ҳомиладор аёллар ташкил қилди. Олинган маълумотлар натижаси, гипотиреоз ҳолатидаги ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласида назорат гуруҳидагига қараганда тиниқ парда бўшлиғи, ён қоринчалар ва IV қоринча кенгайганлиги аниқланди.

**Калит сўзлар:** фетометрия, гипотиреоз, хомила скрининги

Ҳомиланинг аъзолар ва тизимларини ультратовуш усули билан текширишни ушбу муддатларда амалга ошириш туғма ривожланиш нуқсонларнинг каттагина қисмини аниқлаш имконини беради. Бунда ҳомиланинг бош мияси структураларини баҳолашни ўтказиш жуда муҳимдир, сабаби марказий нерв тизимининг туғма нуқсонлари кўпгина болаларда ногиронлик шаклланишига [1,5], ҳар бир учинчи болада эса ўлимга олиб келади [2]. Ҳомиланинг бош миясини ультратовуш усули билан баҳолашни бажаришда унинг тузилиши хусусиятларини ҳомиладорлик муддатларига боғлиқ ҳолда билиш катта аҳамиятга эга, бу бош мия структуралари ривожланишидаги оғишларни ўз вақтида ташҳислаш имкониятини яратади [3,4]. Скрининг тартибида ушбу структураларни

баҳолаш визуал тарзда, уларнинг рақамли қийматларини ўлчамасдан бажариш тавсия этилган.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Биз ўз тадқиқотларимизни жами 140 та шулардан 75 та гипотиреоз ҳолатидаги ва 65 соғлом ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласининг бош миясини тузилмаларини текширдик. Ҳомиланинг ривожланишини текшириш зарур бўлган даврлар биринчи скрининг даврида 12-13 ҳафта, иккинчи даврида 22-23 ва 24-25 хафталарда скрининг тадқиқотлар стандартга кўра амалга оширилди. Ҳар икки гуруҳдаги ҳомиладор аёлларнинг ўртача ёши 32,6±0,7 ёшни ташкил қилди.

Ҳомилада тиник парданинг бўшлиғини баҳолаш бизнинг кузатувларимизнинг барчасида кўринди. 1 скрининг даврида 12-13 ҳафтада тиниқ парданинг кенглиги 1,5 ммдан 2,2 мм, ўртача 1,9±0,6 ммни, 14-15 ҳафтада эса 2,4 ммдан 3,5 ммгача, ўртача 3,2±0,9 ммни ташкил қилди.

2 скринг даврига келиб 20-21 ҳафталикда ҳомиланинг тиниқ пардасининг бўшлиғини кенглиги 3,4 мм дан 4,7 мм гача, ўртача 4,1±0,4 мм тенг, 22 - 23 ҳафталик 3,9 мм дан 6,3 мм гача ўртача 5,4±0,3 мм ни ташкил қилди. 24 - 25 ҳафталик муддатга келиб тиниқ парданинг кенглиги 4,5 дан 7,9 мм гача, ўртача 6,7± 0,2 мм эканлиги аниқланди.

3 скрининг даврига келиб тиниқ парданинг кенглиги ўртача 2 скрининг даврига нисбатан ±1,8 ммга ошиши кузатилди. Бу даврда 30-31 хафталикда 5,6 ммдан 8,6 ммга, ўртача 8,4±1,1 ммни ташкил қилди. 32 - 33 ҳафталикга келиб, тиниқ парданинг кенглиги статистик жиҳатдан ±1,6 ммга (p<0,05) ошиши кузатилди ва ўртача 10,1±0,8 ммни (мак 8,4 -11,6 ммни) ташкил қилди. 35-36 ҳафталикга келиб эса тиниқ парданинг кенглигини ±1,8 ошиши кузатилди, ва бу кўрсаткич ўртача 11,9±1,1 ммни ташкил қилди.

Гипотиреоз ҳолатидаги ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласида тиниқ парданинг бўшлиғининг кенглиги 1 скрининг даврида 12-13 ҳафтада назорат гуруҳидагидан сезиларли фарқ қилмади ва кенглиги 1,6 ммдан 2,4 мм, ўртача 2,0 ± 1,3 ммни, 14-15 ҳафтада эса 2,0 ммдан 3,7 ммгача, ўртача 3,3±0,7 ммни ташкил қилди. 1 скрининг даврида кузатилган ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласида тиниқ парданинг бўшлиғининг кенглиги 25 % ҳолатда тиниқ парда визуалиция қилинмади, 35% ҳолатда тиниқ парда кенгайиши кузатилди.

Гипотиреоз ҳолатидаги ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласида тиниқ парданинг бўшлиғининг кенглиги 2 скринг даврига келиб 20-21 ҳафталик даврда 45% ҳолатда назорат гуруҳидангидан фарқ сезилмади ва 3,5 мм дан 4,9 мм гача, ўртача 4,4±0,5 мм тенг бўлди. 55% ҳолатда эса тиниқ парданинг бўшлиғини шу даврдаги назорат гуруҳидаги ҳомиладагига нисбатан ±0,9 мм

га кенгроқ эканлиги кузатилди ва бу кўрсаткич ўртача 5,0 ±0,9 мм (4,2-5,3 мм) га тенг эканлиги аниқланди. 22 - 23 ҳафталикга келиб тиниқ парданинг кенглиги 4,3 мм дан 6,9 мм гача, ўртача 6,6±1,2 мм ни ташкил қилди. Бу кўрсаткич 22-23 ҳафталикда назорат гуруҳига нисбатан 1,2 мм кенгроқ эканлиги кузатилди. 24 - 25 ҳафталик муддатга келиб тиниқ парданинг кенглиги 4,5 дан 8,5 мм гача эканлиги, ўртача 7,4±0,6мм эканлиги аниқланди. Бу даврга келиб, тиниқ парданинг кенглиги назорат гуруҳига нисбатан ±1,7 мм га кенглиги аниқланди.

Гипотиреоз ҳолатидаги ҳомиладор аёлларнинг ҳомиласида тиниқ парданинг бўшлиғининг кенглиги 3 скринг даврига келиб 30-31 ҳафталик даврда 45% ҳолатда назорат гуруҳидангидан фарқ сезилмади ва 3,5 мм дан 4,9 мм гача, ўртача 4,4±1,1 мм тенг бўлди. 55% ҳолатда тиниқ парданинг бўшлиғини кенгайиш ҳолатлари кузатилди ва бу кўрсаткич ўртача 5,0 мм (4,2-5,3 мм) га тенг эканлиги аниқланди. 22 - 23 ҳафталикга келиб тиниқ парданинг кенглиги 4,3 мм дан 6,9 мм гача ўртача 5,9±0,9 мм ни ташкил қилди. Бу кўрсаткич 22-23 ҳафталикда назорат гуруҳига нисбатан % 20 кенгроқ эканлиги кузатилди. 24 - 25 ҳафталик муддатга келиб тиниқ парданинг кенглиги 4,5 дан 7,9 мм гача эканлиги, ўртача 6,7±1,3 мм эканлиги аниқланди.

Қадоқсимон тананинг узунлигини аниқлашни биз иккинчи скрининг давридан бошладик, чунки биринчи скрининг даврларида қадоқсимон тананинг узунлигини ўлчаш имкони бўлмади. Иккинчи скринг даврига келиб 20-21 ҳафталик даврда қадоқсимон тананинг узунлиги 9,2 мм дан 14,3 мм гача, ўртача 11,6±0,9 ммга тенглиги аниқланди. 2 скринингнинг 22 - 23 ҳафталик даврига келиб қадоқсимон тананинг узунлиги+ 1,7 мм га ошганлиги қайд қилинди ва ўртача 13,3±0,8 ммни ташкил қилди. 24 - 25 ҳафталик муддатга келиб бу кўрсаткич 12,6 ммдан дан 15,4 мм гача ошиши кузатилиб, ўртача 14,8 ±0,9 ммга тенг бўлиши аниқланди.

Хомиладорлик даври ошган сари қадоқсимон тананинг узунлиги ҳам ошиб борди. Учинчи скрининг даврига келиб, қадоқсимон тананинг узунлиги ±3,4 ммга ошиши кузатилди. Ва 30-31 ҳафтада 13,8 ммдан 19,0 мм гача, ўртача 17,6 ±1,6 мм га тенг бўлди. 32-33 ҳафталикда бу кўрсаткич 15,6 дан 22,3 мм гача, ўртача 19,8±1,5 ммга ошиши қайд қилинди. 35-36 ҳафталикда қадоқсимон тананинг узунлиги энг юқори ўсиш темпига эга бўлди ва узунлиги ўртача 22, 4 ±1,7 мм бўлиши аниқланди.

## References


1. Bar – Yosef, O. Neurodevelopmental outcome of isolated ventriculomegaly: a prospective cohort study / O. Bar – Yosef, E. Barzilay, S. Dorembus [et al.] // Prenat. Diagn. - 2017. - Vol. 37. - P. 764-768.
2. Carseldine, W. Antenatal diagnosis of a fetal dural venous thrombosis / W. Carseldine, F. Park, C. Abel [et al.] // Ultrasound Obstet. Gynecol. - 2013. – Vol. 42, No. 1. - P. 151.
3. Esetov, M.A. Echography of the central nervous system of the fetus. Intermediate sail cavity: own observation and literature review / M.A. Esetov, G.M. Bekeladze, E.M. Huseynova // Prenat. Diagn. - 2015. –T. 14, no. 1. - pp. 46–51.
4. Medvedev, M.V. Prenatal echography. Differential diagnosis and prognosis / M.V. Medvedev. - 3rd ed. - M .: Real Time, 2012 .-- 464 p.
5. Mirsharopov U.M.; Usmonov R.J.; Teshaev O.R. Mirzamuhamedov O.Kh. Akhmedova S.M. et al. Morphological change of myocardium in hypothyroidism // Central Asia Journal of Medicine – 2020, № 1 – p. 71–83.


# MOL-MULK SOLIG‘INING MAHALLIY BUDJETDAGI ROLI


***Madraimova Marxamat Raximberganovna***
*Urganch davlat universiteti*
*Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi stajor-o‘qituvchisi*

***Babajanova Dilfuza Abdurasulovna***
*Urganch davlat universiteti*
*Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi stajor-o‘qituvchisi*


**Annotatsiya**. Ushbu maqolada mol-mulk solig‘ining mazmuni va mahalliy budjetdagi roli ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar**: Soliq, mol-mulk solig‘i, indeksatsiya, imtiyozlar, stavka, inventarizatsiya.

Soliq tizimi barcha soliq to‘lovlarini o‘z ichiga oladi. Soliq tizimi milliy qonunchilik tizimi bilan, shuningdek xalqaro qonunchilik bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak [1]. Soliq turlaridan biri mol-mulk solig‘i bo‘lib hisoblanadi. Mulk solig‘i turli darajadagi – davlat va shahar budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular davlat dasturlari va loyihalarini moliyalashtirish manbalaridan biri bo‘lib, moliyaviy barqarorlik va hududlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Mol-mulk solig‘ining asosiy vazifasi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy resurslarni olish bilan belgilanadi. Mulk

solig‘i tashkilotlarning mol-mulki uchun mintaqaviy yig‘im va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga mahalliy soliqlar, shuningdek kelajakda ko‘chmas mulk uchun alohida soliqlarning joriy etilishi rejalashtirilgan. Mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tasdiqlangan stavka asosida amalga oshiriladi. Ammo to‘lovchilarning ayrim toifalari bu bo‘yicha imtiyozlarga ega bo‘ladilar. Soliq solish obyekti sifatida tan olingan mulkka ega bo‘lgan korxonalar ushbu soliq bo‘yicha soliq deklaratsiyasini to‘ldiradilar.

Mulk solig‘i to‘lovchilari fuqarolar, chet elliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardir [2]. Bular soliq solish obyekti bo‘lgan mol-mulkka ega bo‘lgan barcha jismoniy shaxslardir. Agar u bir nechta fuqarolarga tegishli bo‘lsa, unda ularning barchasi mulkdagi har birining ulushiga qarab soliq to‘lovchilar hisoblanadi. Bolalikdan va 2-guruh nogironlari, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va boshqalar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi.

Fuqarolarga tegishli turar-joy binolari, kvartiralar va xonalar, qishloq uylari va kottejlar, garajlar, boshqa turdagi binolar va kommunal xonalar soliqqa tortish obyektlari bo‘lib hisoblanadi. Bog‘dorchilik va dacha notijorat shirkatlaridagi binolar, yashash yoki xo‘jalik maydoni 50 kvadrat metrdan oshmasa, jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulk solig‘i qo‘llanilmaydi. Agar xona muzey, kutubxona, ko‘rgazma galereyasi sifatida foydalanilsa, bunday foydalanish davrida u soliqqa tortilmaydi. Soliq qiymatini hisoblash uchun soliq bazasi - texnik inventarizatsiya qilish organlari tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektining umumiy inventarizatsiya qiymatidir. Inventarizatsiya qiymati - amortizatsiya va narxlarning o‘sish dinamikasini hisobga olgan holda ko‘chmas mulkni almashtirish qiymatidir. Ushbu qiymatga qarab, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi aniqlanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qismida kiritilgan o‘zgartirishlar hisobotni taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlariga amal qiladi. Jismoniy shaxslar uchun yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari qismida soliq summasini o‘tgan yildagiga nisbatan o‘sishini cheklash bekor qilinadi va stavkalar indeksatsiya qilinadi [3]. Unga ko‘ra, yuridik shaxslar uchun** soliq bazasini belgilash tartibi, 1 kv. m. uchun mutlaq miqdorda eng kam qiymat miqdorlari, mahalliy organlarning hududlarda eng kam qiymatga 0,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi koeffitsientni belgilash huquqi hamda 1,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasi kabilar **saqlab qolindi.**

**Ayrim obyektlar bo‘yicha stavka o‘zgartirildi. Ya’ni, unga ko‘ra, Kodeksning** 415-moddasi 3-qismida ko‘rsatilgan obyektlar bo‘yicha soliq stavkasi 0,5 foizdan 0,6 foizgacha oshirildi. Bular umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar,

magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek konservatsiya qilinishi toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan koʻchmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari boʻlib hisoblanadi.

**Soliq Kodeksida foydalanilmayotgan obyektlar uchun oshirilgan stavkalarni bekor qilish mustahkamlandi. Undan oldin** 2022-yilning 1-iyulidan boshlab soliqning oshirilgan stavkalari foydalanilmayotgan maydonlar va tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qoʻllanilmaydi. Endi ushbu norma Soliq Kodeksiga kiritildi. **Hisobotni taqdim etish va soliqni toʻlash muddatlari oʻzgartirildi. Unga koʻra,** quyidagi hujjatlarni topshirish muddati belgilandi:

- boʻnak toʻlovlari toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma 2023-yilning 20-yanvaridan kechiktirmay topshirilishi lozim;

- yillik hisob-kitobni taqdim etish va soliqni yakuniy toʻlash 1-martdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Jismoniy shaxslar uchun soliq summasini oʻtgan yildagiga nisbatan oshirishga cheklov saqlab qolindi.** Cheklov turar joy fondi obyektlariga, jumladan, koʻp kvartirali uylarga uzviy bogʻliq boʻlgan mashina turar joylariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar uchun amal qiladi.

2023-yilda 2018-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblab chiqarilgan soliq summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan ortiq miqdorda oshishi mumkin emas. Ushbu cheklov 2018-yildan boshlab jismoniy shaxslarga barcha koʻchmas mulk obyektlariga nisbatan qoʻllaniladi. Bunda **yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari qismida soliq summasini** oʻtgan yildagiga nisbatan **oʻsishini cheklash bekor qilindi**. **Soliq stavkalari indeksatsiya qilinadigan boʻldi.** 2022-yilda amal qilgan soliq stavkalari oʻrtacha 10 foizga indeksatsiya qilindi. Bunda 2018-yilda kadastr organlari tomonidan belgilangan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati miqdori saqlab qolindi. Soliq Kodeksida **foydalanilmayotgan obyektlarga nisbatan oshirilgan stavkalarni bekor qilish mustahkamlandi.** 2022-yilning 1-iyulidan boshlab soliqning oshirilgan stavkalari foydalanilmayotgan maydonlar va tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qoʻllanilmaydi.

Xulosa shuki, mol-mulk soligʻi mahalliy budjetni rivojlantirishda muhim oʻrinni egallab, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashuviga imkon beradi. Chunki, mulk soligʻi - koʻchmas mulkka egalik qilish uchun davlatga toʻlanadigan toʻlov boʻlib hisoblanadi. Unga koʻra, koʻproq mulk va soliq majburiyatlarini anglatadi. Ushbu soliq turi soliq idorasi tomonidan yiliga bir marta hisoblab chiqiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'ulomov S. va M.Sharifxo'jayev tahriri ostida. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2000. – 265 b.
2. https://studfile.net/preview/7459716/page:13/
3. https://buxgalter.uz

## ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA INSON RUHIYATINING TASVIRLANISHI

***Ismoilova Dilnurabonu Jasurbekovna***
*Toshkent Moliya Instituti Bank ishi fakulteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hikoyalarida inson ruhiyatining o'zaro tasvirlanishi, hamda hikoyalaridagi obrazlarning tasviri atroflicha yoritib berilgan. "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qahhor, hikoya, janr, realistik, Mastura, Turobjon, qahramonlar, inson, o'g'ri, bemor, anor, o'tmish, zamonaviy, mahorat, Dahshat, muloqat, munosabat.

**Abstract.** In this article,the mutual description of the human psyche in the stories of Abdulla Qahhor, as well as the decription of the characters in his stories, are detailed.Unique features of Thief and Horror tricks.

**Key words:** Abdulla Qahhor, story, genre, realistic, Mastura, Turobjon, heroes, a person, a thief, patient, pomegranate,past, modern, skill, horror, communication, attitude.

Abdulla Qahhor o'zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo'lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o'sishi uning nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Abdulla Qahhor G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi yozuvchilar bilan hamkorlikda ijod etib, hikoya janrining ko'pgina namunalarini yaratdi. Uning "Bemor", "Anor", "Millatchilar", "Tomoshabog'", "O'g'ri", "Maston", "Qanotsiz chittak", "San'atkor", "Jonfig'on", "Yillar", "Adabiyot muallimi" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o'tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir.Yaqin o'tmishdagi o'zbek voqeligi "Anor", "O'g'ri", "Bemor", "Tomoshabog'","Millatchilar" kabi hikoyalarda aks etgan. Keyinchalik esa, adib o'tmish mavzusida yana "Dahshat" hikoyasini yaratdi. Shuningdek,, "O'tmishdan ertakla" qissa deb atalgan bo'lsa-da, mohiyati bilan ayrim-ayrim

hikoyalardan tashkil topgan. Shuning uchun ularni ham adibning oʻtmish haqidagi asarlari deb bilish mumkin.Abdulla Qahhor qissa va roman janrlarini taraqqiy etishiga ham salmoqli hissa qoʻshdi. U “Sarob”, “Oltin yulduz”, “Qoʻshchinor chiroqlari”, “Sinchalak”, “Oʻtmishdan ertaklar”, “Muhabbat” singari ajoyib roman va qissalar yozib, katta janrda ham mohir san’atkor ekanini isbotladi. Yozuvchi ajoyib oʻxshatishlar, goʻzal sifatlashlar, original mubolagʻalar va metoforalar, hikmatli soʻz va iboralar yaratish orqali oʻz fikrini gʻoyat siqiq va obrazli qilib ifodalaydi.Zamonaviy oʻzbek hikoyachiligining rivojida Abdulla Qahhorning hissasi nihoyatda katta. “Abdulla Qahhor oʻzbek hikoyachiligining zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga koʻtardi va oʻzbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon navalistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qoʻyish mumkin” deb yozgan edi rus tanqidchisi.

Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining koʻpchiligiurush yillarida va urushdan keyingi davrda yaratilgan. Bular “Koʻk convert”, ”Qizil convert”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinla”, “Asror bobo”, “Beshik”, “Mahalla”, “Nurli choʻqqilar” kabilardir. Albatta, ularning hammasi ham bir xil darajada badiiy yuksak emas. Ularning ichida mazmunan sayozroqlari ham, uncha pishiq ishlanmaganlari ham bor. Lekin shu bilan birga, hech shubhasiz, adabiyotimizning oltin fondidan oʻrin oladiganlari ham bor. Bu gap, ayniqsa, “Ming bir jon” va “Asror bobo” hikoyalariga taalluqlidir.

“Ming bir jon” - insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulugʻlaydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning koʻnglida umid chirogʻini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi, umr yoʻlidagi har qanday, gʻovlarni sabot va bardosh bilan yengishga oʻrgatadi. Hikoyani oʻqir ekanmiz, Mastura obrazi misolida chinakam oʻzbek ayolining jasorati, hayotga boʻlgan shijoati, bir insonning hayotga boʻlgan muhabbati, soʻnmas irodasi timsoli desak adashmagan boʻlamiz. Masturaning turmush oʻrtogʻining oʻz ayoliga boʻlgan vafodorligini, u bilan besh yil mobaynida bitta shifoxonada kasallar orasida sogʻ boʻlsada, ayoli uchun yashagan bir insonni koʻrish mumkin. U umrining oxirigacha oʻz ayoliga sadoqat bila sobit turdi va albatta farovonlikka erishishdi. Masturaning ruhiyati har vaqt hayotga boʻlgan tashnalik, kamtarlik sezilib turadi.

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi epigrafdan boshlanadi: “Uylar toʻla non, och-nahorim bolam, Ariqlar toʻla suv, tashnai zorim bolam” (“Oʻtmishdan ertaklar”). Adibning barcha mashhur hikoyalari ham epigraf bilan ochilgan: “Dahshat”, “ Bemor”, “Oʻgʻri”, “Tomoshabogʻ”, “Toʻyda aza” va boshqalar.

Hikoyadagi birinchi jumla: “Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib, tirsakkacha yirtildi”. Unda Abdulla Qahhorga yarashmagan koʻpsoʻzlilik bor, lekin fikrni bundan-da qisqa ifodalashning ham yoʻli yoʻq. Chunki qahramonning uyga hovliqib kirishini aytish bayon, xabar, xolos.

Abdulla Qahhor yozuvchi sifatida kitobxon ishonishi uchun buni badiiy detal bilan dalillashi kerak edi. Shuning uchun ham qalami yaktagining yengi yirtiladi, joʻnroq yozuvchi qisqa qilib, “yaktagi yirtildi” deb qoʻya qolardi. Biroq eshikning zulfini yaktakni yirtmaydi, uning faqat bir qismini, qoʻl tegishi mumkin boʻlgan yengini yirtishi mumkin, lekin yozuvchi uning “tirsakkacha yirtilgani”ni koʻrsatadi. Bu bilan Abdulla Qahhor asar syujetidan kutilajak, favqulodda hodisaning olis shabadasiga ishora qiladi. Yengi ilinib, qisqagina yirtilishi ham mumkin edi, biroq Turobjonning qalami yaktagining yengi tirsakkacha yirtildi. Demak, syujet yanada keskinlashishi va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa nochor davrning ilojsiz kimsalarining oddiygina tasviri. Hikoyada zamonning tashvishlari, oʻsha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayoti, oilaviy ahvoliga bitta anor timsolida yozuvchi oʻz hikoyasida ochib bera olgan chinakam realistik hikoyanavis ekanligini dalili desak toʻgʻri boʻladi. “Oʻgʻri” hikoyasini tekstual tahlil qilish koʻproq samara beradi. Negaki, hajman moʻjaz bu hikoyada badiiy maqsadga xizmat qilmaydigan, personajlar tabiatini ochishga qaratilmagan bironta soʻz ham uchramaydi. Binobarin, asarda nomuhim, ikkinchi darajali badiiy unsurning oʻzi yoʻq. Shu bois, xuddi lirik asarlarni tahlil qilgandek, mazkur hikoyani ham tekstual usulda oʻrganish samarali boʻladi. “Oʻgʻri” hikoyasi matni ustida ishlashni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasi asosida kitobxonga oʻzgalar baxtsizligi evaziga kun koʻruvchi manfaatparast kimsalarga nafrat, zulmga isyon hissini shakllantirish, asardagi obrazlarni tahlil qilish, yozuvchining soʻz qoʻllash mahorati va istiqlol mohiyatini anglatishdan iborat.

Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasining tahlili.

“Oʻgʻri” da ham oddiy xalq hayotidan biri Qobil bobo. U asarda jabrdiyda chol boʻlib tasvirlanadi. “Dahshat” hikoyasidagi dodho bilan bir zamonda yashasada, biroq undan farqi katta. Dodho boy-badavlat, sakkizta xotini boʻlishi bilan birga, aql-farosati ham joyida zulmkor shaxs boʻlib tasvirlanadi. “Oʻgʻri” qahramoni haddan tashqari goʻl, nodon odam, uning faolligi ham aslida nodonlik, goʻllik oqibati; u oʻz raqiblariga qarshi turish, ularni dushman deb bilish oʻrniga, ularga oʻzini yaqin oladi, dushman bilan doʻst tutinadi, ulardan yaxshilik kutadi, ularning ketidan tinmay yuguradi. Qobil boboning eng qaltis, ayanchli vaziyatdagi holati ham, najot yoʻlidagi faol xattiharakatlari ham kitobxonga kulgili boʻlib

tuyulaveradi. Ammo shu o‘rinda bu kulgu fosh etuvchi tahqirlovchi kulgi emas, bu kulgi zamirida oddiy odamga nisbatan zo‘r hurmat, oddiy odamni shu kuylarga solib qo‘ygan muhitga nisbatan kuchli nafrat bor.

Qobil bobo kulgili bo‘lib ko‘ringan xatti-harakatlari bilan ham kitobxon simpatiyasini o‘z tomoniga tortadi. Kitobxon uning nodonlarcha qilgan xatti-harakatlarini ko‘rib kuladi, ayni vaqtda uning nochor ahvoliga achinadi, qayg‘uradi. Ma’lumki, asarda Qobil bobodan tashqari yana bir necha salbiy personajlar –ellikboshi, amin, pristav obrazlari bor. Asarda bu obrazlarning yoshi ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ular ham oddiy xalq hayotidan deb hisoblaymiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda quramiz.− T.: O`zbekiston, 2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O`zbekiston, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishim kerak.− T.: O`zbekiston, 2017.
5. Abdulla Qahhor, Tanlangan asarlar.- Toshkent G‘ofur G‘ulom 1987
6. Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: O‘zbekiston, 2003. – 351b.
7. Aliyev A.Yu. O‘zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O‘zbekiston, 1996. – 118 b.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 558 b.

# ANTIBIOTIKLARNI QABUL QILISH QOIDALARI

***Mamanazarova Fotima***
*Andijon davlat tibbiyot instituti Sanoat farmatsiya yo'nalishi talabasi*

***Qurbonova Nargiza O'lmasovna***
*Farmatsevtik fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya**. Ushbu kichik maqola farmatsevtika sohasining ajralmas qismiga aylangan antibiotiklar, ularning afzalliklari va kamchliklari haqida, biz antibiotiklarni nima uchun ishlatamiz, qayerda ishlatishimiz to'g'risida qisqacha yoritib berilgan. Bu kichik maqoladan maqsad antibiotiklarni ishlatish, qo'llash qoidalari haqida iste'molchilarga ma'lumot yetkazish.

**Kalit so'zlar:** Antibiotik, Aleksandr Fleming, 3 kun qoidasi, infeksiya, Levofloksatsin, aholi savodxonligi.

Shu kunlarda eshitib qolamiz ayrim antibiotiklar haqida „o'limga olib kelarkan'' yoki „falonchi jurnalist antibiotik qabul qilib vafot etibdi'' degan. Shunday vaziyatlar sodir bo'lmasligi uchun yoki takrorlanmasligi uchun iste'molchida eng avvalo antibiotiklar haqida ma'lumot, savodxonlik bo'lishi kerak deb o'ylayman.

1929-yilning 13-sentabrida ingliz olimi Aleksandr Fleming ilk bor jamiyatga o'zining kashfiyoti – penitsillini taqdim etdi. Antibiotikning ixtirosi butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning hayotini saqlab qoldi.

Antibiotiklar (anti-qarshi, bios-hayot) turli xil mikroblarning o'sishi va rivojlanishini to'xtatadigan organik moddalar. Bu terminni Amerikalik olim Z.Vaksman taklif etgan. Antibiotiklar patogen mikroblardagi moddalar almashinuvini buzadi, ularni o'ldiradi yo o'sishini to'xtatadi. Antibiotiklar turli mikroblarga turlicha ta'sir etadi. Antibiotik ma'lum bir mikrobga kuchli ta'sir etsa, boshqa mikrobga kuchsiz yoki umuman ta'sir qilmaydi. Antibiotiklarning ayrimlari faqat mikroblarni emas, odam, hayvon va o'simlik to'qimalarini yemiradi. Shuning uchun tibbiyotda faqat zararli mikroblarni o'ldiradigan turlari ishlatiladi. Antibiotiklarni to'g'ri qabul qilishni hamma ham bilmaydi. Bu maktabda o'qitilmaydi, u har doim ham preparat uchun ko'rsatmalarda aniq ko'rsatilmaydi. Hatto qabulxonadagi shifokorlar ham bu oddiy, ammo muhim qoidalar haqida kamdan-kam gapiradilar.

Antibiotiklar to'g'ri ishlatilganda foydali va juda muhim dorilardir. Ular bakteriyalar keltirib chiqargan infeksiyalar va kasalliklarga qarshi kurashadi. Ularni oddiy shamollash davosiga ishlatish yaxshi emas. Antibiotiklarni yordam berishi aniq bo'lgan kasalliklarga ishlatish kerak. Antibiotiklar bakteriyalarni o'ldirish bilan bir qatorda organizmni zaharlashi yoki allergik ta'sir ko'rsatishi

ham mumkin. Shunday bo'ldiki, penitsillin paydo bo'lgandan beri antibiotiklar hamma joyda (hatto chorvachilikda ham) va nazoratsiz qo'llanila boshlandi. Bu ko‘plab bakteriyalarning mutatsiyaga uchrashiga, moslashishiga, chidamliligi oshishiga va an’anaviy davolash usullariga javob bermasligiga sabab bo‘ldi. Kerak bo’lmagan antibiotiklari ishlatish tufayli har yili ko’plab insonlar halok bo’ladi. Har qanday dorini o’ziga yarasha havfli tomonlari bor. Ba’zi dorilar boshqalariga nisbatan ancha xavfliroq. Afsuski, ba’zi insonlar oddiy kasallikka ham juda havfli dorilar ishlatadilar. Ustozim Levomitsetin ya’ni xloramfenikol kabi xavfli antibiotikni oddiy shamollashga qarshi onasi tomonidan berilishi tufayli nobud bo’lgan Bolani ko’rganligini ta’kidlaydi.[2.63] Organizmdagi hamma bakteriyalar ham zararli emas. Ba’zi bakteriylar organizm normal ishlashi uchun kerak. Antibiotiklar ularni ham zararli bakteriyalarga qo’shib o’ldiradi. Shu sababdan ampitsillin yoki boshqa antibiotiklar ishlatgan odamda bir necha kundan so’ng ich ketish kuzatilishi mumkin. Antibiotiklar kerak bo’lmagan paytda yoki takroran ishlatilsa, ta’siri susayadi. Kerak bo’lmagan antibiotiklar ishlatilsa, keyinchalik zarur bo’lgan paytda ta’sir qilmasligi mumkin. Bir xil antibiotik qayta-qayta ishlatilaverilsa, bakeriyalar kuchayib boraveradi va antibiotikka chidamli bo’lib qoladi. Ko’pchilik oddiy infeksiyalar uchun antibiotiklar kerak emas. Oddiy teri infeksiyalari odatda sovun va suv, issiq compress surtish bilan davolanishi mumkin. Nafas yo’llari oddiy infektsiyalari ko’p suyuqlik ichish, sifatli yaxshi ovqatlanish, ko’p dam olish bilan ham davolanishi mumkin.

Dunyodagi ayrim jiddiy kasalliklar antibiotikka chidamli bo’lib ketmoqda. Bunga sabab antibiotiklarning oddiy kasalliklarga ham ko’plab ishlatilishidir. Agar antibiotiklar insonlar hayotini saqlashni davom ettirishini hoxlasak, ularni ishlatish doirasini kamaytirish, iste’molchilarni bu borada savodxonligini oshirish kerak. Bu esa tibbiyot va farmatsevtika sohasi bilimdonlari tomonidan tatbiq etilishi kerak deb o’ylayman.

Organizm o’zi qarshi kurasha oladigan kasalliklarda antibiotik ishlatmang.!

Bu borada antibiotiklarni qabul qilishning bir nechta muhim qoidalari:

•Har qanday antibiotiklarni faqat shifokor tavsiyasi bilan ular nazorati ostida qabul qilinishi kerak.

•Antibiotiklarni iste’mol qilayotganingizda barcha ma’lumotlarni yozing: dozasi, nojo’ya ta’sirlari, allergik reaktsiyalar mavjudligi haqida.

•Antibiotiklarni qabul qilish vaqti va chastotasiga qati’y rioya qilish. Dori dozasi oraliq vaqtini teng taqsimlang. Bu qonda dorining doimiy konsentratsiyasini saqlash uchun muhim.

•Yozilgan kursni to’liq olish. Holat yaxshilanishini kuzatgandan so’ng qabul qilishni to’xtatmaslik. Antibiotik ta’sirini kuzatib borish. Agar 3 kun Ichida yaxshilanish kuzatilmasa, shifokor bilan maslahatlashib uni almashtirish.

•Antibiotik dozasini shifokor ruxsatisiz o’zgartirmaslik. Ularni kichik dozada qo’llash xavfli, chunki chidamli bakteriyalar paydo bo’lish ehtimoli ortadi. Dozani oshirish ham xavfli.

•Antibiotikni qabul qilish bo’yicha ko’rsatmalarni diqqat bilan o’qib chiqish va amal qilish. Turli dorilar ovqatlanishga bog’liq. Ba’zi dorilarni ovqat bilan, ayrimlari oldin yoki keyin qabul qilinishi kerak.

•Antibiotiklar bilan davolanish vaqtida probiotiklarni qabul qilish. Bunda tabiiy ichak mikroflorasi tiklanadi.

Agar siz antibiotikning qanday ishlatilishini yoki qanday infeksiyalarga qarshi kurashishini bilmasangiz, uni ishlatmang. Siz davolanmoqchi bo’lgan infeksiyaga maxsus ta’sir qiluvchi va tavsiya etilgan antibiotikni ishlating. Antibiotik miqdori kasallik va bemor Yoshi, vazniga bog’liq. Ortiq ham kam ham ishlatmang. Agar antibiotik ichib yaxshi natijaga erishgan bo’lsangiz, hech qachon ularning ukolini olmang. Shifokor tavsiyasi bilangina ukol oling. Agar antibiotik toshma, qichishish, nafas olish qiyinlashishi yoki boshqa jiddiy ta’sirlar qilsa, uni iste’mol qilishni to’xtating. Va bu dorini butun umr davomida qayta ishlatmang. Albatta shifokor ko’rigiga uchrang. Antibiotiklarni juda zarur paytlardagina ishlating. Eng muhimi sog’ligingizga befarq bo’lmang, uni asrang.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Curtis Blomfield | blomfield@medicinehelpful.com.
2. Qurbonova.N.U.Internauka 63-bet
3. Hammabop Tibbiyot qo’llanmasi 7-bob. 136-bet.
4. Uzpharmagency.uz

# SHARQ REYHARDIYASI OSIMLIGINI FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH

***Kurbonova Nargiza Ulmasovna***
*Andijon davlat tibbiyot instituti assistenti*

**Annotatsiya.** Ekologiyaning inson hayoti uchun xavfli darajada buzilishi asosiy global muammo hisoblangan davrda yashayotgan ekanmiz, hozirda ayniqsa bu muammo o'rta osiyo davlatlarida dolzarb mavzudir. Buning oqibatida allergik, onkologik va boshqa kasalliklarni ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu kasalliklarni oldini olish va davolash uchun kerak bo'ladigan mahsulotlarga talabni kuchaytirmoqda. Dorivor o'simlik manbalariga fitogenetik tadqiqot olib borish maqsadida alkaloidlarga, polisaxaridlarga va flavanoidlarga tekshiruv olib borildi. O'simlik flavanoidlari aktiv antioksidant hisoblangani uchun shu yo'nalishda qidiruv ishlarini olib borildi va begona o't sifatida o'suvchi fanda yaxshi o'rganilmagan Sharq Reyhardiyasi (lot. Reihardia orientales) yoki Ko'knori bargli Reyhardiya (Poppy leaved reichardia) o'simligini fitokimyoviy, makroskopik va mikroskopik tahlillari o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** Reyhardiya, ko'knori bargli reyhardiya, farmakognostik, fitokimyoviy.

Makroskopik tahlil: Ko'p yillik o't o'simlik. Tik o'suvchan poyali, poyasi balandligi 10-45 sm. Bazal barglari butun tishsimon qirrali, oval shaklda, uzunligi 2-13 sm, kengligi 0,5-2,5 sm. Pastki poya barglari bazalnikiga o'xshaydi, lekin turg'un, poyani quchoqlaydi, yuqori poyasi kichikroq, odatda butun bo'ladi. Gul savatchalarning gulkosachalari membranali qirrali ko'p tuxumsimon varaqalar bilan qoplangan. Savatlar 1-5, uzunligi 10-20 mm, kengligi 8-14 mm, tuksiz. Gultojlari savatchada joylashgan tilsimon, sarg'iq rangli. U hasharotlar tomonidan changlanadi. Mevasi pistasimon. Urug'lar shamol orqali tarqaladi. Bundan tashqari, vegetativ tarzda ko'payadi.

Ildizi rivojlangan o'q ildiz.

Mikroskopik tahlil:

1. Sovuq yo'l bilan yumshatilgan ildizni glitserin va spirt aralashmasiga bir sutka solib qo'yib, keyin ko'ndalangiga hamda bo'yiga (tangental holda) kesib preparat tayyorlanadi va mikroskop ostida ko'rildi. Preparatda esa sut naylar naycha shaklida shoxlangan va bir-biri bilan birlashgan holatda uchraydi.

2. Mikroskopik tahlil qilish uchun yangi barglar 1: 1: 1 nisbatda etil spirti, glitserin va suv aralashmasida fiksatsiya qilindi. Bargning pastki qismidagi barg plastinkasining epidermisi tartibsiz shaklli hujayralar bilan ifodalangan. Ustki epidermis hujayralari kamroq burilishli devorlarga ega. Pastki yuzada og'izchalar mavjud. Epidermis hujayralari cho'zilgan, to'g'ri burchakli ba'zan esa qiyshiq burchakli. Bargning pastki tomonida tomirlar bo'ylab uzun, ko'p hujayrali tuklar mavjud. Poyaning ko'ndalang kesimida va bargning asosiy tomir to'plamlari.

Fitokimyoviy tahlil:

1. Sut naylari yod ta'sirida sariq-qo'ng'ir rangga, sudan-III eritmasi ta'sirida esa (bir oz qizdirilgandan so'ng) qizil rangga bo'yaldi.

2. O’simlik tarkibidagi flavonoidlarni aniqlash uchun, o’simlik gullaridan tayyorlangan 70%li 2ml spirtli ajratmasiga 10%li NaOH dan 1ml qo’shilganda ajratma to’q sariq rangga o’tdi.

3. O’simlik ildizi tarkibida inulin borligi Molish reaksiyasi yordamida quyidagicha aniqlanadi: ildizdan kesib olingan bolakchaga a-naftolning spirtdagi 20 foizli eritmasidan 2—3 tomchi va konsentrlangan sulfat kislotadan 1-2 tomchi tomizilsa, ildiz bo'lakchasi (inulin) binafsha rangga bo‘yaldi.

4. Ildiz tarkibidagi inulin borligi a-naftol xamda rezorsin yoki timolning spirtdagi 10 %li eritmasi tomizilganda ildiz bo'lakchasi qizil rangga bo‘yalishi bilan xam aniqlandi.

5. Dragendorf reaktivi yordamida alkaloidlarga umumiy cho’ktiruvchi reaktsiya o’tkazildi. Buning uchun 2ta idishda eritmalar tayyorlandi.

A eritma: 0,85 gr vismut nitrat asosli tuzini 40 ml suv va 10ml sirka kislotada eritildi.

B eritma: 20ml kaliy yodid 50 ml suvda eritildi.

A va B eritmalar aralashmasidan 10 ml olib ustiga 100 ml suv va 20 ml sirka kislotasi qo’shildi.

O’simlik xom-ashyosidan tayorlagan spirtli ajratmamizdan 1 ml olib Dragendorf reaktividan 5-6 tomchi tomizildi. Natijada alkaloidlar mavjud ekanligidan darak beruvchi qizg’ish cho’kma tushdi.

Alkoloidlarni nomini aniqlash uchun xususiy reaktsiyalar qilindi. Mass-spektroskopiya metodida tahlil qilindi.

Ishlatilishi: Sharq Reyhardiyasi o’simligiga yaqin bo’lgan Reichardia tingitana turi G'azanfar tomonidan qabziyat (ich qotishi), kolit xastaliklarida tavsiya etilgan. Xalq tabobatida barglari yordamida shishgan va yallig'langan ko'zlarni davolashgan. Sharq Reyhardiyasi o’simligi chuqurroq farmakologik tekshiruvlar o’tkazilishi rejalashtirildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Максутова Вилена Олеговна «МЕТОДЫ ВЫДЕЛЕНИЯ АЛКАЛОИДОВ ИЗ РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ».
2. Лариса Николаевна ЗИБАРЕВА «АЛКАЛОИДЫ –
3. ВТОРИЧНЫЕ МЕТАБОЛИТЫ РАСТЕНИЙ».
4. Курбонова Н.У. «ДЕЙСТВИЕ ЭФИРНЫХ МАСЕЛ ПРИ ИНФЕКЦИЯХ ДЫХАТЕЛЬНЫХ ПУТЕЙ И КОВИД-19»
5. Выпуск №13 (том 3) (апрель, 2021) https://portal.issn.org/resource/ISSN/2782-4365
6. https://www.enature.qa/
7. https://ru.frwiki.wiki/wiki/Reichardia_famarae

# OTA-ONALARNING BOLAGA MUNOSABATI IJTIMOIY FOBIYA SHAKLLANISHI OMILI SIFATIDA

***Odilova Yoqutxon Islomovna***
*Psixologiya fani oʻqituvchisi, Navoiy davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya**. Bolalar oʻzlarining maʼlum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida yetarli maʼlumotga ega boʻlsalar, bu ularning hayotda uchraydigan turli qiyinchiliklarni osonlik bilan yenga olishga, oʻz imkoniyatlaridan yanada unumli foydalana olishga, oʻzlari haqida yanada chuqur, ijobiy va oʻziga xos tasavvurlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ota-onalarning bolaga boʻlgan munosabatlarining toʻgʻri shakllanmaganligi esa, bolada ijtimoiy fobiyani yuzaga keltiradi

**Kalit so`zlar:** ijtimoiy fobiya, ota-onalarning roli, munosabatlari

Kirish. Psixologiya fanining turli sohalariga tegishli ijtimoiy fobiya, tashvish va shunga o'xshash holatlar tadqiqotchilari odatda ijtimoiy fobiya fenomenologiyasini o'zlari tegishli bo'lgan psixologiya yo'nalishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Rivojlanish psixologiyasi uchun etiologiyaga e'tibor qaratish xosdir; shaxsiyat va ijtimoiy psixologiyada tadqiqotlar ijtimoiy fobiyaga jamiyat bilan o'zaro munosabatning shaxsiy xususiyati sifatida qaratilgan; klinik psixologlar va psixiatrlar ijtimoiy fobiya diagnostik mezonlarini ko'rib chiqadilar. Bu ko'p tushunchalar o'zaro bog'liq, ammo bir-birini almashtirib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy fobiya va shunga o'xshash sharoitlar mavzusi shaxslararo va kognitiv yo'nalishlarda eng ko'p rivojlangan.

ASOSIY QISM

Shaxslararo yondashuv vakillari nuqtai nazaridan, ijtimoiy fobiya, birinchi navbatda, shaxslararo munosabatlarning buzilishidir. Ushbu buzuqlikning asosiy belgilari boshqa odamlar bilan aloqa qilishda yuzaga keladi va uning eng og'ir oqibati shaxsning shaxsiy va kasbiy munosabatlarni saqlab qololmasligidir. Shaxslararo model yaxshi ijtimoiy munosabatlar ruhiy farovonlik bilan chambarchas bog'liq, qoniqarsizlari esa turli xil kasalliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradi degan taxminga asoslanadi. Shaxslararo munosabatlar nazariyasining asosini o'z-o'zini ta'minlaydigan shaxslararo sikl deb ataladigan kontseptsiya tashkil etadi

Ijtimoiy fobiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bu bola va uning ota-onasi o'rtasidagi bog'lanish sifatidir. J. Boulbining bogʻlanish nazariyasiga koʻra, xavfsiz bogʻlanish turiga ega boʻlgan bola oʻz bogʻlanish figurasidan boshpana sifatida atrofdagi dunyoni oʻrganish va qaygʻuga duchor boʻlganda u yerga qaytish uchun foydalanadi. Xavfsiz bog'lanish turiga ega

bo'lgan bola o'z tarbiyachisini g'amxo'r, mas'uliyatli va qulay deb biladi. Ishonchsiz biriktirma turi bo'lgan bola, aksincha, biriktiruvchi raqamning mavjudligi va mas'uliyatiga ishona olmaydi. Bunday noaniqlik xavotirli vaziyatlarga qo'rquv reaksiyasini rivojlantirish imkoniyatini oshiradi. Agar bola o'zining qo'shimcha raqamlariga ishonsa, unda qo'rquv va tashvish hissi paydo bo'lishi ehtimoli kamroq.

Oila - bu insonga butun hayoti davomida hamroh bo'ladigan eng muhim hodisa. Oilaviy munosabatlar, qoida tariqasida, shaxs uchun eng muhim va ahamiyatli bo'lib, bu ularning shaxsni shakllantirishdagi yetakchi rolini va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tushuntiradi. Oilaning etakchi roli bir qator holatlar bilan belgilanadi:

1. Shaxsiy munosabatlar tizimida oilaviy munosabatlarning yetakchi roli. Inson hayotining dastlabki bosqichlarida oila keyingi rivojlanish uchun eng muhim bo'lgan yagona va keyinchalik u o'z ichiga olgan eng muhim ijtimoiy guruhlardan biridir.

2. Oilaviy munosabatlarning ko'p qirraliligi va ularning bir-biriga bog'liqligi, ularning biron birida ozmi-ko'pmi muhim o'zgarishlarni amalga oshirishga urinish boshqalarning o'zgarishlarining "zanjirli reaktsiyasini" keltirib chiqaradi. Bu xususiyat tufayli oilaviy travmadan qutulish qiyinroq.

3. Oila a'zolarining turli oila ichidagi ta'sirlarga, shu jumladan travmatik ta'sirlarga nisbatan alohida ochiqligi va shuning uchun zaifligi. Oilada shaxs boshqa oila a'zolarining ta'siriga ko'proq mos keladi; uning zaif tomonlari va kamchiliklari eng yaqqol namoyon bo'ladi.

Oilada bola shaxsini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bu bola-ota-ona munosabatlaridir. Ular ajralmas tizim sifatida oilaviy munosabatlarning eng muhim quyi tizimini tashkil qiladi va bolaning va ota-onaning yosh xususiyatlari bilan uzluksiz, uzoq muddatli va vositachi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bola-ota-ona munosabatlari bolaning psixologik rivojlanishi va ijtimoiylashuv jarayonining eng muhim hal qiluvchi omili sifatida quyidagi integrativ parametrlar bilan aniqlanishi mumkin. [1]

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ota-onalarning o`zlarini noto`g`ri tutishlari (garchi buni o`zlari to`g`ri deb hisoblasalar ham) bolani ongida jiddiy buzilishlarga va ijtimoiy fobiyani keltirib chiqarishga sabab bo`ladi. Buni oldini olish uchun bolaga yoshlikdan to`g`ri tarbiya berish, uning qiziqishlari va hohishlarini hurmat qilish, unga ham oila a`zosi, ma`lum bir shaxs kabi etibor qaratish kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мякотин, И. С. (2018). *Отношение родителей к ребенку как фактор формирования социальной фобии* (Doctoral dissertation, Ярославль, 2018. 194с).
2. Кочетова, Ю. А. (2012). Страхи современных дошкольников и их связь с особенностями детско-родительских отношений. *Психологическая наука и образование, 17*(3), 77-87.

# "QISASI RABG'UZIY" ASARIDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.KO'CHIM YO'LI BILAN HOSIL BO'LGAN IBORALAR

***U.Farmonova***
*FarDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan frazeologik birliklarning shakllanish asoslari tahlil qilingan. Asardagi ko'chim yo'li bilan hosil bo'lgan iboralar tahlil qilingan.

**Kalit so'z va iboralar:** frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, leksema, ko'chim.

Frazeologizmning ma'nosi tarkibidagi so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, frazeologik ma'noni frazeologizm komponentlari ma'nolaridan keltirib chiqarish mumkin bo'ladi. Bu tipdagi frazeologizmlarga misol sifatida *aqlini yemoq, ko'zini bo'yamoq, ko'nglida kiri yo'q, ko'ngli toza, boshiga yetmoq, yo'ldan urmoq, tili qichimoq* kabilarni ko'rsatish mumkin.

Frazeologizmlar yuqoridagidek komponentlarining ko'chma ma'noda qo'llanishi asosida, shuningdek, boshqa yo'llar bilan ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday frazeologizmlar ma'nosini tarkibidagi so'zlar ma'nolari umumlashmasidan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Masalan, ba'zi frazeologizmlar ifodalaydigan ma'no so'z birikmasi bildiradigan belgi, harakatdan mantiqan kelib chiqadi. Masalan, arpani xom o'rish zarar (yomonlik) ekani aniq. Shu sababli *arpasini xom o'rmoq* frazeologizmining "yomonlik qilmoq" ma'nosi asosini sezish qiyin emas. Bunday frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nolari umumlashmasidan kelib chiqmasligi sababli tarkibidagi so'z (so'zlar) o'rnida boshqa so'z qo'llansa ham ma'no o'zgarmaydi. Masalan: *boshida yong'oq chaqmoq, boshida tosh chaqmoq, miyasida danak chaqmoq* yoki *soyasiga – soyasiga ko'rpacha solmoq.* Metafora yo'li bilan ko'chirish leksik ma'no taraqqiyotida ham frazeologik ma'noning shakllanishi taraqqiyotida ham eng mahsuldor usul hidoblanadi. Antik mualliflar "troplar ichida metafora eng ko'lamli va yorqin obrazlarni yuzaga keltiruvchi vositadir", deya ta'kidlaydilar. Metaforaning xarakterli xususiyati predmet, harakat, narsa – hodisalarning nomlari boshqasiga o'zaro o'xshashligi asosida

ko'chirilib, yangi ma'noni yuzaga keltirishdan iboratdir. Leksikologiyada metafora leksik ma'noni taraqqiy ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Frazeologiyada esa metaforani yangi ma'noni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraymiz. So'z birikmalarini metafora yo'li bilan ko'chirish asosida butunlay yangi ma'noli til birligi yuzaga keladi. Metafora yo'li bilan ko'chirish butun birikmaga yoki uning ayrim qismlariga tegishli bo'lishiga ko'ra, to'liq yoki qisman semantik shakllanishlarga ajratish mumkin.

Metafora yo'li bilan ko'chirish aniq, mavhum, narsa - hodisalar doirasida, harakatlar va belgilar o'rtasidagi o'zaro o'xshashliklar asosida yuz berishi mumkin.

*Nadomat yemoq* va *mol yemoq* iboralari yemoq fe'lini ko'chma ma'noda qo'llash asosida hosil bo'lgan.

Ammo bu kun Muhammad rasululloh sallallohu alayhi va sallam barakotidin ummatlari nechakim yozuq qilsalar, bir yo'li nadomat yeb, pushaymon bo'lsalar, yoziqlari yorliqlanur, tavbalari qabul bo'lur.

Yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur.

*Ont ichmoq* frazeologizmi *ichmoq* fe'lini metaforik ko'chirish asosida shakllangan:

Ont ichdi ersa qasosdin qutuldilar, ont ichmagan xun bahosi bersun. Otasi, onasi o'g'limiz o'g'rilik qilmas, teb bilmayin ont ichar erdilar.

*Pand bermoq, pand olmoq o'gut bermoq, o'gut olmoq* iboralari *bermoq* va *olmoq* so'zlarini ko'chma ma'noda qo'llash asosida hosil bo'lgan:

Bir vaqtda Muso alayhis – salom bani Isroilg'a pand berur erdi.

Mavlo taolo qamug' dunyo mulkin berdi. Aning birla to'ymassen, qachon lahadga kirsang, bir ovuch tuproq birla to'yarsen". Zulqarnayn bu so'zlardin pand oldi.

*Xoliqg'a imon kelturung teb ko'p o'gut berdi o'yla,*
*Ul o'gutni olmayin emgattilar ko'rgan shaqiy.*
*Ularg'a bordilar. Luqmonni ko'rdi, o'gut berur.*
*O'gut olg'il, Makkaga borg'il.*

Vasiyatni tutmoq iborasi tutmoq fe'lini, shifo bermoq iborasi bermoq fe'lini, ahdni buzmoq iborasi buzmoq fe'lini, islomga kirmak iborasi kirmoq fe'lini ko'chma ma'noda qo'llash asosida hosil bo'lgan:

Yuqoridagi misollarda harakat ifodalovchi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lsa, quyidagi gapda belgi bildiruvchi so'zlar (issiq, siniq, butun) metaforik ko'chim asosida frazeologizmlarni shakllantirgan:

Keldi kavnayinni kezibon topdi issiq o'rnini,
Tonglashib qoldi xaloyiq, qodir Olloh qudratin.

Ul mulk ul turуrkim, qachon ko'ngli sinuq, ichi butun mazlak mo'min "oh" teb ichidin sovuq dam ursa, shahodat kalimasi aning qo'ldosh qilsa, ko'z yumub ochg'uncha ul sovuq yellik kalimani Arshg'a tegurgay.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Раҳматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология //Ҳозирги ўзбек адабий тили. —Т., 1992. 49-186–бетлар;
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. —Т., 1992;
3. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. —Т., Ўқитувчи, 1995.

## YOSHLARDA TADBIRKORLIK VA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI

***Dustov Baxodir Toshpulatovich***
*Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya**. Maqolada hozirgi kunda yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, dunyo tajribasi yutuqlarini, muvaffaqiyatlarini o'rganish orqali ulardan yuqori natijalarga erisha olish masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, tadbirkorlik, iqtisodiy tafakkur, yangi bilimlar, ko'nikmalar, innovatsiya.

Globallashuv davrida yoshlarning iqtisodiy madaniyatini va tafakkurini oshirish va sifat jihatdan yangi bilimlar, ko'nikmalar bilan yuksaltirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shuning uchun bugungi kun yoshlarini mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bilim, ishtiyoq, yuqori darajada o'z iqtisodiy tafakkurni va faollikni talab qiladi. Bu borada yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev "Oldimizda turgan eng muhim masalalar shuki – ma'naviyatli, bilimli va kasb-hunarli, o'z fikriga ega bo'lgan yoshlarimizni zamonaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni yaxshi tushunamiz"[1]. O'zbekiston iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, tadbirkorlikni kuchaytirish, ayniqsa, yosh avlodni bu sohaga jalb qilish davri kelganidan dalolat beradi.

Buning uchun biz yoshlarda iqtisodiy dunyoqarashni qanday qilib rivojlantirish qonuniyatlarini qarab chiqishimiz lozim. Aslida iqtisodiy dunyoqarashining bilish, fikrlash, va o'zi qurshab turgan dunyoni anglashi, o'zgarishlarni oldindan his eta olishi, ijodiy fikrlar yaratish va ularni amalga oshirish yo'llarini topish kabi ma'naviy yuksalish shakllaridan biridir.

Milliy iqtisodiyot jahon global iqtisodiyotining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Xalqaro integratsiyaning asosiy maqsadi dunyo bozorini rivojlantirish va chuqurlashtirish orqali hamda hamkorlikda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil

etishdan iborat. Bu esa nafaqat keng iqtisodiy dunyoqarashni, balki faoliyat sohalarining kengayishiga olib keladi. Boshqa xorijiy davlatlarning tajribasi ijobiy natijalar berishi uchun quyidagilar zarur:

- birinchidan, mamlakatning milliy iqtisodi tajribasidan muhimligini ajrata olishi lozim;

- ikkinchidan, xalqaro iqtisodiy tajribani qabul qilayotgan davlatlarning o‘ziga xos sharoitlariga aniq va har yoqlama tahlil qilish asosida qo‘llanilishi zarur.

Tadbirkor ishlab chiqarish yangi ruhiy munosabatlarni rivojlantirishi, nostandart yondashuvlarni topishi, qarshiliklarni oldindan ko‘ra bilish va ularni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Iqtisodiy nazariya iqtisodiy tafakkur ilmiy-nazariy faoliyatiga ko‘ra keng va tor bo‘lishi mumkin. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini turli sohalariga nisbatan kengroq izlanishlarni hamda muvaffaqiyat darajasini namoyon qiladi. Iqtisodiy tafakkurning shakllanishi va faoliyatini quyidagilar orqali ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:1) tadbirkor amalga oshirmoqchi bo‘lgan rejalarni belgilash qobiliyati; 2) harakatlaringizni boshqara olish qobiliyati; 3) o‘z erishgan natijalar to‘g‘risida hisobot berish. Iqtisodiy tafakkur L.S.Blyaxmanning fikricha: “iqtisodiy munosabatlarning inson ongida aks etishi, ular tomonidan iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirish va ularning ongida iqtisodiy faoliyatda nomoyon bo‘lishi jarayoni” [2;42] dir.

Iqtisodiy tafakkur insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘zini qurshab turgan moddiy olam hodisalarga munosabatining shakllanishi. Bu o‘zgarish va jarayonlarga o‘zaro baho berishi va aniq qarorlar qabul qilishi lozim. Iqtisodiy ong, qarashlar, faoliyat, bilim va tasavvurlar tadbirkor inson madaniyatini shakllanishidan iborat bo‘lib, unda iqtisodiy madaniyat shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: “Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko‘plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo‘lamiz” [3;23] – degan fikrni ilgari surgan.

Iqtisodiyot nazariyasiga ensiklopedik lug‘atlarda tadbirkorlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tadbirkor - bu ishbilarmonlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan, korxonani tashkil qilish uchun mablag‘ qidiradigan va shu bilan tadbirkorlik tavakkalini o‘z zimmasiga oladigan shaxs. Tadbirkorlik tashabbusi - bu doimiy raqobatbardosh g‘oyalarni ishlab chiqish, doimiy jarayon sifatida eng samarali g‘oyalarni tezkorlik bilan amalga oshirish va yangi texnologiyalar yordamida olingan yangi mahsulotlarni eng tez va eng samarali sotish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini tashkil etishni o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish va sotishni boshqarish shakli”[4]. Garvard universiteti professori Xovard Stivenson tadbirkorlikni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishi natijasida o‘ziga xos yondoshib

quyidagicha yondashgan. Ya’ni “tadbirkorlik bu –boshqaruv madaniyati haqidagi fan bo‘lib, u ayni paytdagi nazorati ostidagi resurslarga tayanib keng imkoniyatlarga intilish”dir [5].

Demak, ushbu keltirilgan ta’rif orqali biz tadbirkorlikka iqtisodiy tafakkurning yuqori natijasi sifatida keltirilib, insonlar mavjud imkoniyatga tayanib katta moddiy-ma’naviy boyliklarga erishish tushuniladi. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik mehnat omili bilan chambarchas bog‘liq subyekt sifatida namoyon bo‘lib, ishbilarmonlik kabi ijobiy xususiyatlar bilan aynanlashtiriladi. Biroq tadbirkorlik moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishning omili sifatida dastlabki g‘oyalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi davr yoshlarining iqtisodiy tafakkurida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish innovatsion xususiyatlari quyidagi substansional asosga ega: 1) akkumulyativ - iqtisodiy madaniyat tarkibidagi qismlarning o‘zgaruvchanligiga moyilligi, obyektlarni tezroq idrok va tasavvur etish uchun tadbirkorlik jamiyatida madaniylashgan jamiyat sifatida vujudga kelishi; 2) inson ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish orqali ishbilarmonlik faoliyatini boyitadi va yangilanish imkoniyatlarini o‘stirish bilan birga, tashqi va ichki imkoniyatlarini tarmoqlashtirish orqali madaniy an’analarni rivojlantirish; 3) mehnatdagi sifat va samaradorlik – ya’ni madaniy aloqalarning ko‘pligi va ularning quvvati tufayli samarali ishlash qobiliyatining o‘sishi; 4) invariantlilik - tadbirkorlar madaniyati xarakatga keltiruvchi va tajribalarining ikki xilligini keltirib chiqaruvchi qobiliyatdir. Kishilarning erkin tanlash tamoyillari asosida iqtisodiy madaniyat meyorlari va qadriyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Yoshlar tadbirkorligining kuchli jihatlari shundaki ularda yuqori ijodkorlik faoliyati, yangicha fikrlash, harakatchanlik; yondashuvlarga moslashuvchanligi, yangi o‘sib borayotgan ehtiyojlar bozorlarining rivojlanishiga tezkorlik bilan moslashish; o‘zgaruvchan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishga tayyorgarlik va o‘sib borayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda zomanaviy bilim va ilg‘or tajribalari orqali bosqichma-bosqich takomillashtiriib borish. Yosh tadbirkorlarni iqtisodiy faoliyat bilan ayniqsa, uning dastlabki bosqichida kuzatiladigan ortib borayotgan bosim va ruhiy xolatlariga doimo ijobiy qobiliyatlarining mavjudligi, hamda ruhiy holatining barqarorligiga erishishdan iborat. Demak tadbirkor yuqoridagi yutuqlarga erishish uchun zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki yoshlar iqtisodiy dunyoqarashda tadbirkorlik madaniyatini takomillashtirish va yuksaltirish imkoniyatlari va uning metodologiyasini o‘rganish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, iqtisodiy dunyoqarash xosilasi bo‘lgan ishbilarmonlar doimo yangilikga intiluvchi bo‘lib, yangi-yangi g‘oyalarni amaliy hayotda qo‘llashda va ishlab chiqishga tadbiq etishda iqtisodiy, huquqiy imkoniyatlardan keng foydalanishi lozim. Iqtisodiy dunyoqarash kishilarning mehnat faoliyati, ishbilarmonlik darajasi va tadbirkorlik madaniyati, ma’naviyati orqali yoshlarda yangicha tadbirkorlikni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy makon yaratadi;

Ikkinchidan, yoshlarimizning ishbilarmonlik madaniyati oldingi davrda yaratilgan kashfiyotlar, qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda eski ishlab chiqarish munosabatini yangi shaklga o‘tishi, ishlab chiqarish usulini yangilash bilan bog‘liq bo‘lgan sinergetik jarayondir;

Uchunchidan, tovar va mahsulotlarning yangi bozorini shakllantirish, oldin mavjud bo‘lgan yoki ma’lum bir mamlakatda sanoat hali muomalaga chiqarmagan va tashkil qilmagan yangi bozor munosabatlarini yaratish bu jamiyat kelajagi uchun iqtisodiy tafakkur belgisidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // «XXI ASR», 2016 йил 21 октябрь, 44-сон.
2. Бляхман Л.С. Перестройка экономического мышления. – М.: Политиздат. 1990. С-42
3. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакни, тадбиркор халқ – фаравон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Тошкент: Ўзбекистон,2019. – Б.23.
4. Краткий экономический словарь / под ред. А.Н. Азриэляна. – Москва, 2004.
5. Stevenson H.H., Shirley M.S. Getting to Giving: Fundraising the Entrepreneurial Way. Belmont, 2011.
6. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддиқий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.
7. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
8. Maxmudova M. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA IJODIYLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI //Scienceweb academic papers collection. – 2021.

9. JAMALOVA N. BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI //Monografia pokonferencyjna science, research, development# 32. 2. Berlin,. – 2020.
10. Qahramonovich H. N. Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 43. – С. 6-9.
11. Ruzimurodov S. M. Ethnomadanian, Ethnoestetic Aspects Of The Formation Of A Healthy Lifestyle In Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 188-194.
12. MADATOVICH R. S. Aesthetic Features of the Formation of a Healthy Environment in the Upbringing of Children in the Family //JournalNX. – 2020. – Т. 6. – №. 04. – С. 88-90.

## ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR TAHLILI

***Abdug'aniyeva Gulsanam***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*filologiya fakulteti*
*o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*
*301- guruh talabasi*
*murodjonabduganiyev36@gmail.com*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada ergashgan qo`shma gaplar tahlili haqida so`z yuritilgan. Shuningdek, ergashgan qo`shma gaplar yuzasidan mashqlar berilgan bo`lib metodlar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** ergashgan qo`shma gaplar, gap tahlili, bog`lovchilar, ko`makchilar, yuklamalar, sodda gaplar, qo`shma gaplar,bog`langan qo`shma gaplar.

Ona tili darslarini o'qitishning samarali usullarini qo'llash bugungi kun o'qituvchisining asosiy vazifasidir. O'quvchilar ona tili darslaridan yozma va og'zaki savodxonlikni mukammal darajada o'zlashtirsa, o'qituvchi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi.

Bugungi kunda zamon talabi darajasida dars o'tish uchun o'qituvchidan izlanuvchanlik, tirishqoqlik, bilimdonlik va fidoyilik talab etiladi.

Bugungi kun o'qituvchisi innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, dars o'tishda noan'anaviy usullardan samarali foydalanishi, o'z faniga doir yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda individual ishlay olishi kerak. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchi sifatida nutqi ravon va boy bo'lishi lozim.

Dars jarayonida mavzu yuzasidan muammoli vaziyat yaratilsa, aniqlansa va bu vaziyat bartaraf etilsa, o’quvchilar mavzuni puxta o’rganishadi va maqsadga erishiladi.

Ona tili darslarida turlicha muammoli vaziyatlarni yaratish mumkin. Masalan, tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida, mavzularni bir – biriga taqqoslash asosida va h.k.

Muammoli vaziyat yaratish o’qituvchining bilimi va mahoratiga bog’liq.

Dars samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati kattadir. Bu orqali o’quvchining faolligi oshadi, bilimi yanada mustahkamlanadi. O’quvchi mantiqiy fikrlashni va bu orqali o’z fikrini erkin bayon etishni o’rganadi.

Ta’limning ushbu turiga muvofiq o’quvchilar bilan didaktik o’yinlar, mavzu yuzasidan munozaralar, musobaqalar tashkil etiladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga asosan o’quvchi mavzuni tayyor holda o’zlashtirib olmay, uning ma’no-mazmunini tushunishi, izlanishi, ijodiy yodashishi zarur.

9- sinf darsligida berilgan “Ergashgan qo’shma gaplar” mavzusini ham o’quvchilar o’zlashtirishga qiynalishadi. Biz bo`lajak o’qituvchilarning vazifamiz bu mavzularni oson va qiziqarli tarzda o’quvchilarga tushuntirishdir. Bunda turli metodlardan foydalanishimiz mumkin.

**“Taqqoslash” metodi**. Bunda o’quvchilar bog’langan va ergashgan qo’shma gaplarning o’xshash va farqli jihatlarini bir- biriga taqqoslab misollar keltirishadi.



Bilib oling. Ergashgan qo'shma gaplar tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap hisoblanadi.

## Farqli jihatlari




**"Kim zukko?"**o'yini. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi.

1-guruh  dagi gaplarni yozadi.

2- guruh  dagi gaplarni topadi.

-ki yuklamasi bosh gap tarkibida keladi

-sa shart mayli ergash gap

**1. Fikr tiniq bo'lsa, nutq ravon va chiroyli bo'ladi.**

**2. Kimda aql oz bo'lsa, unda shuhratparastlik shunchalar kuchayar.**

**3. Shuni bilingki, bitta so'z yuzta shamshirdan o'tkirroqdir.**

**4. Shuni unutmaginki, g'alvirda suvturmas.**

**5. Inson qanchalik kamtar bo'lsa, u shunchalik maqtovga loyiqdir.**

**6. Kimning yuragida yaxshilik bo'lsa, u doimo boshqalarga Yaxshilikni ravo ko'radi.**

**7.Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.**

**8. Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan.**

**9. Nimaiki senga zarar keltirsa, o'sha narsani boshqalarga ham ravo ko'rma.**

**10. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushib qoladi.**

1. Guruh: 3-, 4-, 7-, 8-, 10- gaplarni yozadi.
2. Guruh: 1-, 2-, 5-, 6-, 9- gaplarni yozadi.

133- mashq.O'qituvchi matnni o'qib eshittiradi. O'quvchilar tinglab, ergashgan qo'shma gaplarni aniqlab, ularni ko'chiradi.

O'sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoyi gullarga burkaydiganday.

Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushib qoladi.

Bunga sabab shuki, gunafsha rang qog'ozdan varrak yasab uchirardim.

Shunisi qiziqarli ediki, ko'm-ko'k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to'lib ketardi.

134- mashq. "Tahlil" metodi. Gaplarni ko'chiring. Bog'lovchi vositani toping va sodda gapga aylantiring.

Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut – baraka bo'ladi.

1. Bog'lovchi vosita: nisbiy so'zlar ( qayerda…sa, o'sha yerda…)
2. Sodda gapga aylantirilganda: Ahillik bo'lgan yerda qut – baraka bo'ladi.
3. Qolipi:



O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan.

1. Bog'lovchi vosita: nisbiy so'zlar ( qancha…sa, shuncha…)
2. Sodda gapga aylantirilganda: O'simlikni parvarish qilganingda mo'l hosil olasan.
3. Qolipi:



Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi.

1. Bog'lovchi vosita: nisbiy so'zlar ( qanchalik…sa, shunchalik…)
2. Sodda gapga aylantirilganda: Tez oqqan soy sayoz bo'ladi.
3. Qolipi:



Odamlardan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz .

1. Bog'lovchi vosita: deb so'zi.

2. Sodda gapga aylantirilganda: Odamlar ishdan qolmasligi uchun marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz.

3. Qolipi:



"Yelpig'ich" metodi asosida ergashgan qo'shma gap turlarini hosil qilish.




O'quvchilarning nutqini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishda bunday metodlarning ahamiyati kattadir. O'quvchilar quyidagicha misol tuzishlari mumkin:

1. Kimki ko'p o'qisa, u maqsadiga erishadi.
   ( Ega ergash gapli qo'shma gap)
2. Kimki ko'p o'qisa, uni porloq kelajak kutadi.
   ( To'ldiruvchi ergash gapli q.g)
3. Kimki ko'p o'qisa, uning istiqboli porloq bo'ladi.
   (Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap)

O'quvchilar ergash gapli qo'shma gap turlarini oson o'rganishlari uchun jadval orqali yodlash ham samara beradi.

| | |
|---|---|
| Shuni …-ki,… | To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap |
| Shunga…-ki,… | To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap |
| Shunda…-ki,… | To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap |
| Shunisi…-ki,… | Ega ergash gapli qo'shma gap |
| Shunday…-ki,… | Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap |
| Shuki,… | Kesim ergash gapli qo'shma gap |
| Shunday…-ki,… | Hol ergash gapli qo'shma gap |

Shunday olmoshi ergashgan qo'shma gapning ikki turi: aniqlovchi ergash gap va hol ergash gapni hosil qiladi.

Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan.
(aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap)

Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.
( hol ergash gapli qo'shma gap)
"Orzular charxpalagi" metodi. O'quvchilar o'z orzularini bayon etishadi.




O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, mustahkam bilim berish bo`lajak o'qituvchilarning asosiy vazifamizdir. Mazkur vazifani bajarish uchun yuqoridagi kabi yangi metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning aqlan rivojlanishida, ma'nan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.To'xliyeb, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" 2006. –B 163.
2. 9-sinf ona tili darsligi N. M. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sh. Sobirov Toshkent- 2019. –B 17.

3. B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. –B 164.
4. R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2009. –B. 391.

# AYOL IJODKORLAR SHE’RIYATIDA RUHIYAT MANZARASI

***Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna***
*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.*

***Abduraimova Muazzam, Odilov Dovudbek***
*27-23-guruh talabalari*
*“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” NOTM. Andijon*

Bugungi kun she’riyati haqida fikr bildirar ekanmiz, zamonamiz va zamondoshimizning ruhiy olami yangicha poetik obrazlarda talqin etilayotganligiga guvoh bo’lamiz. Buning sababi esa insonning bezovta o’y-xayollarini, nekbin kayfiyatini, dardini tasvirlashda qo’llanilgan har bitta detaldan tortib, tasviriy ifodalargacha – hamma-hammasi davr va ijodkorning umumiy xulosasidan kelib chiqib ifoda etilayotganligi bilan belgilanadi.. Bu esa she’riyatda poetik sathning kengayib borayotganligini ko’rsatadi, nazarimizda. Bugungi serma’no va serohang she’riyat ayniqsa ayol ijodkorlar she’riyatiga ham taalluqli bo’lib, unda ifodaning ta’sirchanligi, mazmunning mushohada boyligi va albatta, shakldagi yangicha izlanishlar bilan keng ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir asarda ijodkor yangicha poetik obrazlar yaratar ekan, qaysidir ma’noda u o’zi haqida so’zlayotgandek ko’rinadi. Bugungi she’riyat ko’ngil she’riyati ekan, ijodkor ham his-tuyg’ularini qolipga solishni istamaydi. Bu hol ayol ijodkorlar she’riyatida yana ham aniq ko’rinadiki, ular ro’yi-rost butun axvollarini bayon qiladilar. O’z ruhiy holatlarini, tuyg’ularini, kechinmalarini esa poetik obrazlar vositasida yanada ishonarli va badiiy chiqishiga erishadi. Gohida mulohazali, gohida tajang, gohida sokin kayfiyat shoiralar ruhiy olamining o’zgaruvchan ekanligini ham ko’rsatadi. Bu esa ularning ijodini yanada rang-barang ko’rsatishga xizmat qiladi.

Xususan Zebo Mirzayeva ijodini tahlil qilar ekanmiz, uning ishqqa yo’g’rilgan dunyosi o’quvchini tamoman o’ziga mahliyo etadi. E’tibor berib qaraydigan bo’lsak, shoira she’rlarining o’zak qismini ishq mavzusi band etgan. O’sha o’zakdan esa Yaratganga, vatanga, ota-onaga va yorga bo’lgan muhabbat paydo bo’lgan. U o’z muhabbatini turli poetik obraz va badiiy tasvirlar bilan ifoda etmoqqa urinadi. Natijada har bir she’rida kutilmagan tashbehlarga, ramzlarga boy

olam paydo bo'ladi. O'quvchi ramzlar tilini, timsollar mohiyatini to'g'ri anglasagina bu olamning yana bir sirini tushungandek bo'ladi.

Shoira ijodida muhabbat tuyg'usi *maysa, daraxt, qush, nur, daryo* kabi timsollarda poetik ma'no kasb etib keladi. Bu timsollar lirik qahramonning hislari bilan tutashib, ishqning ohorli tasvirlarini yaratadi. Ijodkorning ishq mavzusida bitilgan she'rlarida qandaydir sehr, joziba, sir bordek tuyuladi. Undagi otashin hijron kayfiyati o'quvchiga tezda yuqadi.

Men hanuz o'shaman,
toshqin bir daryo.
Toshlarni toshlarga urib yig'lagan.
Quchog'ingda oqmoq istagan ammo…
Bu tor qirg'og'ingga sig'magan[1]

Ushbu parchada ijodkor o'xshatish va qarshilantirish san'ati orqali o'z ruhiy holatini yoritgan. O'zining hanuz o'sha – ishq ekanligini toshqin daryoga qiyoslagan va lirik qahramon she'rda daryo timsolida gavdalangan. Daryoning bag'rida ming-minglab tosh bo'lgani kabi, lirik qahramonning qalbida ham g'amu-anduh toshlari bisyor. U bu anduhlardan azoblanadi va ko'z yosh to'kadi. Uning orzusi yor qalbida daryodek toshmoq bo'lsa-da, u yerda o'ziga joy yo'qligidan o'kinadi.

Mensiz yasha,
Mensiz kul, yig'la…
Mensiz o'tsin har bitta oning.
Toki meni degan chog'ingda
Chiqib ketsin tanangdan joning.

"Lirika mudom ruhiy kechinma va ong yaxlitligiga intiladi. Tuyg'u hamda tafakkurda namoyon oniy kayfiyat tasviri lirikaning ustuvor xususiyati. Binobarin, ijtimoiy voqelik va hayot falsafasidan sizib chiqadigan hissiy ilg'am psixologik ifodani markazlashtiradi"[2], deb yozadi Q. Turdiboyev. Haqiqatdan ham ijodkorning oniy kayfiyat lahzasi she'r mazmuniga singib, betakror ruhiy manzarani yaratadi.

Zebo Mirzayevaning deyarli barcha she'rlari ishq-muhabbat tuyg'ulariga yo'g'rilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Uning ijodida ko'hna ishq mavzusi o'zining takrorlanmas, yangicha ifodasini topadi. Bu she'rlarda lirik qahramon gohida mamnun, gohida mahzun, gohida tajang, gohida majnunona qiyofada namoyon bo'ladi. Bu esa she'r mazmunining rang-barangligini ta'minlaydi.

---

1. Mirzo. Zebo. "Nur kukunlari". – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2004. B.67.
2. Қўнақбай ТУРДИБАЕВ, Лирикада руҳий ифоданинг ўзига хослиги "Шарқ юлдузи", 2011–1

# O‘SMIRLAR O‘RTASIDA INTERNET ZO‘ROVONLIGINING OLDINI OLIShNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

***Rahmonova Dildora Zayniddinovna***
*Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada o'spirin Internet zo'ravonligining oldini olishning psixologik jihatlari va asoslari muhokama qilinadi. O'smirlar va yoshlar orasida internetdan tobora ko'proq foydalanish kontekstida mualliflar o'smirlarning onlayn zo'ravonlikda ishtirok etishiga olib kelishi mumkin bo'lgan psixologik mexanizmlarni va bu hodisalarning oldini olish va ularga qarshi kurashish strategiyalarini tahlil qiladilar. Maqolada raqamli texnologiyalarning o'smirlarning ijtimoiy o'zaro ta'siri va psixologik farovonligiga ta'siri ko'rib chiqiladi, shuningdek, o'smirlar Internet zo'ravonligining samarali oldini olish uchun ota-onalar, o'qituvchilar va psixologiya va ijtimoiy ish mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Maqolada keltirilgan topilmalar va tavsiyalar o'smirlarni onlayn muhitda salbiy ta'sirlardan himoya qilish dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** o'smirlar internetidagi zo'ravonlik, psixologik jihatlar, oldini olish, psixososyal xavflar, kiberbulling, o'smirlar psixikasi, raqamli aloqa, onlayn xavfsizlik, virtual tajovuz, ijtimoiy tarmoq, psixologik himoya.

Kirish. Texnologiyaning rivojlanishi va internetning mavjudligi bilan o'smirlar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida virtual dunyoga kirishadi. Onlayn muhitning shubhasiz afzalliklari bilan bir qatorda, Internet zo'ravonligining turli shakllariga duchor bo'lish xavfi ham mavjud. Psixologik jihatlar o'smirlar Internet zo'ravonligining oldini olish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim asosdir. Profilaktika choralarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin, o'spirinning psixologik xususiyatlarini tushunish muhimdir. O'smirlar shaxsiyatni shakllantirish bosqichida, bu ularni tashqi ta'sirlarga nisbatan zaifroq qiladi. Internet, kuchli aloqa vositasi sifatida, ularga aloqa qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, bosim va zo'ravonlikning turli shakllarini xavf ostiga qo'yadi.

Internet zo'ravonligi kiberbullingdan (onlayn bezorilik) raqamli xarakterga, jinsiy ekspluatatsiyaga va onlayn ta'qibga qadar turli shakllarda bo'lishi mumkin[1]. Zo'ravonlikning bu shakllari o'smirlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, stress, depressiya va ba'zi hollarda hatto o'z joniga qasd qilish fikrlariga olib kelishi mumkin. O'smirlar internetidagi zo'ravonlikning oldini olishning asosiy jihatlaridan biri bu psixologik yordam ko'rsatishdir. O'smirlar o'zlarining tajribalarida yolg'iz emasliklarini bilishlari va yordam so'rashlari kerak. Maktablar, ota-onalar va ijtimoiy ishchilar o'smirlarni o'zini himoya qilish

strategiyalari, onlayn tahdidlarga etarli darajada javob berish va virtual makonda sog'lom chegaralarni o'rnatish qobiliyatini faol qo'llab-quvvatlashi va o'rgatishi kerak.

Profilaktikaning muhim qismi o'smirlarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish va raqamli savodxonlikni rivojlantirishdir. O'smirlar ma'lumotni tahlil qilishlari, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni tan olishlari va onlayn xatti-harakatlari to'g'risida ongli ravishda qaror qabul qilishlari kerak[2]. Bu ularga internetdagi zo'ravonlikka olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochishga yordam beradi. O'smirlar internetidagi zo'ravonlikning oldini olish jamiyat, jumladan maktablar, ota-onalar, huquqni muhofaza qilish organlari va Internet-provayderlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Internetda o'spirinlar zo'ravonlik va tahdidlarga duch kelishdan qo'rqmasdan o'zlarini erkin ifoda etishlari mumkin bo'lgan xavfsiz muhitni yaratish muhimdir.

Zamonaviy dunyoda Internet o'smirlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularga muloqot qilish, o'rganish va o'zini namoyon qilish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etdi. Biroq, shu bilan birga, onlayn aloqa sohasi xavf tug'diradi, shu jumladan o'spirin Internet zo'ravonligi. Ushbu turdagi zo'ravonlik kiberhujum, xarakter, tahdid va hatto onlayn zo'rlash kabi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. O'smirlar Internet zo'ravonligining oldini olishning psixologik jihatlari yoshlar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi onlayn muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Avvalo, o'spirin Internet zo'ravonligining psixologik mexanizmlarini tushunish muhimdir. Ko'pincha virtual dunyoda tajovuz o'smirning haqiqiy shaxslararo muammolarining davomidir. Darhol jismoniy oqibatlarning yo'qligi onlayn muhitni g'azab, hasad va yoqtirmaslikni ifodalash uchun qulay joyga aylantiradi[3]. Ushbu psixologik omillarni tushunish muammoning ildizlari bilan yanada samarali kurashishga imkon beradi. Hissiy kompetentsiya ko'nikmalarini o'zlashtirgan o'smirlar tarmoqdagi salbiy ta'sirlarga nisbatan ancha chidamli. Hissiy kompetentsiya o'z his-tuyg'ularini tan olish va boshqarish qobiliyatini, shuningdek, boshqalarga hamdardlikni o'z ichiga oladi. Psixologik profilaktika ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni tushunish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan xabardor bo'lish o'smirlarga internetdan yanada mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishga yordam beradi. Psixologlar raqamli savodxonlikni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishlari, tarmoqdagi xavfsiz xatti-harakatlar, maxfiylik qoidalari va salbiy harakatlarning oqibatlari to'g'risida ma'lumot berishlari mumkin. Ijobiy onlayn madaniyatni yaratish o'spirinlarda xilma-xillik,

bag'rikenglik va bir-birini qo'llab-quvvatlashga hurmatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Psixologlar konstruktiv muloqot bo'yicha treninglar o'tkazishlari, nizolarni zo'ravonliksiz hal qilish qobiliyatini rivojlantirishlari va internetda ijobiy o'zaro ta'sirni shakllantirishga hissa qo'shishlari mumkin.

O'smirlar internetidagi zo'ravonlikning psixologik oldini olish, shuningdek, ota-onalar va ta'lim muassasalari bilan yaqin aloqani talab qiladi. Seminarlar, maslahatlar o'tkazish va ota-onalar uchun ta'lim dasturlarini yaratish ularga dunyoni onlayn tarzda yaxshiroq tushunish va xavfsizlik masalalarida o'smirlar bilan faol muloqot qilish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, o'smirlar Internet zo'ravonligining psixologik oldini olish yoshlar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi onlayn muhitni ta'minlashning ajralmas qismidir[4]. Psixologik mexanizmlarni tushunish, hissiy kompetentsiyani o'rgatish, raqamli savodxonlikni shakllantirish va ijobiy onlayn madaniyatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash o'smirlar Internet zo'ravonligiga qarshi muvaffaqiyatli kurashning asosiy tarkibiy qismidir.

Xulosa. O'smirlarning internetdagi zo'ravonligi yosh avlodning psixologik farovonligiga jiddiy tahdid soladi. Samarali profilaktika o'smirlarning psixologik xususiyatlarini tushunish, psixologik yordam ko'rsatish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish va butun jamiyatni jalb qilishga asoslangan. Ushbu yo'nalishda ishlash onlayn dunyoda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega, bu erda o'spirinlar Internet zo'ravonligiga duch kelmasdan o'sishi va rivojlanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiНачало формы**

1. Щетинина Е. В. Проблемы развития културы насилия в интернет-пространстве //Инновационное развитие профессионалного образования. – 2018. – №. 2 (18). – С. 127-130.
2. Макарова, Елена Александровна, Елена Лвовна Макарова, and Елена Александровна Махрина. "Психологические особенности кибербуллинга как формы интернет-преступления." Российский психологический журнал 13.3 (2016): 293-311.
3. Фалкина, Светлана Анатолевна. "Психологические характеристики подростков, склонных к виктимному поведению в Интернет-сети." Перспективы науки и образования 1 (7) (2014): 230-236.
4. Березина, О. С. "Социалная профилактика кибербуллинга среди подростков." Информационная безопасност и вопросы профилактики киберэкстремизма среди молодежи. 2015.

# SPORTCHINING RATSIONAL OVQATLANISHI, OVQATLARI TARKIBIGA OZUQAVIY QO'SHIMCHALAR QO'SHISH VA ULARNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

***Shomuradova O'g'iloy***
*Samarqand shahar 58-maktab o'qituvchisi*

***Xayitova Moxichehra***
*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali asistenti*

**Annotatsiya**. Sportchining yaxshi natijalarga erishishi uchun unga nafaqat motivatsiya, balki yuqori darajadagi chidamlilik ham kerak, bu uning ovqatlanishi qanchalik to'g'ri tashkil etilganiga bevosita bog'liq. Bu juda muhim, chunki zaiflashgan immunitet va sog'liq muammolari bilan tananing sportchilar boshdan kechirgan og'ir jismoniy zo'riqishlariga bardosh bera olmaydi. Oziqlanish tanani yaxshi holatda saqlashga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

**Kalit so'zi:** kaloriya, mineral, metabolik, dieta, immunitet.

To'g'ri ovqatlanishni tashkil etish insonning qaysi sport turi bilan shug'ullanishiga bog'liq. Vujudga etarli miqdorda vitamin va minerallar kirishi juda muhim, bu nafaqat immunitetni himoya qilishni, balki tananing umumiy ohangini ham oshirishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, jismoniy faoliyat ko'p miqdorda energiya talab qiladi, shuning uchun sportchining dietasining kaloriya tarkibini kuzatish muhimdir.

Sport bilan shug'ullanadigan odamlarning ovqatlanishiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- unda yetarli kaloriya bo'lishi kerak;
- tana suyaklar va mushaklar uchun zarur bo'lgan minerallarni, shuningdek, immunitet tizimining to'g'ri ishlashini qo'llab-quvvatlaydigan vitaminlarni albatta oladi;
- metabolik jarayonlarni faollashtiradigan maxsus faol qo'shimchalarni olish tavsiya etiladi;
- dieta sportchining maqsadi - vaznni kamaytirish yoki oshirishni hisobga oladigan tarzda rejalashtirilgan;
- ovqatlanish yog 'massasini kamaytiradigan va mushaklar darajasini oshiradigan tarzda tashkil etilgan.

Bundan tashqari, sportchilarning to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilishda iste'mol qilinadigan suyuqlik miqdorini, xususan, toza ichimlik suvini hisobga olish kerak, ularning etishmasligi suvsizlanish, charchoq va mushaklarning spazmlariga olib kelishi mumkin. Va jismoniy faoliyat jarayonida tana suyuqlikni intensiv ravishda yo'qotadi, shuning uchun bu zaxiralarni to'ldirish juda muhimdir.

Sport o'ynashda juda muhim nuqta shundaki, mashg'ulotdan oldin murakkab uglevodlarga boy ovqatlar, keyin esa oddiy ovqatlar iste'mol qilish kerak. Ushbu moddalarning umumiy miqdori kilogramm vazniga 10 gramm bo'lishi kerak, ammo asosiy e'tibor murakkab uglevodlar. Ularni ertalab iste'mol qilish yaxshidir, chunki kechqurun yuklar kamaytirilganda, uglevodlar yog'larga aylanishi mumkin.

Parhezshunoslar, sportchilarning ratsionida yog'larni iste'mol qilishni cheklash kerak, deb hisoblashadi. Biroq, ular me'yorida iste'mol qilinsa, hayot uchun zarurdir. Yog 'etishmasligi gormonal muvozanatga olib keladi, mushaklarning shakllanishi jarayonlarini yomonlashtiradi va immunitet tizimining faoliyatini kamaytiradi. To'yinmagan yog'lar organizmga vitaminlarni o'zlashtirishga yordam beradi, shuning uchun ular dietaga kiritilishi kerak. Bunday moddalar o'simlik yog'i, yong'oq, dengiz mahsulotlari va baliqlarda mavjud.

**Sportchilarning ovqatlanishi**

Katta jismoniy zo'riqishlarni boshdan kechirayotgan odamlarning ovqatlanishi oddiy odamning dietasidan sezilarli darajada farq qiladi, shuning uchun sportchilar o'z menyularini diqqat bilan rejalashtirishlari kerak. Buning asosiy jihatlari:

1. Oziq-ovqat to'liq, yangi va yuqori sifatli bo'lishi kerak. Siz faqat tanaga foyda keltiradigan mahsulotlarga tayanishingiz kerak, zarar etkazadigan mahsulotlar esa butunlay chiqarib tashlanishi kerak.
2. Sportchilarning ratsional ovqatlanishidagi oziq-ovqat miqdori.

Bu erda hamma narsa sport bilan shug'ullanadigan kishi boshdan kechiradigan jismoniy faoliyat turiga bog'liq bo'lishi kerak. Ba'zi odamlar mushak massasini olish uchun juda ko'p oziq-ovqatga muhtoj, boshqalari uni yo'qotishi kerak, shuning uchun ovqatlanish sezilarli darajada cheklanishi kerak. Ya'ni, mashg'ulotlarning maqsadlarini hisobga olish, sog'lom ovqatlanish rejasini tuzish kerak. Shunday qilib, sport bilan shug'ullanish tanani faqat mustahkamlaydi va uning ishini buzmaydi.

Parhezshunoslar va shifokorlar sportchilarga oz miqdorda, lekin tez-tez ovqatlanishni tavsiya qiladilar. Ya'ni kuniga 3-4 marta emas, balki 5-6 marta. Bu mashg'ulotlardan oldin tanani ortiqcha yuklamaslikka va undagi doimiy energiya muvozanatini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, shu tarzda, oziq-ovqat yaxshiroq so'riladi va tezroq, og'irlik va noqulaylik hissisiz qayta ishlanadi. Sportchilarning ovqatlanish xususiyatlarini ko'rib chiqing.

**Sport dietasi variantlari**

Yuqorida aytib o'tilganidek, ovqatlanish imkoniyatlari to'g'ridan-to'g'ri mashg'ulot rejimiga va jismoniy faoliyat turiga bog'liq. Bir kunlik sportchining dietasi taxminan 2500 kaloriya bo'yicha hisoblanadi, u quyidagicha ko'rinishi mumkin:

•qaynatilgan tuxum (2 dona);
•yog'siz tvorog (150-200 gramm);
•sutda qaynatilgan jo'xori uni, bir qoshiq zaytun moyi qo'shilishi bilan;
•bir bo'lak non;
•Tushlik:
•mevalar (masalan, 1 banan va olma);
•kam yog'li yogurt (20 gramm);
•bulochka.
•sutli karabuğday pyuresi;
•ikkita tuxumdan tayyorlangan omlet;
•sabzavotli salat (200 gramm);
•butun donli non (2-3 dona);
•kam yog'li pishloq (40-60 gramm);
•bir stakan choy.
•yog'siz tvorog (100 gramm);
•meva yoki rezavorlar bilan karabuğday pyuresi (200 gramm);
•bir stakan apelsin sharbati (siz boshqa har qanday foydalanishingiz mumkin).
•yangi meva yoki sabzavotlar (300 gramm);
•kepak noni (2-3 dona);
•bir stakan kefir yoki sut.

Yotishdan oldin sportchilarga olma yeyish yoki bir stakan shakarsiz choy ichishga ruxsat beriladi.

Quyida 3500 kaloriya uchun mo'ljallangan dieta mavjud:
•jo'xori uni (300 gramm);
•4 dona tuxumdan tayyorlangan omlet;
•tostlar (2 dona);
•Apelsin.
•Tushlik:
•bir stakan yogurt (har qanday yog 'tarkibida);
•banan (2 dona);
•yong'oqlar (100 gramm).
•qaynatilgan mol go'shti (300 gramm);
•qaynatilgan kartoshka (3-4 dona);
•sabzavotli salat (200 gramm);
•sharbat yoki choy.

- qaynatilgan guruch (200 - 250 gramm);
- mevali salat (150 gramm);
- bir stakan sut.
- qaynatilgan baliq (250 gramm);
- kartoshka (4 dona);
- o'simlik yog'i (130 gramm) qo'shilishi bilan maydalangan sabzidan tayyorlangan salat;
- choy yoki sharbat.

Yotishdan biroz oldin siz bir piyola jo'xori uni eyishingiz yoki bir stakan sut ichishingiz mumkin. Har bir sportchiga mos keladigan parhez, ehtimol, hali biron bir ovqatlanish mutaxassisi tomonidan tuzilmagan. Buning sababi shundaki, har bir sportchi qaysi sport turi bilan shug'ullanishi, qaysi vazn toifasiga mansubligi va sport bilan shug'ullanayotganda qanday maqsadlarni ko'zlashiga qarab o'ziga mos keladigan o'ziga xos ovqatlanish dasturiga muhtoj. Biroq, ro'yxat mavjud umumiy tavsiyalar, bu istisnosiz hammaga mos keladi, ular o'zingizni yaxshi holatda saqlashga va o'z tanangizga zarar bermaslikka yordam beradi.

1. Ovqatlar xilma-xil va sifatli. Shu bilan birga, sportchilar uchun oziq-ovqat mahsulotlari mos bo'lishi kerak, chunki ularning ba'zilarini birgalikda assimilyatsiya qilish mumkin emas.
2. Oziq-ovqat sog'lom bo'ladigan tarzda tayyorlanishi kerak. Tayyorlangan idishning yog 'miqdori bunga bog'liq bo'lib, bu ruxsat etilgan me'yorlardan oshmasligi kerak.
3. Fraksiyonel ovqatlanish. Siz dietangizni 6-7 ta taomga bo'lishingiz mumkin, bu esa uni so'rib olish va imkon qadar ko'proq foyda olish imkonini beradi.
4. Oxirgi ovqat yotishdan ikki soat oldin bo'lishi kerak, aks holda yog'lar va uglevodlar tanadagi kiruvchi konlarga aylanadi.
5. Faqat ovqatdan oldin tayyorlangan yangi ovqatlarni iste'mol qiling. Shunga ko'ra, dietadan tez ovqatlanish va har xil turdagi yarim tayyor mahsulotlarni chiqarib tashlash kerak.

Biz har kuni sportchilar uchun ovqatlanishni ko'rib chiqdik.

Ishlash, tiklanish va moslashuvchan reaktsiyalarni rag'batlantiradigan turli xil moddalardan foydalanishning butun tizimi qurilgan asos sportchining ratsional ovqatlanishi.

Oziqlanish ko'p jihatdan sportchilarning ishlash darajasini, tiklanish jarayonining samaradorligini va mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklar bilan rag'batlantirilgan moslashuvchan reaktsiyalarni belgilaydi. Oziq-ovqat talablari

sportchining yoshiga bog'liq. Intensiv o'sish davri (erkaklar 12-22 yosh, ayollar - 11-19 yosh) oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq.

**Kun davomida ovqatlanish**

Kun davomida iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning optimal taqsimlanishi ham muhimdir. Masalan, kuniga 5 marta ovqatlanish bilan 5500 kkal iste'mol qilish uchun mo'ljallangan sportchining optimal dietasi quyidagicha: nonushta - 1200 kkal, ikkinchi nonushta - 900, tushlik - 1500, kechki ovqat - 1100, gazaklar, ichimliklar - 800 kkal.

Mutaxassislar sportchilarning ovqatlanishini o'z mohiyatiga ko'ra tiklovchi va moslashuvchi jarayon sifatida ko'rib, kun davomida oziq-ovqat yukini to'g'ri taqsimlashga, uning mashg'ulot va raqobatbardosh yuklamalar bilan bog'lanishiga, oziq-ovqat iste'molining tez o'zlashtirilishini ta'minlashga katta e'tibor beradi. Yuqori mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklar sharoitida kun davomida bir necha marta ovqatlanish (3-4 asosiy va 2-3 qo'shimcha porsiya) eng samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, oziq-ovqatning asosiy miqdori kunduzi va tungi uyqudan 3-4 soat oldin olinishiga e'tibor berish kerak.

Sportchilar uchun u o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular sport o'ynash jarayonida sezilarli jismoniy zo'riqish va yuqori neyropsik stress bilan bog'liq bo'lib, bu chidamlilik va ish faoliyatini oshiradigan vositalar to'plamidan foydalanishni talab qiladi. Va bu erda ratsional ovqatlanish muhim rol o'ynaydi.

Sport bilan shug'ullanadiganlar, oziq-ovqat bilan muntazam ravishda intensiv mashg'ulotlar paytida kuniga 4200 - 5500 kkal olishlari kerak. Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti intensiv sport mashg'ulotlarida kunlik energiya iste'molini aniqladi: ayollar uchun 3000 - 6000 kkal, erkaklar uchun - 3500 - 6500 kkal. Agar istisno holatlar mavjud bo'lsa, masalan, marafonda qatnashish, velosipedda yurish, kunlik iste'mol 7000 - 8000 kkalgacha oshishi mumkin.

Sportchilarning ovqatlanishi boyitilgan bo'lishi kerak va chunki tananing ularga bo'lgan ehtiyoji intensiv mushak ishi bilan ortadi.

**Sportchining dietasi**

Sportchi uchun parhez katta rol o'ynaydi. Mashg'ulot mehnat bilan birlashtirilgan kunlarda u umumiy fiziologik tamoyillarga asoslanadi, mashg'ulotning tugashi va ovqatlanish o'rtasida 15-20 daqiqalik interval kuzatiladi. Siz och qoringa mashq qilishni boshlay olmaysiz, ammo sport mashg'ulotlaridan oldin darhol ovqat iste'mol qilish ham zararli.

Yig'inlar davomida kuniga to'rt marta ovqatlanish tavsiya etiladi. Agar mashg'ulot kunning birinchi yarmida amalga oshirilsa, nonushta dietaning kunlik

energiya qiymatining 30-35% ni, tushlik uchun - 35-40%, tushlik uchun - 5%, kechki ovqat uchun - 25% ni tashkil qiladi. - 30%.

Qoida tariqasida, sportchilar ertalabki mashg'ulotlarni nonushtadan bir yarim-ikki soat o'tgach boshlaydilar. Shuning uchun, agar nonushta mo'l-ko'l va zich bo'lsa, uzoq vaqt talab qilinadi - 3-4 soat, ovqat hazm qilish tizimi organlarining funktsional holati buziladi va jismoniy ko'rsatkichlar pasayadi.

Bu fiziologik jarayonlar bilan bog'liq: qonning ovqat hazm qilish va assimilyatsiya jarayoni sodir bo'lgan ovqat hazm qilish organlari va muhim jismoniy ishlarni bajaradigan skelet mushaklari o'rtasida taqsimlanishi. Bir tomondan, jismoniy mehnat ovqat hazm qilish jarayonini sekinlashtiradi, boshqa tomondan, ovqat hazm qilish jarayoni ANS ning simpatik markazining (vegetativ asab tizimi) faoliyatini kamaytirishga yordam beradi, uning faoliyati asosan asab tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi. mushaklar.

Agar mashg'ulot kunning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, unda foizlar o'zgaradi: nonushta uchun 35 - 40%, tushlik uchun 30 - 35%, tushdan keyin choy uchun 5%, kechki ovqat uchun 25 - 30%.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti har bir taomning energiya qiymati kunlik ratsionning 10% gacha, dietani taqsimlash bilan restorativ vositalarni (mashqdan oldin va keyin) qo'shgan holda besh marta ovqatlanishni tavsiya qiladi. quyidagicha - nonushta uchun 25%, tushlik uchun 35%, kechki ovqat uchun 20% .

Qanday bo'lmasin, ovqatlanish oralig'i besh soatdan oshmasligi kerak va musobaqa kuni ular boshlanishidan uch yarim soatdan kechiktirmay ovqatlana olmaysiz.

Qattiq mashg'ulotlardan keyin qon aylanish funktsiyasi tiklanishi uchun mashg'ulotlar va keyingi ovqat o'rtasidagi vaqt oralig'i o'ttiz-qirq daqiqaga yetishi kerak. jismoniy faoliyat, va ishda ishtirok etadigan skelet mushaklaridan ovqat hazm qilish organlariga qonning qayta taqsimlanishi sodir bo'ldi.

Shunday qilib, sportchi uchun parhez o'ziga xos xususiyatlarga ega va ularni hisobga olgan holda, harakatlar uchun amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Material Platonov V.N. Olimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlash tizimi
2. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.L. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" T.: Tib. Kitob. 2010 y.
3. Nuriddinov.E.N. "Odam fiziologiyasi" T.: "A'loqachi" 2005 y.
4. Human Anatomy and Physiology. Nega Assefa Alemaya University Yosief Tsige Jimma University.In collaboration with the Ethiopia Public Health

Training Initiative, The Carter Center, the Ethiopia Ministry of Health, and the Ethiopia Ministry of Education 2003.
5. https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1780/1865
6. https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/165

# MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYASINING AHAMIYATI

***Shomuradova O'g'iloy***
*Samarqand shahar 58-maktab o'qituvchisi*

***Xayitova Moxichehra***
*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali asistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirish uslubiyati ustida ish olib borilgan,olimlarning adabiyotlari o‟‟rganilib, yangi metodika ishlab chiqildi,va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirishga erishildi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, moslashuvchanlik, o‟‟yinlar, harakatchanlik ,jismoniy sifatlar.

Kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy harakati deganda asosan yosh bolalik davridagi jismoniy o‟‟zgarishlar, o`sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismoniy tarbiyalash ta‟‟lim-tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g„ayratlari bilan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sog„liqni yaxshilashga, jismoniy sifatlami rivojlantirishga, organizmni funksional xolatini yaxshilash,yoshlarni mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga qaratilgandir. Bolalarni o'rab turgan muhit o‟‟zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o‟‟yinlar o‟‟rniga telifon o‟‟yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik,mehnat jismoniy tarbiyasni rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o‟‟yinlar, sayrlar, tengdoshlari va atrovdagi odamlar bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O‟‟yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o‟‟yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va harakatsiz o‟‟ynaladigan, alohida va birgalikdagi) kichik maktab yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat sifatlari tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o‟‟z salbiy aksini topmoqda.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Kichik maktab yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma‟‟naviy me‟‟yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‟‟zda

tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasni rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yoʻʻllarini izlash, birinchidan, koʻʻrsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, oʻʻsib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini oʻʻrganish zarurati bilan bogʻʻliq holda amalga oshiriladi

Kichik maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini rivojlantirish boʻʻyicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va irodavi harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan, Levi Gorinevskayanining fikricha,maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini toʻʻgʻʻri yoʻʻlga qoʻʻyish uchun murakkabroq umumjismoniy mashqlar,1-sinif dasturiga yaqin boʻʻlgan va unga tayyorlaydigan mashqlar tanlab olinadi.

Ayni vaqtda kichik maktab taʻʻlim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatlarni maqsadli yoʻʻnaltirish zarurati toʻʻgʻʻrisidagi mulohazalarning yoʻʻqligi eʻʻtiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo boʻʻladi.Kichik maktab yoshidagi bolalar organizmi ikkita muhum xususiyatga ega, ularni bilish maktab o`qtuvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush,yugurish,sakrash,uloqtirish, konkida yurush yugurush,suzush hayot uchun kerak boʻʻladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir.Bu harakatlarni bolalar tez oʻʻzlashtiradi,sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga oʻʻsha mashqlarni ahamiyati,bajarish tehnikasi ,harakatli oʻʻyin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim.

Pedagogik tajribani rejalashtirish va uning mazmuni kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini rivojlantirish ustidagi tajribalarni rejalashtirish 2-ilovada takdim etilgan bo`lib sxema asosida amalga oshirildi.Va toʻʻrt hafta mobaynida kichik maktab yoshdagi bolalar shu maqsadda maxsus harakatli oʻʻyinlarni izchillik bilan bajardilar,Va ular jismoniy harakat orqali jismoniy tayyorgarligini uygʻʻunlashtirishgan edi. Masalan tezkorlik qisqa masofaga yugurish davomidagi harakat suratining tempi oʻʻstirildi. Toʻʻrt hafta mobaynida bolalar jismoniy tarbiya orqali jismoniy harakatining rivojlantirishga qaratilgan harakatli oʻʻyinlarni kamida 12 marta bajardilar

Statistik ishlov berish natijasida 7-8 yoshli bolalar tomonidan nazorat mashqlarining bajarilish ko‘‘rsatkichlarini testlash nazariyasi talablariga muvofiq, ravishda ularning jismoniy tayyorgarlig holatni baholash uchun qizlar va o‘‘g‘‘il bolalardan iborat ikkita yosh guruhlarining har biri uchun 4 ta test tanlab olindi.

Har bir yosh - jins guruhida testlar mazmuni alohida xususiyatlarga ega edi. Masalan, 7 yoshli qizchalarning egiluvchanligini tavsiflash uchun quyidagi testlardan foydalanildi:chalqancha yotgan holda gavdani ko`tarish ; 7 yoshlilar uchun oldinga orqaga umbaloq oshish; 8 yoshlilar uchun 30m ga yugurish; 8 yoshlilar uchun ko‘‘prik hosil qilish. Demak, barcha yosh guruhlari uchun berilgan testlar egiluvchanlik va tezkorlikni rivojlantirish uchun. U yoki bu testlarning qo‘‘llanilishi to‘‘g‘‘risida quyida batafsilroq ma‘‘lumot beriladi.

Mazkur bobda 41-sonli umumiy o‘‘rta ta‘‘lim muassasasida o‘‘tkazilgan pedagogik tajriba materiallari keltirilgan bo`lib. Nazorat guruhi Honqa tumanidagi 41-sonli umumiy o‘‘rta ta‘‘lim maktab muassasasida tarbiyalanuvchi tengdosh bolalardan iborat edi.

Bolalarni ko‘‘proq haratdagi mashqlar orqali qiziqtirishimiz, ularni shu muhitga olib kirishimiz lozim bo‘‘ladi. Buning uchun biz maxsus harakatli o‘‘yinlardan foydalanishimiz lozim. Tezkorlikni rivojlantirish uchun

„ Kun va tun‘‘‘‘

„ Tezda bosib o‘‘t‘‘‘‘

„ Yaralanma‘‘‘‘

„ Qo‘‘lim pishdi‘‘‘‘

„ Uni tezda tut‘‘‘‘

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun

„ Aldamchi to‘‘pni top‘‘‘‘

„ Arqon tugunini yechish‘‘‘‘

„ Oldinga va orqaga umbaloq oshish‘‘‘‘ kabi harakatli o‘‘yinlardan foydalandik.

Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishiga ko‘‘ra rejalshatirilgan harakatli o‘‘yinlardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlashga yo‘‘naltirilgan pedagogik tajriba materiallari takdim etilgan.

7-8 yoshli bolalarning turli yosh – jinis guruhlarida o‘‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar turli jismoniy sifatlarning takomillashuvi jarayoniga pedagogik tajribaning ta‘‘sir ko‘‘rsatishi xususiyatlarinigina emas, balki ulardagi o‘‘zgarishlarning yosh xususiyatlari jismoniy holati, sog‘‘lig darajasni ham aniqlash uchun imkoniyat yaratib berdi. Agar harakatli o‘‘yinlarni maxsus tanlash asosida jismoniy sifatlarni rivojlantirish ko‘‘rsatkichlari samaradorligi davomiy tahlil qilib

ko‟rilsa, shunday xulosa qilish mumkin: bunday mashg‟ulotlar barcha jismoniy sifatlarning rivojlanishini samarodarligi yaxshilandi. Pedagogik tajriba barcha jismoniy sifatlarning o‟zgarishlariga xos tabiiy yosh xususiyatlarini saqlab qolishgina emas, balki ayrim hollarda xatto bu jarayonlarni tezlashtirish ham mumkin bo‟lganligini ko‟rsatdi. Bu ko‟proq chaqqonlik va egiluvchanlikka, eng kam darajada chidamlilik, kuch va tezkorlikka taalluqli bo`lib. Harakat apparatining alohida jismoniy mashqlar ta‟siriga bo‟lgan yaqqol ifodalangan geteroxron reaksiyasidan dalolat beruvchi ma‟lumotlar olindi. Bu shunda namoyon bo‟ladiki, hatto turli test topshiriqlari asosida u yoki bu jismoniy sifatning o‟zgarishlarini tahlil etishda ham ishonchlilik darajasi juda farqli bo‟ldi, alohida hollarda variantlilik koeffitsienti 85% gacha yetdi: bu kichik maktab yoshdagi bolalar organizmining ko‟pincha tezlashuv jarayoni, hususan asab-mushak apparati rivojlanishining jadallashuvi vaqtida jismoniy mashqlar ahamiyatini chegaralovchi funksional tizimlaridagi qator mexanizmlarning kuchli ta‟siri ustida so‟z yuritishga imkon beradi. Shunisi aniqki, 7-8 yoshli bolalarning asab-mushak apparati hali yetilmagan bo‟lib, u tezkor shakllanish bosqichida. Bundan tashkari, shu hodisaga ham diqqat qilish kerak: bu yoshdagi bolalar yaqol ifodalangan alohida yosh–jins xussiyatlariga ega bo‟ladilar.Bu yoshda bir sifatning rivojlanish diapozoni boshqalarning rivojlanishiga ko`maklshdi.O`yinlar jismoniy mashqlar, jismoniy sifatlar,axloqiy tarbiya vazifalarni yechish uchun samarali sharoit yaratib berdi.Bolalarda jismoniy sifatlar bilan harakat ko`nikma malakalari ham bir vaqtda rivojlanishiga erishildi.

Jismoniy sifatlarning o‟zaro ta‟sirini bog‟liqlikda tahlil etish pedagogik tajriba natijasida yuz bergan o’zgarishlar mohiyatini chuqurroq anglashga imkon yaratdi. Agar mazkur tadqiqotlar ostiga to’g’ri chiziq tortsak, pedagogik tajriba tufayli kichik maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish sifatlari orasidagi ishonchli bog’liqliklar miqdorini jiddiy oshirish mumkin bo‟lgani haqida yuksak ishonch bilan gapira olamiz. Masalan, tajriba guruhining 7-8 yoshli o‟g‟il bolalarida bunday bog‟liqliklar nazorat guruhlaridagidan bunday bog’liqliklar nazorat guruhlaridagidan etildi. 2,9 barobar, qizlarda esa 2,2 barobar, barcha bolalar guruhlari bo’yicha esa 2,5 barobar ko`p qayt etildi.

## Foydalaniladigan adabiyotlar


1. Kerimov.F, Umarov.M. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. T. 2005 yil.
2. B.B.Ma’murov. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Toshkent “Turon zamin ziyo” 2014.
3. Abdumannotov. A. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida axloqiy xislatlarni shakillantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. Samarqand 1998.

4. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Darslik.Toshkent O‟zDJTI, 2005 yil, 300 bet.
5. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2014 1jild
6. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2015 2 jild

# LEKSEMALARNING (LEKSOSEMEMALARNING) ISHLATILISH DOIRASI

***Yo'ldosheva Shahlo***
*Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

***Arabboyeva Mahfuza***
*Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada leksemalar haqida asosiy tushuncha va tamoyillar hamda leksemalarning iishlatilish doirasi bo'yicha turlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** leksikologiya, morfema, fonema,dialektizm.

Leksema – asosiy, birlamchi til birligi bo'lib, til qurilishining lug'at boyligiga mansub; shunga ko'ra lug'at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi. Lug'at boyligidagi leksemalar qatlamini o'rganuvchi sohaga lek- semika deyiladi (Adabiyotlarda leksikologiya termini ishlatiladi). Leksema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi ramzga teng; leksemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Nutqda leksemaning o'zi mustaqil namoyon bo'lmaydi, chunki u butunga emas, qismga teng holatda bo'ladi, sintaktik belgi-xususiyat qo'shilganidan keyin butunga aylanadi. Leksemaning ana shunday qism holatida bo'lishi oxiriga chiziqcha yozib ko'rsatiladi: nok-, pish-, shirin-, sekin- kabi. Masalan, nokleksemasini talaffuz birligi sifatida nok tarzida yozsak, leksemani emas, balki leksemashaklni ("leksema + birlik son ko'rsatkichi + bosh kelishik ko'rsatkichi"ni) yozgan bo'lamiz. Demak, leksema til xotirasida lisoniy birlik sifatida mavjud bo'ladi, nutqda sintaktik tavsif olib qatnashadi. Til birligi sifatida leksema ikki jihatning – ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Bu ikki jihat ajralmas bir butunni tashkil etishiga qaramay nisbiy mustaqillikka ega: har biri o'z taraqqiyot qonunlari asosida o'zgaradi. Shunga ko'ra leksemaning ifoda jihati va mazmun jihati mustaqil bayon qilinadi.

Leksemaning ifoda jihati deganda avvalo qaysi til tovushlarining qanday tartibdagi qatori bilan ifodalanishi tushuniladi. Leksemaning (shuningdek morfemaning ham) ifoda jihati bo'lish vazifasini bajarishi bilan til tovushi fonema

mavqeiga ega bo'ladi. Demak, til tovushi – tilning tovushlar tizimiga mansub birlik; fonema – til birligi (leksema, morfema) tarkibida birlamchi qurilish ashyosi vazifasini bajaradigan til tovushi. Fonema – til birligining ifoda jihati bo'lib xizmat qiladigan va shu orqali til birliklarining o'zaro farqlanishini ham ta'minlaydigan til tovushi. Fonema til qurilishidagi alohida bir hodisa, alohida birlik emas, balki til qurilishiga mansub tovushlarning ijtimoiy vazifa bajarish holati xolos: til tovushiga ijtimoiy vazifasiga ko'ra fonema nomi berilgan. Afsuski, fonema nazariyasi rivojlangan sari til tovushiga xos artikulyatsion belgi-xususiyatlar ham fonemaga tortib olinib, til tovushi tilning qurilish birligi sifatida umuman gapirilmaydigan, til birligi deb to'g'ridan to'g'ri fonema aytiladigan bo'ldi, "til tovushi" tushunchasi go'yo "fonema" tushunchasiga singdirildi. Aslida til qurilishiga xos birliklar (birlamchi qurilish birliklari) sifatida avvalo til tovushlari tasvirlanadi, keyin-gina shu til tovushlari ijtimoiy vazifasiga ko'ra fonema sifatida o'rganiladi.

Leksemalar ishlatilish doirasi jihatidan avvalo ikkiga guruhlanadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan leksemalar tashkil qiladi. Bu qatlamdagi leksemalar, yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi va boshqa belgilaridan qat'i nazar, o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi, o'zbek tilida gapiruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday leksemalar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarning nomi bo'ladi. Turkum nuqtayi nazaridan yondashilsa, ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga butunicha (ba'zi juz'iy istisnolar bilan, albatta) yordamchilar deb nomlanadigan grammatik turkumlarga mansub birliklar kiritilishi lozim. Chunki, birinchidan, bunday birliklar o'zi ko'p emas, har gal shu oz miqdordagi birliklarga murojaat qilinadi. Ikkinchidan, bular asli grammatik vositalar sirasiga kiradi: leksik tomondan ko'ra grammatik tomon ustun turadi, bu hol ularning umumiy va zaruriy bo'lishini ta'minlaydi. Undovlar ham ishlatilish doirasi jihatidan grammatik turkumlar qatori baholanadi. Mustaqil turkumlardan son leksemalar va olmosh leksemalarning deyarli barchasi ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan. Qolgan turkumlarda (ot, sifat, fe'l, ravish, shuningdek modal birliklarda) har bir leksema alohida yondashib baholanishi kerak. Dialektlarga ko'ra voqe bo'ladigan ba'zi fonetik ayirmalarni hisobga olmaganda (chunki bu leksemalar adabiy tilda yagona talaffuz me'yoriga bo'ysunadi), ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga ko'z-, qo'l-, oyoq-, bilak-, tirsak-, yaxshi-, yomon-, qora-, sariq-, ko'k-, kel-, ket-, o'tir-, tur-, yur-, tez-, sekin-, erta-, kech- kabi juda ko'p misollar keltirish mumkin. Hozirgi adabiy o'zbek tili leksik boyligining asosini xuddi shunday leksemalar tashkil qiladi. Leksemalarning ishlatilish doirasi jihatidan chegaralanishi turlicha. Shunga ko'ra

chegaralangan qatlam o’z navbatida ikkiga guruhlanadi: ishlatilishi territoriyaga ko’ra chegaralangan leksemalar va ishlatilishi kasb-korga ko’ra chegaralangan leksemalar. Ishlatilishi territoriyaga ko’ra chegaralangan til hodisalari dialektizm deyiladi (yunoncha dialektos - ′tilning mahalliy koʻrinishi′). Dialektizm – umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy koʻrinishlari boʻlgan dialektlarga xos hodisa; shunga koʻra bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko’pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek adabiy tilga ham xos bo’lmaydi.

Dialektizm asosan uch turli:

1. Lug’aviy dialektizm – lug’aviy birliklardagi turi (Misollari quyiroqda).

2. Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba'zi dialektlarda o’rin ma'nosi uchun -ga, aksincha, jo’nalish ma'nosi uchun -da ishlatilishi kabi).

3. Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o’zgarishiga bog’liq turi (masalan, ovoz tovushlarning ba'zi dialektlarda cho’ziqroq va yumshoqroq talaffuz qilinishi, ayrim dialektlarda bir tovush o’rniga boshqa tovushning kelishi va b.).

Adabiy tilning lug’atiga birinchi galda barcha o’zbeklar uchun umumiy bo’lgan leksemalar tanlab olinadi. Bu umumiy qatlam ayrim dialektlarga xos leksemalar hisobiga boyitib boriladi. Aslida adabiy til lug’atining bir qismi avval dialektlarniki bo’lib, adabiy tilga xos deb qaralishi bunday leksemaning umumlashib ketishiga sabab bo’lgan. Dialektizm umumtil lug’at boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi leksemalardan ham adabiy tilga saylab kiritiladi. Dialektizmlarning umumtil boyligiga aylanishi ma'lum shart-sharoitga bog’liq. Masalan, shu dialektizm anglatgan ma'no uchun adabiy tilda boshqa nom bo’lmasligi kerak; agar adabiy tilda shunday ma'noni anglatuvchi leksema bo’lsa, yangi qabul qilinayotgan leksema leksik ma'no qirrasida, baho semasida, nutq ko’rinishlariga xoslanish belgisida va boshqa jihatlarida ayrimlikka ega bo’lishi lozim. Biror dialektizmning adabiy tilga ko’chishini boshqa bir hodisadan – dialektizmning badiiy asarda ishlatilishidan farqlash kerak. Badiiy asarda ishlatilgan har bir leksema adabiy tilga qabul qilingan deb qaralmaydi. Badiiy asar voqelikni qanday bo’lsa – shunday aks ettirishi sababli unda til hodisalari ham o’z tabiiy holatida namoyon bo’ladi. Agar dialektizm biror muallif asarida-gina uchrab qolmay, barcha ishlatadigan lug’aviy birlikka aylansa, umumlashib ketsa, shunda bunday birlik adabiy tilga kirib boradi. Aks holda, badiiy asarda ishlatilganidan qat'i nazar, dialektizmligicha qolaveradi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o’zbek adabiy tili. I qism. "O’qituvchi", T.: 1980.

2. G’ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Sintaksis. 3− nashri, T.: 1987.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 3− nashri, "Oʻzbekiston", T.: 1992.
4. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. "Oʻqituvchi", T.: 1993.
5. Ne'matov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O’qituvchi", T.: 1995.

## BIR MA’NOLILIK VA KO’P MA’NOLILIK,ULARNING ISHLATILISH DOIRASI

***Tursunboyeva Muqaddas***
*Andijon davlat pedagogika instituti Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi 2-bosqich talabasi*

***Arabboyeva Mahfuza***
*Andijon davlat pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bir ma’nolilik- Monosemiya va ko’p ma’nolilik Polisemiya haqida, bundan tashqari so’zlarning, atamalar va terminlarning kelib chiqishi haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** monosemiya, polisemiya, metafora, metanomiya,yasalmalar.

Monosemiya yunoncha «mono» – bir, «sema» – ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, bir ma'nolilik demakdir. Birgina tushuncha yoki tasavvurni anglatib kelgan so'zlar bir ma'noli yoki monosemantik so'zlar deb ataladi. Masalan: non, suv, shahar, qishloq, urg'u, kesim, traktor, kompyuter kabi.Odatda fan va texnika sohasiga oid atama (termin)lar, bir ma'noli bo'ladi, lekin bu ham chegaralangan, chunki ayrim fan va texnika sohalariga xos atamalar ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin: morfologiya – grammatikaning bir bo'limi va o'simlik, hayvon xujayralarini o'rganuvchi soha; payvandlash - o'simlik-larning yangi navlarini yetishtirish va metall jismlarni bir-biriga ulash. Shuningdek, assimilyatsiya so'zining biologik, tarixiy va lingvistik ma'nolari va b.Polisemiya so'zi ham yunoncha «poli» – ko'p, «sema» – ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'nolilik demakdir. Ikki yoki undan ortiq ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarga ko'p ma'noli yoki polisemantik so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganligi faqat matn ichida – kontekstda bilinadi.Masalan, bosh so'zining asl ma'nosi kalla (gavdaning bosh qismidir). Ammo bu so'z turli birikmalarda turli ma'nolarni ifodalaydi: ishning boshi birikmasida – ishning boshlanishi; bosh vazifa birikmasida – muhim, asosiy vazifa, bosh ko'tarmoq

birikmasida – qo'zg'almoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq iborasida – rahbarlik qilmoq, idora etmoq, ishni boshqarmoq; bosh egmoq iborasida – bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq, o'zini aybdor his qilmoq; bosh biriktirmoq (qo'shmoq) iborasida – ahillik, ittifoqlik, birdamlik; boshboshdoqlik yasalmasida – o'zboshimchalik, tartibsizlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.Ko'p ma'noli so'zlar faqat otlargagina xos bo'lmay balki fe'l, sifat va boshqa turkumlarda ham uchraydi. Masalan, o'chirmoq so'zining: 1) olovni o'chirmoq (o'z ma'nosi), 2) to'xtatmoq – ovozni o'chirmoq (bunda o'ldirmoq ma'nosi ham bor), 3) tozalamoq – doskani o'chirmoq, chiziqni o'chirmoq, 4) chizmoq – xatni siyoh bilan chizib o'chirmoq, 5) tuzatmoq – xatoni o'chirib tuzatmoq; ko'k so'zining: 1) rang, tus. 2) osmon, 3) rezavor o'simlik; besh so'zining: 1) raqam, 2) miqdor, 3) baho (a'lo), 4) yutuq, muvaffaqiyat, kay-fiyat (uning ishi besh); shuningdek, oq so'zining 30 dan ortiq ma'nosi va b.So'zlarning ko'p ma'noliligi aslda so'z ma'nolarining turli usullar bilan ko'chishi, davrlar o'tishi bilan ayrim so'zlarning ma'nosida kengayish yo torayish hodisasi yuz berishi natijasida hosil bo'ladi. Kishilarning tabiat, jamiyat va ishlab chiqarish sohasidagi tasavvurlari, shu tasavvur va tushun-chalarni ifodalovchi so'zlar, ularning ma'nolari o'zgarib, kengayib, boyib boradi. Lekin bu metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar polisemiyaning ko'rinishlari degan gap emas. Ma'no ko'chishdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan ko'p ma'nolilikdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi boshqa-boshqa hodisalardir.Qiyoslang: oltin soat va oltin ko'z birikmalaridagi «oltin» so'zida ma'no ko'chishi yuz bergan, lekin har ikkala birikmadagi oltin so'zi bir leksik ma'noda qo'llangan. Nok ko'chatlari payvand qilindi va Gaz quvurlari payvand qilindi gaplarida esa «payvand» so'zi har ikkalasida ham ulamoq tushunchasini anglatsa ham, birida kurtak o'rnatish, ikkinchisida eritib yopishtirish ma'nolarini anglatganligi uchun ikki leksik ma'no hosil bo'lgan va ko'p ma'nolilik yuz bergan.
Shunga ko'ra polisemiya hodisasining yuz berishining uch sababini ko'rsatish mumkin:

a) so'zlarda hosila ma'noning yuz berishi;b) so'z yasalishi;c) evfemizm va disfemizmlar.

Ma'lumki, so'zning semantik taraqqiyoti aynan bir so'z doirasida har safar yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keladi. Bu ma'no qanday usul bilan amalga oshirilgan bo'lmasin, yangi hosila ma'nodir. Hosila ma'no so'zning bosh ma'nosi taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi leksik ma'nodir.So'zning leksik-semantik tarkibidagi hosila ma'nolar so'z ma'nosi ko'chish usullarining har biri orqali yuz berishi mumkin. Masalan, o'rik gulladi gapida «gullamoq» fe'li o'simliklarning tabiiy gulga kirishi ma'nosini, Turmushimiz kundan-kun gullab, yashnamoqda gapida faravonlik ma'nosini, Falonchi og'zidan gullab qo'ydi gapida

esa sirni fosh qilmoq ma'nosini anglatadi. Bu ma'nolarning barchasi «gullamoq» so'zining semantik tizimini tashkil etadi hamda har gal yangi-yangi hosila ma'nolarni yuzaga keltiradi. Natija – so'zning ko'p ma'noliligini shakllantiradi. Biroq, yuqorida aytilganidek, so'z ma'nosining ko'chishi orqali hosil bo'lgan har qanday ma'no o'zgarishi ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaravermaydi (ko'z – uzukning ko'zi, buloqning ko'zi, daraxtning ko'zi kabi). Sababi so'z ma'nosi-ning har qanday o'zgarishida yangi leksik ma'no hosil bo'lmaydi, shuning uchun ular polisemantik so'zlar qatoriga kiritilmaydi. Masalan, vazifadosh-lik usuli bilan hosil bo'lgan siyoh so'zining ma'nosidagi o'zgarish ham shunday: siyoh (forscha – qora) o'tmishda qora rangli, suyuq yozuv qurolining nomi bo'lgan, lekin vazifasiga ko'ra ma'no ko'chishi natijasida hozirgi yozuv qurollari ham qanday rangda bo'lishidan qat'iy nazar, siyoh (qora siyoh, ko'k siyoh, qizil siyoh kabi) deb ataladi. Qadimgi siyoh so'zidan yuzaga kelgan yangi hosila («siyoh») yangi leksik ma'noning hosil bo'lishi bilan emas, balki qadimiy va yangiligi bilangina (funksional ko'chim) farqlanadi, xolos.Polisemantik so'zlarning tarkib topishida, ko'p hollarda, so'z yasalishi ham sabab bo'ladi, lekin tildagi har qanday o'zakdosh so'zlar polisemantik so'z bo'la olmaydi. Bunda uch holat kuzatiladi:

1. Yasalmalar ma'nosining differensiatsiyalanishi, yasalma anglatgan ma'no qutblarining o'zgarishi polisemantik so'zlarni keltirib chiqaradi. Misollar: sutli, sutsiz, sutday, sutchi so'zlari bir o'zakdan hosil bo'lgani, turli leksik ma'no anglatgani bilan o'zaro polisemantik so'zlar emas. Lekin shulardan sutchi so'zi «sut sotuvchi» va «sut tashuvchi» kabi ikki leksik ma'noni anglatganligi uchun (bir yasalma (sutchi) ma'nosida differen-siatsiyalanish yuz berganligi uchun) polisemantik so'zdir. Yana: boshqarma – tashkilot va shu tashkilot binosi (qiyoslang: boshqarma boshlig'i, boshqarma oldida, boshqarma qarori kabi); gulchi – «gul o'stiruvchi», «gul sotuvchi»; mehmonxona – «mehmonlar yashaydigan joy», shunga xoslangan bino, «mehmon kuzatiladigan alohida xona» va boshqalar.2. So'z yasashda vosita bo'lgan yasovchining o'zi ko'p ma'noli bo'lsa, undan hosil bo'lgan yasamalar ham ko'p ma'noli bo'ladi: guliston – «gul o'sadigan dasht», «maxsus gul o'stiriladigan joy», ko'chma ma'noda – «go'zal Vatan»; vazirlik – «vazirlik lavozimi», «vazirlarga taalluqli tashkilot», «shu tashkilot joylashgan bino»; oshxona – «ovqat tayyorla-nadigan xona», «umumiy ovqatlanish binosi» kabi.3. So'z yasashda ishtirok etgan yasaluvchi asos ko'p ma'noli bo'lsa, yasalmalar ko'p ma'noli bo'ladi. Masalan, ip ulamoq, telefon ulamoq, gapni gapga ulamoq birikmalarida «ulamoq»; paxtali dala, paxtali kiyim, paxtali joy (paxtasi ko'p) birikmalarida «paxtali»; buzilgan qulf, buzilgan odam, buzilgan go'sht, buzilgan qiz birikmalarida «buzilmoq» so'zi ko'p ma'nolidir. Tilda aytish noqulay, noo'rin, nutqiy madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik hisoblangan

so'z va iboralarni yumshoq, beozor va silliq tarzda ifodalashdan tashqari, qo'pol va dag'al tarzda izhor qilish usuli ham mavjud.Bu so'zlovchi va yozuvchining voqelikka salbiy munosabatini ifodalashi, nafrat va g'azabini anglatishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi so'z va iboralar evfemizmlarning aksi – kakofemizm yoki disfemizmlardir.Bunga o'lmoq tushunchasining yuqorida aytib o'tilgani kabi emas, balki ko'ziga tuproq to'lmoq, qon daryosida g'arq bo'lmoq, qulog'i ostida qolmoq, asfalasofilinga jo'namoq tarzida ifodalanishi, ya'ni so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati misol bo'la oladi. Shuningdek, bu kabi tilda azaldan o'rnashib qolgan lisoniy evfemizm-lardan tashqari, muayyan nutq talabi bilan yuzaga keladigan kontekstual (matn ichida anglashiladigan – tagma'noli) evfemizmlar ham mavjud. Masalan, Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, – dedi Nigor oyim, – quyilmaydiganga o'xshaydi (A.Qodiriy). Mehri gul tergani ketibdi (so'zlashuvdan). Avval esonomon qutilib oling, qizim (S.Ahmad) gaplarida egasiga topshirmoq, gul tergani ketmoq, qutilib olmoq iboralari erga bermoq, o'lmoq, tug'moq ma'nolarida qo'llanganki, bular kontekstdan tashqarida boshqaboshqa (masalan, omonimik ) ma'no kasb etadi. Evfemik vositalar aytish nojoiz bo'lgan, tabulashtirilgan so'zlar o'rnida qo'llaniladigan so'z va iboralar emas, balki kishilarning kundalik turmushida eng faol qo'llaniladigan, umumiste'moldagi ko'lami keng nutq birliklaridir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, evfemik vositalar nafaqat aytish man etilgan, mumkin bo'lmagan narsapredmet, voqeahodisaning nomini yashi-rish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O’zbek tili (o’quv qo’llanma). – Toshkent: Mumtoz so’z, 2018.
2. Qo’ng’urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po’latova X. O’zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O’qituvchi, 2012. – 288 b.
4. Ona tili darslari orqali o’quvchilarning ijtimoiy-emotsional -fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish.Zamonaviy ta’lim.Toshkent.2022.№12, 43-47.
5. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida.Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023. №7, 718-725.

6. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli).  Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 20052008.
7. http://library.ziyonet.uz/ - ta'lim portali

# O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINTAKSIS VA SO'Z BIRIKMASI NAZARIYASI

***Arabboyeva Makhfuza***
*Akramjonovna Andijon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

***Valiyeva Munisa Komiljon qizi***
*Andijon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sintaksis va so'z birikmasi nazariyasi haqida ma'lumot,so'z birikmasi komponentlarining birikish darajasi,so'z birikmasi zanjiri va tobe so'z bilan hokim so'zning birikish usullari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sintaksis,so'z birikmasi,turg'un bog'lama,hokim va tobe so'zlar.

**Аннотация.** Эта статья содержит информацию о синтаксисе и теории словарного запаса,отличии словарного запаса от других языковых единиц, цепочке словарного запаса и сказано о способах спряжения слова правитель с подчиненным словом

**Ключевые слова:** синтаксис, словарный запас,устойчивые сады, управляющие и подчиненные слова

Sintaksis (yunoncha,"tuzish","bog'lash"demakdir)grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib,unda so'z birikmalari,gap turlari o'rganiladi.Sintaksis so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi degan ikkita bo'limni o'z ichiga oladi. So'zlarning gapdagi bog'lanishi sintaksis aloqa deyiladi,sintaksisda ana shu aloqalar o'rganiladi.Barcha til birliklari (tovush,qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap)mana shu sintaksis bo'limida amaliy jihatdan o'zlarini namoyish qiladi.So'zlar bir-biri bilan ikki xil bog'lanadi:

1.Teng bog'lanish.Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.Masalan,Ertalab maydonda erkaklar va ayollar to'planishdi gapida **erkaklar va ayollar** qo'shilmasi teng bog'lanishga misol bo'la oladi.Teng bog'lanish natijasida so'z qo'shilmasi tuziladi.

2.Tobe bog'lanish.Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'ladi:Ertalab to'planishdi, maydonda to'planishdi. Tobelikning asosiy belgisi: bir so'z boshqa

so'zni izohlab keladi.Bir-biriga tobe bog'langan so'zlar so'z birikmasini hosil qiladi.Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no,grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo'lib bog'lanishi so'z birikmasi deb ataladi. O'zaro Grammatik va mazmuniy jihatdan bog'lanib, obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi sintaksis birlik so'z birikmasi sanaladi.Masalan, qizil gul, achchiq qalampir va boshqalar.So'z birikmasi ma'lum gap bo'laklariga kengayishidan hosil bo'ladi.Shuning uchun ham har qanday so'z birikmasi til birligi bo'lgan so'zning kengayishi modelining nutq bosqichida yuzaga chiqish imkoniyatlaridan biri sanaladi.U til tizimining leksik-grammatik birligi sifatida mustaqil so'zning bog'lanish imkoniyatidir.Nutqiy jarayonda so'zning kengayish modeli aniq leksik birliklar bilan to'ldirilgan holda son-sanoqsiz real so'z birikmalari orqali namoyon bo'ladi.Bevosita kuzatish bosqichidagi har qanday so'z birikmasi kengayuvchi bo'lakning kategorial xususiyati bilan xosilangan bog'lanish modeli(tarixi) asosida ro'yobga chiqadi.Kengayuvchi bo'lakning qaysi so'z turkumiga mansubligi hamda qanday kategorial belgiga ega bo'lishi: uning qanday so'zlar bilan kengayib kelishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Masalan, **meni kutgil** birikmasi kutgil so'zining kengayishidan hosil bo'ladi.So'z birikmasi doim ikki qismdan: hokim va tobe qismdan iborat bo'ladi.Kengayuvchi bo'lak hokim, ken gaytiruvchi bo'lak esa tobe sanaladi.Tobe qism hokim qism talab qilgan grammatik shaklda keladi.So'z birikmasi bir so'zning boshqa so'zga qo'shilishi imkoniyatiga- valentligiga tayanadi.So'z birikmasi hokim so'z valentligining yuzaga chiquvidan, uning imkoniyat tarzidagi bo'sh o'rinlarning to'ldirilishidan vujudga keladi.So'zning 3 xil valentligini ajratish mumkin:

1.Sintaktik valentlik;
2.Semantik valentlik;
3.Leksik valentlik.

So'z birikmalari: 1) komponentlarning ma'no jihatidan birikish darajasiga ko'ra; 2) erkin birikmaning sintaktik aloqa turlariga ko'ra; 3) ergash so'zli birikmaning sintaktik aloqa turlariga ko'ra; 4) tobe komponentning sintaktik ma'no funksiyasiga ko'ra; 5) hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra; 6) birikmaning tuzilishiga ko'ra klassifikatsiya qilinadi.So'z birikmalari a'zolari orasidagi bog'lanish har bir so'zda yaxlit holda mavjud bo'lgan ma'noviy,shakily, joylashuv omillarining o'zaro muvofiqligiga tayanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madrim Hamrayev.Ona tili (Metodik qo'llanma) Toshkent 2019.XI bob 167-bet

2. N.Mahmudov,A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi(sintaksis) Toshkent "O'qituvchi" 1995.18-19-betlar
3. G'.Abdurahmonov,A.Sulaymonov,X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis)Toshkent "O'qituvchi"-1979.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy.Toshkent-2010.

# ОПТИМИЗАЦИЯ ЛЕЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С МИКРОЦЕФАЛИЕЙ

***Мамбеткаримова Муслима Садиратдиновна***
*Андижанский государственный медицинский институт*

Актуальность исследования. Микроцефалия относится к тяжелым врожденным порокам развития. Это – одна из самых частых аномалий у больных с тяжелой умственной отсталостью – до 20% всех случаев олигофрении обусловлены этой патологией. На 1000 новорожденных встречается около 2 случаев рождения ребенка с микроцефалией.

Микроцефалия представляет собой медицинское состояние, характеризующееся непропорционально малым размером головы у новорожденных и детей. Основной причиной микроцефалии является неполноценное развитие мозга внутри матки или на ранних стадиях жизни. Это состояние может сопровождаться серьезными неврологическими и когнитивными нарушениями, а также моторными проблемами.

Цель исследование. Оптимизация лечения детей с микроцефалией с помощью микротоковой рефлексотерапии.

Микротоковая рефлексотерапия - это метод физиотерапии, который включает в себя использование слабых электрических импульсов, направленных на биологически активные точки. Этот метод часто используется для стимуляции нервной системы и улучшения кровообращения в целях облегчения боли, повышения моторики и общего здоровья. Исследования по микротоковой рефлексотерапии при микроцефалии пока ограничены, но предварительные данные предполагают, что такой метод может оказать положительное воздействие на нейрорегуляторные процессы, что важно при лечении неврологических расстройств.

Дополнительные исследования направлены на выявление точных механизмов действия микротоковой рефлексотерапии и ее потенциального влияния на структурные и функциональные аспекты мозга у детей с микроцефалией. Эти углубленные исследования могут предоставить более

точные данные о применимости этого метода в контексте лечения данного медицинского состояния.

Предполагается также провести сравнительный анализ с другими методами лечения, чтобы выявить преимущества и ограничения микротоковой терапии.

Вывод. Данное исследование не только углубит наше понимание эффективности микротоковой рефлексотерапии в контексте лечения микроцефалии, но и может предоставить важные научные основы для будущих инновационных терапевтических подходов к этому неврологическому расстройству.

## НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ МИКРОЦЕФАЛИИ

***Мамбеткаримова Муслима Садиратдиновна***
*Андижанский государственный медицинский институт*

Введение. Микроцефалия (от греч. μικρός — маленький и κεφαλή — голова) - недоразвитие черепа и головного мозга, сопровождающее умственной отсталостью и неврологическими отклонениями. Микроцефалия характеризуется малыми размерами черепа, ранним смыканием черепных швов и закрытием родничка, судорожным синдромом, задержкой моторного развития, интеллектуальным дефектом, недоразвитием или отсутствием речи.

Формы микроцефалии: С учетом времени и причин возникновения в педиатрии и детской неврологии выделяют первичную (наследственную, истинную) и вторичную (синдромальную и эмбриопатическую) микроцефалию.

Первичная микроцефалия является компонентом наследственных болезней с аутосомно-рецессивным и рецессивным, сцепленным с полом типами наследования (синдром Джакомини, синдром Пейна). На долю истинной микроцефалии приходится 7-34% от всех форм патологии. Является результатом воздействия вредного фактора на ранних стадиях внутриутробного развития.

Вторичная микроцефалия отмечается при хромосомных аберрациях, наследственных энзимопатиях (фенилкетонурии), патологии беременности и родов. Развивается в результате повреждения мозга в последние месяцы внутриутробного развития, в процессе родов и в первые месяцы жизни.

Синдромальная микроцефалия встречается более чем при 125 хромосомных аномалиях, наиболее частыми из которых являются болезнь Дауна (трисомия по 21 хромосоме), синдром Эдвардса (трисомия по 18

хромосоме), синдром Патау (трисомия по 13 хромосоме), синдром «кошачьего крика» (моносомия 5хр.) и др. Вторичная эмбриопатическая микроцефалия обусловлена воздействием на плод тератогенных факторов и может являться следствием внутриутробных инфекций (краснухи, цитомегаловирусного энцефалита, герпеса, токсоплазмоза) и интоксикаций (алкогольной, наркотической, профессиональной), радиационного влияния, гипоксии, внутричерепных родовых травм, метаболических нарушений, гормональных заболеваний матери (сахарного диабета, тиреотоксикоза).

Вывод. Микроцефалия у детей часто сочетается с другими аномалиями:расщелинами губы и неба («заячьей губой» и «волчьей пастью»), несовершенным остеогенезом, врожденной катарактой, пигментным ретинитом, первичной кардиомиопатией, лимфедемой, врожденными пороками сердца и легких, гипоплазией почек, что в значительной мере отягощает прогноз.

## SINTAKSIS BO’LIMINI O’QITISH METODIKASI

***Rasulova Niginabonu Jasurbek qizi***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*O’zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

***Arabboyeva Mahfuza***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ona tilining sintaksis bo’limini o’qitish metodikasi, hozirgi kunda ona tilimizga qaratilgan e’tibor va dars o’tishdagi ayrim kamchiliklar va ularni yechish masalalari ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** Sintaksis, morfologiya, dars o’tish metodlari, so’z turkumlari, iboralar.

Sintaksisning o`rganish ob`ekti so`z birikmasi va gapdir. Bu bo`lim oldin o`rganilgan bo`limlar: fonetika, so`zshunoslik, so`zlarning lug`aviy shakllari va ma`noviy guruhlari, so`zlarning aloqa-munosabat shakllari bilan uzviy bog`langan. Chunonchi, gap bo`laklari o`rganilar ekan, so`z turkumlaridan egallangan bilimlarga tayanishga to`g`ri keladi.“Sintaksis” bo`limini o`qitishda so`zning moddiy va ma`naviy qirrasini chetlab o`tib bo`lmaydi.Mazkur bo`lim “Fonetika” va “Morfologiya” bo`limlari bilan ham uzviy bog`langan. Chunki “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo`limini o`qitishda tovushlarning so`z ma`nosiga ta`siri, so`zlarning imlo qoidaliriga muvofiq to`g`ri yozish; so`zning lug`aviy ma`nolari, ma`nodosh, uyadosh, shakldosh so`zlar, atamalar va shevaga xos so`zlar, tasviriy

ifoda va iboralar; so`z turkumlari ustida ishlash davom ettiriladi.Sintaksisning ohang va tinish belgilari bilan aloqadorligi xususida gap bo`lishi mumkin emas. Zero, ifodali o`qish malakalari ham shu bo`limni o`qitishda maromiga etadi.Mazkur bo`lim o`quvchining gap ohangi xususida bilim, malaka va ko`nikmalarni kengaytiradi. “Men keldim”, “Men keldim!”, “Men keldim?” tipidagi gaplarning uch xil ohangi bilan o`qituvchi va uch xil ma`noga egaligi shu bo`lim orqali o`quvchi ongiga singdiriladi.“Sintaksis”ni o`rganish jarayonida o`quvchining punktucion malakalari to`la shakllanadi. U qaysi tinish belgidan qanday sharoitda foydalanish kerakligini shu bo`lim orqali mukammal egallaydi.Maktabda “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo`limini o`qitishning maqsad va vazifalari.Maktabda “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo`limini o`qitishning maqsad va vazifalari ona tili ta`limining maqsad va vazifalari bilan uyg`undir. Modomiki, “Ona tili o`qitish koncepciyasi”da ona tili ta`limining asosiy maqsadi “Ta`lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish” deb belgilangan ekan, demak, mazkur bo`limni o`qitish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. O`quvchilar “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo`limini o`rganish orqali eng so`nggi natija-sodda va qo`shma gaplardan nutqiy faoliyatda (og`zaki va yozma) foydalanish malaka va ko`nikmalarni egallaydilar. Demak, mazkur bo`limni o`qitishda o`qituvchining diqqat markazida sodda va qo`shma gaplardan iborat matnni maqsadga muvofiq ravishda to`g`ri o`qish, mazmunini tushunish, o`quvchilarning matn yaratish mahoratini kengaytirib turishi lozim.Belgilangan maqsadga erishish uchun “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo`limi oldiga quyidagi vazifalar qo`yiladi:

So`zlarning sintaktik munosabatga kirishish yo`llari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so`z birikmalarida hokim so`z va tobe so`z, so`z birikmasi va so`z, ibora va gap orasidagi farq xususida o`quvchilarga puxta nazariy bilim hamda amaliy malaka va ko`nikmalar hosil qilish. Sodda gap, kesim va uning ifodalanishi, egali va egasiz gaplar, ifodalangan egali va yashiringan egali gaplar egasiz gaplarning turlari; yoyiq gaplar (hol, uning ma`no turlari va ifodalanishi; to`ldiriuvchi va uning ifodalanishi; aniqlovchi); yoyiq atov va so`z-gaplar; uyushiq bo`laklar; ularning ohangi va tinish belgilari; gapda ajratilgan izoh bo`laklar; gapda kiritmalar; gapda undalma; to`liqsiz gap haqida ma`lumot berish hamda ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va ko`nikmalarni takomillashtirish. Ikki va undan ortiq soda gaplarni turli vositalar bilan biriktira olish.Nutqda teng bog`lovchilar vositasida bog`langan qo`shma gaplar, ergashtiruvchi bog`lovchilar vositasida bog`langan qo`shma gaplar, yuklamalar vositasida bog`langan qo`shma

gaplar, nisbiy so`zlar vositasida bog`langan qo`shma gaplar, faqat ohang, vositasida bog`langan qo`shma gaplardan foydalanish malaka va ko`nikmalarini mukammali egallash.Sodda va qo`shma gaplarda tinish belgilarini to`g`ri hamda o`rinli qo`llay olish malaka va ko`nikmalarini hosil qilidirish.Sodda va qo`shma gaplarni to`g`ri o`qish malaka va ko`nikmalarini rivojlantirish.Sodda va qo`shma gaplarni mazmunini saqlagan holda shaklini o`zgartirish malaka va ko`nikmalarini singdirish.Kesimdan savol berish orqali gaplarni hollar, to`ldiruvchilar va aniqlovchilar bilan kengaytirish malkalarini takomillashtirish.Sodda va qo`shma gap tarkibidagi so`zlarni ularning vazifadoshlari (qiymatdoshlari) bilan almashtirish malaka va ko`nikmalarini rivojlantirish.Sodda va qo`shma gaplardagi ma`no nozikliklarini farqlashga o`rgatish.Sodda va qo`shma gaplarda foydalangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop, publicistik, badiiy va rasmiy-idoraviy uslublarda matn yaratish malaka va ko`nikmalarini kengaytirish."Sintaksis, ohang va tinish belgilari" bo`limini o`qitishda boshqa til sathlarini o`qitishda bo`lgani kabi imloviy, talaffuziy va uslubiy xatolar ustida ishlash davom ettiriladi.Yuqorida qayd qilinganidek, 8-9-sinflarda ham rasmiy-idoraviy ish qog`ozlari ustida ishlash davom ettiriladi. "Sitaksis, ohang va tinish belgilari" bo`limini o`qitishda o`quvchilar ish qog`ozlarining: majlis bayonnomasi, shartnoma mantlari tuzish, murakkab ma`lumotnomalar yozish, rasmiy xatlar kabi murakkab ko`nikmalari bilan tanishtiriladi.Xullas, mazkur bo`lim nafaqat o`quvchilarni sintaksis yuzasidan nazariy ma`lumotlar bilan qurollantiradi, balki sintaksisni boy, rang-barang imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va ko`nikmalarini hosil qildiradi.Dastur talabiga ko`ra, 8-sinfda sodda gap sintaksisi, 9-sinfda qo`shma gap sintaksisi o`rganiladi.8-sinfda dastlab "Sintaksis. Og`ang va tinsh belgilari" bo`limi haqida umumiy ma`lumot beriladi. O`quvchilar tilning ijtimoiy vazifasi, fikrni shakllantirishda tilning qaysi birliklari xizmat qilishi, so`zshunoslik (leksika), morfologiya va sintaksisning nimani o`rganishi va o`rgatishi xususida bahs-munozara yuritadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yoqubbekova M. Til va adabiyot ta'limida insho. –T., 2003.
2. Roziqov O. O'zbek tilidan dars tiplari. –T., "O'qituvchi", 1976.
3. Roziqov O., Og'ayev S., Muhiddinov M., Azizov B. Ta'lim texnologiyasi. –T., "O'qituvchi", 1999.
4. Rahimova O. Ona tili darslarini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi. T., 2004.
5. Do'stmurodova O. Ona tili ta'limi yangi pedagogik texnologiyasining mohiyati. –T., 2005.

6. Baranov M.T. va boshqalar. Metodika prepodavaniya russkogo yazыka. –M., “Prosvesheniye”, 1990.
7. Tekuchev A.V. Metodika russkogo yazыka v sredney shkole, –M., “Prosvesheniye”, 1980.
8. Abduraimova M. Ona tili ta'limi-yangi asrda. –Toshkent, 2007.
9. Ona tili o'qitish metodikasi. O'UM, O'zMU 2011. O'zbek filologiyasi fakulьteti kutubxonasi.
10. Zagvyazinskiy V.I. Metodologiya i metodika didakticheskogo issledovaniya. – M.: Pedagogika, 1982.
11. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
12. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi. 1993.

# C1 (HSK 5) DARAJASIDAGI SALBIY VA IJOBIY SO'ZLAR KLASSIFIKATSIYASINING YOZISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI (XITOY TILI MISOLIDA)

***Hamdamova Charos***
*SamDCHTI, Yaqin sharq tillari*
*kafedrasi stajyor – o`qituvchisi*
*+998 97 396-49-26*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada xitoy tilini o`qitish jarayonida qo`llaniladigan C1 (xalqaro HSK 5) darajasidagi maqtov so'zlar klassifikatsiyasi hamda ularning yozish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni, HSK va CEFR imtihonlarida ulardan to`g`ri va unumli foydalanish qoidalari xitoy va o`zbek tillarida berilgan misollar orqali dalillangan.

**Kalit so`zlar**: HSK, C1, yozish kompetensiyasi, maqtov so`zlar, iltifot so`zlari, kamsituvchi so`zlar.

Xitoy tilini bilish darajasi imtihoni (HSK) hamda Tillar bo`yicha umumiy Yevropa tizimi imtihoni (CEFR) da talabgorlardan ushbu darajaga oid barcha so`z va iboralarni o`zlashtirishi, nutq jarayonida ulardan to`g`ri foydalanishi olishi talab etiladi. Biroq borgan sari, bu o`qitish tizimi o`zini oqlamasligi isbotlanmoqda. Sababi, HSK 5 darajasidagi imtihonni muvaffaqiyatli topshirish uchun talabgor jami 2500 ta so`z boyligiga ega bo`lishi kerak. Har bir so`zning tarjimasini, ularni qay holatda qanday qo`llanilishini, ularni gap va so`z birikmasi tarkibida kelishini bilishi, ularning inkor shaklini qanday bo`lishi (xitoy tilida turli so`z turkumiga oid so`zlar turlicha inkorga uchraydi) va ularni qo`llay olish singari bir qancha vaziyatlar talabgorga ancha qiyinchilik tug`diradi.

Yuqorida shu kabi qiyinchiliklar bartaraf etilmagan holda talabgorga HSK 5 hamda C1 imtihonini topshirish tavsiya etilmaydi. Sababi ushbu imtihonlarni topshirish uchun talabgor  xitoy tilidagi istalgan matnni o`qib bemalol uni tahlil qila olishi, matn to`g`risidagi har qanday savolga javob bera olishi, matndagi ayrim gap yoki so`z birikmasini uning ma`nosiga hech qanday ta`sir ko`rsatmagan holda boshqa jumla yoki so`z birikmasiga almashtira olish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Ko`rinib turibdiki, bu holatda bir qiyinchilik boshqa bir muammoni keltirib chiqarmoqda.

Xitoy tili darajasin bilish imtihonining 99- va 100- savollarida talabgor o`zining yozish kompetensiyasi yuzasidan bilim va ko`nikmalarini namoyon eta olishi lozim bo`ladi. Xususan, imtihonnning yozish qismidagi 99-savolda talabgorga 5 ta so`z taqdim etilib, talabgor matn tuzish jarayonida ushbu beshala so`zning barchasidan foydalangan bo`lishi hamda matn kamida 80 ta iyeroglifik belgidan tashkil topgan bo`lishi talab etiladi. Ushb so`zlardanto`g`ri va to`liq va to`g`ri foydalanib matn tuzish imtihonning yozish qismidagi 99-savoldan yuqori ko`rsatgich qo`lga kiritilishini ta`minlaydi. Ushbu so`zlardan foydalanib matn tuzish jarayonida talabgor nafaqat ularning to`g`riligi, balki rang-barangligiga ham e`tibor bergan bo`lishi va ularni to`g`ri qo`llay olishi lozim.

Hissiy rang – baranglikni ifodalovchi so`zlar, odatda, so`zlovchining muayyan holat va vaziyatga munosabatini, ma`qullashini, qabul qilishi yoki noroziligini, inkorni ifodalovchi so`zlardir. Xitoy tilida bu turdagi so`zlar bo`yoqdorligiga ko`ra, 3 guruhga ajratiladi.

1. Neytral so`zlar;
2. Iltifot (maqtov) so`zlari;
3. Kamsituvchi (salbiy bo`yoqdor) so`zlar.

Xitoy tilida ayrim so`zlarning rang-barang, ya`ni qay sohada bo`yoqdor ekanligini bir qarashda aniqlash qiyin. Shuningdek, yana shunday so`zlar borki, ularda hech qanday bo`yoqdorlikning o`zi yo`q. Lekin ular ma`lum bir matnlarda ular kontekstga qarab maqtov yoki kamsituvchi so`zlarning hissiy bo`yoqdorligini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, talabgor imtihon topshirish jarayonida shu kabi so`zlar va ularning ishlatilishiga e`tibor berishi lozim. 有水平 *o`qimishli*，没文化 *madaniyatsiz*，黑车*noqonuniy taksi*，绿色食品*yashil taomlar* singari so`zlar shular jumlasidandir.

Endi esa quyida xitoy tilida ko`p murojaat etiladigan ijobiy va salbiy bo`yoqdor so`zlar klassifikatsiyaga to`xtalamiz.

Xitoy tilida HSK 5 (C1) darajadagi 2500 ta so`z orasidan ijobiy bo`yoqdor – maqtov va iltifot so`zlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

| | |
|---|---|
| 1. 爱 Ài | 爱护  aihù |

| | |
|---|---|
| Sevmoq fe`li ishtirokida | G`amxo`rlik qilmoq |
| | 爱情 àiqíng<br>Sevgi |
| | 爱惜 àixī<br>Qadrlamoq |
| | 爱心àixīn<br>Mehr - muhabbat |
| 2. 宝 Bǎo<br>Qimmatli sifati ishtirokida | 宝贝 bǎobèi<br>Chaqaloq |
| | 宝贵 bǎoguì<br>Qimmatbaho |
| 3. 热Rè<br>Qaynoq sifati bilan | 热爱 Rè'ài<br>Jo`shqin muhabbat |
| | 热烈rèliè<br>Qizg`in |
| | 热闹rènào<br>Shovqin - suronli |
| | 热情rèqíng<br>ishtiyoqli |
| | 热心rèxīn<br>G`ayratli |

Xitoy tilida HSK 5 (C1) darajasidagi salbiy bo`yoqdor – kamsituvchi so`zlar sifatida esa quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

| | |
|---|---|
| 1. 小 Xiǎo<br>Kichik sifati bilan | 小气 xiǎoqì<br>Xasis |
| | 小偷 xiǎotōu<br>O`g`ri |
| 2. 失 Shī<br>Yo`qotmoq fe`li bilan | 失败 shībài<br>Muvaffaqiyatsizlikka uchramoq |
| | 失望 shīwàng<br>Umidsizlikka tushmoq |
| | 失业 shīyè<br>Ishsiz qolmoq |

Neytral (yuqoridagi ikki guruhga kirmaydigan) so`zlarni tahlil qilishda quyidagi ikki muhim jihatga to`xtalib o`tish joiz:

1. Ayrim so`zlar ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligi yuzasidan allaqachon bir qarorga kelingan. Ayrim salbiy va ijobiy bo`yoqdor so`zlar yuzasidan ayrim hollarda haligacha bir to`xtamga kelish qiyin. Va yana ayrim so`zlar yuzasidan esa so`zlashuv amalga oshirilayotgan muhit, madaniyat, xarakter, narxlar singari bir necha omillar ta`siri bilan ularning ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligini aniqlash mumkin, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuni ta`kidlash joizki, xitoy tilida

HSK 5 (C1) darajasidagi so`zlarning barchasi ham to`lig`ich salbiy yoki ijobiy bo`yoqdor so`zlarga bo`linmaydi.

2. Ikkinchi jihat esa so`zlarning ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligining darajasi bevosita bog`liq. Misol tariqasida 可怕 *kěpà* hamda 恐怖*kǒngbù* so`zlarini olaylik. Ularning ikkisi ham o`zida salbiy ma`noni saqlagan so`zlar bo`lib, ular salbiy bo`yoqdorlikning darajasi tomonlama bir – biridan keskin farq qiladi. Sababi ushbu ikki so`z qo`llnilayotgan muhiy va ular bilan qo`llanilayotgan to`ldiruvchilar ham o`z navbatida farq qiladi.

Shu o`rinda bir jihatni ta`kidlash joizki, bu ikki so`zni tarjimasini o`rganib, insho jarayonida shu yo`l bilan ulardan foydalanish, talabgorlar, ayniqsa, chet ellik talabalar tomonidan yo`l qo`yiladigan qo`pol xatolardan hisoblanadi. Salbiy hamda ijobiy so`zlardan ularning darajasini bilgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. 刘超英等编著, 新HSK5级速成强化教程 – 北京语言大学出版社， 2013.5
2. Санжиева, И. Б. Соотношение уровней владения китайским языком в экзамене HSK и европейской системе: к постановке проблемы / И. Б. Санжиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 25 (315). — С. 486-488. — URL: https://moluch.ru/archive/315/71924/ (дата обращения: 01.12.2023)

# ARTEMIYANING TUZLI MUXIT SHAROITLARIGA MOSLASHISHINING O’ZIGA XOS BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

***A. Kaliknazarova***
*Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti*

Bazi tadqiqotlarga ko’ra, artemiya sho’rliligi 30-35 ppt bo’lgan tabiiy dengiz suvida yaxshi yashashi mumkin, lekin ular sekin harakatlanishi va yorqin rang tufayli dengiz orqali bir sho’r biotopdan ikkinchisiga ko’chib o’ta olmaydilar. Shuning uchun artemiyani faqat yirtqichlar yashay olmaydigan sho’rlanish darajasi 70 pptdan yuqori bo’lgan joylarda topish mumkin (1-rasm).




*1-rasm.Artemiyaning tuzli hovuzlarda rivojlanishi[1; 305-p.]*

Ular yirtqichlar uchun oson o’ljaga aylanadi. Artemiya kuchli filtrlovchi organizm hisoblanadi. Tabiat muhitida artemiyaning mavjudligi yirtqichlar baliqlar, qisqichbaqalardan qochish uchun yuqori sho’rlanishga moslashish qobiliyatiga bog’liq.

Ularning yuqori sho’rlanishga fiziologik moslashuvi quyidagi mexanizmlarga asoslanadi:

Juda samarali osmoregulyatsiya tizimi.

Juda samarali nafas olish pigmentlarini sintez qilish qobiliyati

Yuqori sho’rlanishlarda past O2 darajalariga dosh beradi.

Atrof-muhit sharoiti noqulay bo’lganida uxlab yotgan tuxum/tsista hosil qilish qobiliyatiga ega. Suv 250 ppt yoki undan yuqori tuzlilik bilan to’yinganda artemiya uchun metabolizm juda qiyin bo’lganligi sababli o’ladi.

Ular quyidagi sharoitlarda yaxshi o’sishi mumkin:

Tuzlilik: 80 - 120 ppt

Harorat: 22 - 35°S

Kislorod: 2 mg/l dan kam emas

pH ko'rsatkichi (7 - 9) [2; 21-p.,3; 22-p]

Atrof-muhit tabiiy sharoitlar hisoblangan iqlim, harorat, yog'ingarchilikka bog'liq, shuningdek har bir joyning joylashishi: suv ta'minoti, suv rangi, o'simliklar, va fasllarga bog'liq

Tabiatda yilning ba'zi fasllarida yashash sharoiti noqulay bo'lib qolganda, artemiya suv yuzasida suzuvchi harakatsiz tuxum tsistalar hosil qiladi, tsistalar shamol va to'lqinlar tomonidan qirg'oqqa yig'ilib qoladi. Bu tsistlar metabolik jihatdan faol emas va ular quruq holda saqlanmaguncha rivojlanmaydi. Dengiz suviga botganda yoki sharoit qulay: issiq harorat va past sho'rlanish bo'lganda, ikki qirrali shaklidagi tsistalar gidratlanadi, sharsimon bo'ladi va qobiq ichida embrion o'zining to'xtatilgan metabolizmini tiklaydi. Ushbu vaqtda tsista ichida metabolizm boshlanadi. 20 soatdan keyin tashqi membrana yoriladi va embrion paydo bo'ladi.

Embrionlar inkubatsiya membranasi bilan o'ralgan. Embrion bo'sh qobiq ostida osilib turadigan "soyabon" bosqichida lichinkaning rivojlanishi tugaydi va qisqa vaqt ichida inkubatsiya membranasi yoriladi va erkin suzuvchi lichinka tug'iladi

Birinchi lichinka bosqichi; uzunligi 400 dan 500 mkm jigarrang-to'q sariq rangga ega, bosh bo'limida qizil lichinkalik ko'zi va uchta juft qo'shimchalar mavjud: ya'ni birinchi muylovlar sezgi funktsiyasini, ikkinchi muylovlar harakatlanish, fil'trlash funktsiyasini va mandibulalar oziq-ovqatni qabul qilish funktsiyasini bajaradi. Qorin tomoni katta labrum bilan qoplangan bo'lib oziq-ovqatni qabul qilish shuningdek, filtrlovchi to'plamlardan zarrachalarni og'izga o'tkazish vazifalarini bajaradi.

I bosqichli lichinkalar ovqat hazm qilish tizimi hali ishlamaganligi sababli ovqatlanmaydi; u o'zining oqsili zahiralaridan to'liq rivojlanadi.




*2-rasm: Artemiyaning hayot tsikli [4; 231-246-p.]*

Taxminan 8 soatdan keyin lichinkalar 2-bosqichga o'tadi(II bosqich). 1 dan 50 mkm gacha bo'lgan kichik oziq-ovqat zarralari: suv o'tlari hujayralari, bakteriyalar, detritlar bilan oziqlanadi. Oziq-ovqatlar 2-antennalar tomonidan filtrlanadi va funktsional ovqat hazm qilish tizimiga kiritiladi.

Lichinkalar o'sadi va 15 ga yaqin tulashlar orqali farqlanadi. Magistral mintaqada juftlashgan lobulyar qo'shimchalar paydo bo'ladi va naupliyning lateral murakkab ko'zlarning ikkala tomonida torakopodlarga differensiallanadi.

10-bosqichdan boshlab muhim morfologik, shuningdek, funktsional o'zgarishlar sodir bo'ladi: antennalar tayanch-harakat funktsiyasini yo'qotib, jinsiy differensiatsiyaga uchraydi. Erkaklarda ular ilmoqli tutqichlarga aylanadi, urg'ochilarda antennalar esa hissiy qo'shimchalarga aylanadi. Endi torakopodlar uchta funktsional qismga, ya'ni telopoditlar va endopoditlarga va membranali ekzopoditlarga ajratiladi.

**Калит сўзлар:** Минтақа, иқтисодий салоҳият, минтақа иқтисодий салоҳияти, тўсиқлар, SWOT-таҳлил.

Минтақанинг иқтисодий салоҳиятини ёритиш учун “салоҳият” тушунчасини кўриб чиқиш зарур. “Салоҳият” сўзи лотинча “potentia” сўзидан келиб чиқиб, куч-қудрат, имконият маъносини билдиради ва луғатда “салоҳият” тушунчаси ваколат, қобилят, иқтидор, имкониятлар ва манбалар сифатида талқин этилади [1]. Минтақа иқтисодий салоҳиятини ошириш ва ундан самарали фойдаланишга таъсир қилувчи омил ҳамда манбалар икки гуруҳга ажратилади. Биринчи гуруҳда уни ривожланишига тўсиқ бўлувчи манбалар, иккинчи гуруҳда эса, ижобий таъсир қилувчи омиллар киритилади. Биринчи гуруҳ омиллари ҳам иккинчи гуруҳ каби бирдек муҳим саналади. Чунки, мавжуд хатарларни аниқлашда минтақанинг ички ва ташқи муҳит манбаларига эътибор қаратамиз. Ҳудди шунингдек, ижобий омилларни ҳам икки йўналишда ички ва ташқи муҳит тарзида тадқиқ қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бунда, мазкур масалани ҳал этиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқамиз. Хусусан, мавжуд муаммо ва камчиликларни тадқиқ этишда SWOT-таҳлил усулидан фойдаланамиз. Унинг афзаллиги бир вақтда ҳар икки гуруҳ кўрсаткичларига баҳо бериш имкониятининг мавжудлигидир. Шу боис тадқиқотимизни амалга оширишда иқтисодий, ижтимоий, молиявий мезонларни алоҳида тадқиқ қиламиз. Иқтисодий мезон асосида тармоқ ва соҳаларнинг ҳолатини таҳлил қиламиз. Бунда, саноат, қишлоқ хўжалиги, хизматлар каби тармоқларни баҳолаймиз. Ҳамда иқтисодий салоҳият самарадорлиги борасида амалга оширилган тадқиқотларнинг аксарияти, ушбу тушунчани нисбий талқин этадилар. Яъни, сарфни натижага боғлиқлиги ёки нисбатини баҳолайдилар [2].

Шунингдек, ижтимоий мезонлар асосини иш билан бандлик, таълим кабилар ташкил қилади. Молиявий мезонда асосан инвестицияларни тадқиқ қиламиз. Шундай бўлсада, минтақа иқтисодий салоҳиятининг барча мезонларини таҳлил этганимизда ҳудудий хусусиятларга алоҳида эътибор қаратамиз. Шу билан бирга, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, минтақани

ривожлантириш дастурларини ҳам тегишли бўлимлари у ёки бу мезон ёки мезонлар гуруҳи билан мувофиқликда баҳолаймиз. Дастлаб, юқоридаги шартлар асосида иқтисодий кўрсаткичларни минтақанинг ички ва ташқи муҳит таъсири доирасида тадқиқ этамиз.

Иқтисодий мезонларини баҳолашда саноатнинг хом ашё базаси, жорий қуввати ҳамда улардан фойдаланиш даражасига алоҳида тўхталиб ўтамиз. Қишлоқ хўжалигини тадқиқ этишда тармоқлар кесимида соҳанинг ривожланишига баҳо берамиз. Хизматлар соҳасини ривожлантиришда минтақанинг ўзига хос хусусиятларидан бири транспорт тугунида жойлашганлиги боис, логистика хизматини ривожлантиришга устуворлик қаратамиз. Шунингдек, Қорақалпоғистон Республикасининг ўзига хос хусусиятларидан бири туризм ва рекреацион салоҳиятининг юқорилигидир. Яъни, минтақанинг табиати, географияси республиканинг бошқа ҳудудларидан кескин фарқланади. Бу эса, нафақат ички, балки ташқи туристлар учун ҳам жозибадор ҳисобланади. Демак, юқоридаги шартларга мувофиқ SWOT-таҳлилда тармоқларни минтақавий хусусиятларини тадқиқ қиламиз.

Қорақалпоғистон Республикаси соҳа ва тармоқларининг ривожланиши бўйича кучли, кучсиз, имконият ва тўсиқларини тадқиқ қилиш асосида қуйидаги таҳлилий маълумотларга эга бўлдик (1-жадвал).

*1-жадвал*

*Қорақалпоғистон Республикаси иқтисодий салоҳиятининг соҳа ва тармоқлари ривожланишининг SWOT-таҳлили*[3]

| Кучли томонлари | Кучсиз томонлари |
|---|---|
| минтақани ривожлантириш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ишлаб чиқилганлиги;<br>минтақада нефт (Қўнғирот тумани), газ (Мўйноқ тумани), темир рудаси конларининг, охактош, минерал тузлар, мармар каби захирларнинг мавжудлиги;<br>пахта етиштириш, бошоқли экинлар, шоли етиштириш, гўшт-сут маҳсулотлари етиштиришнинг юқори даражаси;<br>жунни қайта ишлаш ва қоракўлчиликнинг шаклланганлиги ва ривожланиб бораётганлиги;<br>минтақанинг транспорт тугунида жойлашганлиги;<br>қулай иқлим шароити ва географик жойлашуви;<br>тарихий обидалар ва рекреация | илмталаб технологиялар асосидаги ишлаб чиқаришнинг етарлича ривожланмаганлиги;<br>асосий ишлаб чиқариш йўналиши пахта тозалаш ҳамда қазиб олишга ихтисослашганлиги, диверсификациянинг пастлиги;<br>тўқимачилик кластерларини ривожланмаганлиги, йирик саноат корхоналарининг нотекис жойлашганлиги ва юқори концентрация даражаси;<br>иқтисодиёт соҳа ва тармоқларида мавжуд асосий фондларнинг маънавий ҳамда жисмоний эскирганлиги;<br>қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш даражасининг пастлиги;<br>қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ташиш, сақлаш жараёнларининг етарли даражада ривожланмаганлиги; |

[3] Муаллиф ишланмаси.

| | |
|---|---|
| ресурсларининг кўплиги, бир ҳудудда концентрация бўлганлги (Тупроққалъа тумани);<br>Ўзбекистонни Европа билан боғловчи транспорт тугунида жойлашганлиги ва логистика хизматларининг шаклланганлиги;<br>минтақанинг ўзига хос урф-одатлари ва санъатининг мавжудлиги;<br>минтақанинг қўшни давлатлар билан чегарадошлиги боис халқаро савдо ҳамда туризмни ривожланиши учун мост эканлиги. | ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасининг етарлича ривожланмаганлиги ҳамда уларнинг шаҳар ва туман марказларида жойлашганлиги боис фойдаланиш имконияти чекланганлиги;<br>минтақа вегетатив даврининг республикка ҳудудларига нисбатан 25-30 кунга қисқалиги;<br>қишлоқ хўжалигига йўналтирилган инвестицияларнинг пастлиги, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг деярли мавжуд эмаслиги;<br>ернинг шўрланиш даражасининг юқорилиги;<br>қишлоқ хўжалигида пахта ва бошоқли экинларни етиштиришнинг устуворлиги, диверсификациянинг пастлиги;<br>инфратузилманинг ривожланмаганлиги ҳамда минтақа туризм салоҳиятидан етарлича фойдаланилмаслиги. |
| Имкониятлари | Хатарлар |
| тўқимачилик кластерларини ривожлантириш борасида яратилган шарт-шароитлар ва берилаётган имтиёзлар;<br>қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, балиқни қайта ишлаш, жун ва терини қайта ишлаш бўйича хом ашё базасининг мавжудлиги ҳамда ривожланганлиги;<br>ёқилғи-кимё мажмуаси бўйича саноатни ривожлантиришнинг истиқболли лойиҳаларини мавжудлиги;<br>газ, нефт, темир конларининг катта захираларининг мавжудлиги;<br>яйловларни кенгайтириш ҳамда ривожлантириш бўйича юқори салоҳиятга эгалиги;<br>қишлоқ хўжалиги  салоҳиятидан фойдаланишда инновацияларни жорий қилишга йўналтирилган давлат инвестицияларининг мавжудлиги;<br>логистика тизимини ривожлантириш учун халқаро магистралда жойлашганлиги;<br>туризм ва рекреацион салоҳиятнинг юқорилиги. | иқтисодиётнинг соҳа ва тармоқларини ривожланишининг хорижий мамлакатларга, ҳатто республиканинг бошқа ҳудудларига нисбатан ортда қолаётганлиги ва тафовутнинг юқорилиги;<br>киритилаётган хорижий инвестицияларнинг асосий қисмини қазиб олишга йўналтиирилганлиги;<br>асосий фондларнинг эскириш даражасининг юқорилиги ва уларни янгилаш коэффициентининг бошқа минтақалардан ортда қолаётганлиги;<br>Орол муаммоси, сув ресурслари танқислиги, ерларнинг шўрланиш даражасининг юқорилиги;<br>экологик  муаммолар туфайли қишлоқ хшжалиги тармоғининг инвестиция жозибадорлигининг пастлиги;<br>аҳоли даромадларининг Ўзбекистондаги минтақалар ичида энг пастлиги боис хизматларни ички имконият билан ривожлантиришнинг чекланганлиги;<br>минтақа туман ва шаҳарлари билан қишлоқлардан хизматлар ривожланишидаги юқори тафовут ва унинг янада ортиб бораётганлиги;<br>экологик муаммолар туфайли хорижий туристлар оқимининг пастлиги. |

Қорақалпоғистон Республикасининг иқтисодий салоҳиятининг яна бир муҳим мезони ижтимоий кўрсаткичлар ҳисобланади. Унинг таркибига аҳоли сони, ўсиши, иш билан бандлик ва унинг ўзгариши кабиларни киритамиз. Шунингдек, мазкур мезон таркибида таълим ва соғлиқни сақлаш ҳам таҳлил қилинади. Бунда минтақанинг республиканинг марказидан узоқлигини алоҳида эътиборга олишимиз лозим. Айниқса, соғлиқни сақлаш ва таълим инфратузилмасини ривожлантиришда давлат дастурларини қабул қилиш ҳамда татбиқ этиш зарур. Шунингдек, минтақада инновацияларни кенг татбиқ қилиш учун ҳам таълим ва унинг инфратузилмасини ривожлантиришга эътибор қаратиш лозим.

Юқоридагилар қатори иқтисодий салоҳиятни оширишда молиявий мезонни ўрни ҳам муҳим. Шу боис, молиявий имкониятларини, уни афзаллик ва камчиликларини ҳамда келгусидаги хатарларни баҳолаймиз. Бунда, молиявий мезонлар марказида инвестициялар ҳамда минтақа бюджети ҳолати муҳим ўрин тутади. Шу боис, минтақанинг молиявий салоҳиятини тадқиқ этишда маҳаллий бюджет ҳолатига ҳам эътибор қаратишимиз лозим. Чунки, маҳаллий дастурларни амалга ошириш ҳисобига янги иш ўринларини яратиш, минтақанинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмасини ривожлантириш аҳоли турмуш даражасини оширишда ҳамда иқтисодий салоҳиятни оширишда муҳим саналади.

Хулоса шуки, Қорақалпоғистон Республикаси салоҳиятининг иқтисодий, ижтимоий ва молиявий мезонларини SWOT-таҳлил асосида тадқиқ қилганимизда минтақа ўзига хос хусусиятларга эгалигини аниқландик. Жумладан, минтақанинг табиий ресурсларга бойлиги, давлат дастурларининг мавжудлиги, аҳоли орасида ёшлар қатламининг юқорилиги, қўшни давлатлар билан чегарадошлиги, хориж билан боғловчи транспорт тугунидалиги каби устуворликларга эга. Шундай бўлсада, экологик муаммолар, аҳоли зичлигининг пастлиги, иқтисодиёт диверсификация даражасининг пастлиги каби муаммолар ҳам мавжуд. Бу эса, минтақада инфратузилмани ривожлантиришга, табиий ресурслар ва хомашё базасини ҳисобга олиб минтақалараро ва туманлараро лойиҳаларга устуворлик беришни талаб этади. Шунингдек, минтақада саноат зоналарини барпо қилиш ҳисобига тўғридан-тўғри инвестицияларни ҳам рағбатлантириш зарур.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мамадалиев А. таҳрири остида “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси А.Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. – Т., 2020. - 432 б.

2. Колодийчук В.А., Колодийчук И.А. Социально-экономические аспекты категории эффективности. // Universum: экономика и юриспруденция, 2015, №2.

# IMPORTANCE OF ANGIOTENSIN II RECEPTORS AND CARDIAC GLYCOSIDES IN THE TREATMENT OF HEART FAILURE.

***Yelnazarova Laylo Nekmurodovna***
*Bukhara branch of the Republican Scientific Center for Emergency Medical Care, Republic of Uzbekistan, Bukhara*

Purpose of the study: To evaluate the effectiveness of the combined use of angiotensin II receptor blockers and cardiac glycosides in the treatment of refractory heart failure.

Materials and methods of research: We examined 65 patients with coronary heart disease, 42 of them with complicated CHF stage II B (according to NYHA FC III) and 23 of them with complicated CHF stage III (according to NYHA FC IV). All patients upon admission showed signs of atrial fibrillation on ECG and dusty refractoriness to traditional methods of treatment. All patients received combination therapy with digoxin at a daily dose of 0.50 mg, torasemide at a daily dose of 20 mg in combination with valsartan at a daily dose of 80 mg.

Results and discussion: According to the results of our study, before the start of intensive therapy in 42 patients in the first group (64.6%), the average systolic blood pressure (SBP) was 150.2 ± 7.6 mm. Hg, diastolic blood pressure (DBP) 90.6 ± 6.2 mm. rt. Art., according to echocardiography, EF was below 32%, and the potassium level was below 3.4 mmol/l, diuresis was initially 560 ml per day. In 20 patients in the second group (35.3%), the average systolic blood pressure (SBP) was 100.2 ± 5.4 mm. Hg, diastolic blood pressure (DBP) 60.6 ± 5.2 mm. rt. Art., LVEF was below 27%, and potassium level was below 3.2 mmol/l. Oligoanuria was noted; diuresis was less than 350 ml per day. The ECG of almost all patients showed a tachysystolic form of atrial fibrillation with a heart rate of 110-150 beats per minute. Against the background of the above combination therapy, the clinical condition of the patients improved over time. With repeated echocardiography, global contractility of the left ventricle increased and LVEF increased in the first group of patients by 56%, in the second group to 45%, signs of CHF decreased: swelling in the lower extremities subsided, shortness of breath and the amount of moist rales in the lungs decreased, the tachysystolic form of atrial fibrillation was transformed into a normosystolic form with a heart rate of 75-90 beats per minute.

Conclusions: Thus, it should be noted that it is the combined use of ARB blockers and cardiac glycosides valsartan in a daily dose of 80 mg against the background of traditional therapy in the treatment of refractory heart failure that will improve the clinical condition and quality of life of patients, reduce preload and afterload and total peripheral vascular resistance ( OPSS) and also prevent further complications of this disease.

# ЭКСПОРТГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ СУҒУРТАЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

***Маматқулов Хайрулла Абдикахарович***
*“Ўзагролизинг” АЖ Сирдарё вилоят филиали директори*

Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги улкан экспорт салоҳиятига эга бўлиб, бу серқуёш заминда етиштирилаётган мевалар, сабзавот ва полиз маҳсулотлари дунё бозорларида мустаҳкам ўрин эгаллаши мумкинлиги тобора ойдинлашиб бормоқда. Буни дунё мамлакатларининг Ўзбекистонда етиштирилаётган мевалар ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган талабининг ортаётганлигида кўриш мумкин. Ортиб бораётган бундай талабни эътиборга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчилар томонидан жаҳон бозорларига қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етказиб беришда агросаноат мажмуаси корхоналари ва унга хизмат кўрсатувчи корхоналар фаолиятни суғурталаш ва суғуртавий ҳимояни кенгайтириш айнан, ҳукуматимизнинг диққат марказида бўлиб келаётган стратегик масалалардан бирига айланиб бормоқда. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи аграр соҳа вакиллари ҳисобланган фермер хўжаликлари фаолиятини суғурталаш ҳукуматнинг доимий диққат марказида бўлиб келаётгани ва бу соҳада қулай имкониятлар яратилганига қарамай қуйидаги муаммолар қишлоқ хўжалигини суғурталашнинг кенгайишига тўсиқ бўлмоқда: Биринчидан, кўпчилик фермерлар ва деҳқонлар ҳанузгача қишлоқ хўжалигини суғурталаш тўғрисида ва уни амалга ошириш тартиблари, амал қилувчи меъёрий-ҳуқуқий қонунчилик ҳужжатлари ва қоидалар тўғрисида керакли иқтисодий ва ҳуқуқий билим ва кўникмаларга эга эмас; Иккинчидан, қишлоқ хўжалиги корхоналарини суғуртлаш бўйича кучли рақобат муҳити шаклланмаган ва шундай муҳитнинг шаклланишига олиб келувчи ҳукумат томонидан яратилган воситалар етарли даражада мавжуд эмас, бу эса суғурта компанияларининг зарарлилик даражаси юқори ҳисобланган қишлоқ хўжалиги суғуртасига бўлган қизиқишини таъминламаяпти;

Россия Федерацияси Марказий Осиё давлатлари, шу жумладан Ўзбекистонннинг ҳўл мевалари учун анъанавий бозор бўлиб келган. Расмий савдо статистикасига кўра, Ўзбекистондан 2014 йилда 2,8 млн. доллар миқдоридаги мева экспорт қилинган бўлса 2018 йилда Ўзбекистондан экспорт қилинган ҳўл мевалар 99 млн. долларга яқин миқдорни ташкил этди. Ушбу миқдор барча Марказий Осиё мамлакатлари томонидан Россия Федерациясига экспорт қилинган ҳўл меваларнинг 90 фоиздан ортиғини

ташкил этди. Бундан ташқари норасмий тарзда Қозоғистон орқали олиб ўтилган мевалар ҳам катта ҳажмни ташкил этади. 2014-2018 йиллар оралиғида Марказий Осиё давлатларидан Россия Федерациясига экспорт қилинган мевалар 21 марта ошган бўлиб, бунда асосий ўсиш Ўзбекистон ҳиссасига тўғри келган. Экспорт рақобатбардошлигини таҳлил қилиш натижалари шуни кўрсатдики, Хитойга мевалар экспорти бўйича Ўзбекистоннинг потенциали асосан гилос, ўрик (хўл ва қуритилган), олхўри (хўл), узум (хўл) ва грек ёнғоғи ҳисобланади. Узум, гилос ва шафтолининг экспорт потенциали йиллик 486 млн. АҚШ доллари миқдорида баҳоланиб, бундан ташқари 115 млн. АҚШ доллари миқдоридаги ўрик ва олхўри етказиб бериш имконияти мавжуд. Аммо бугунги кунда мавжуд потенциалнинг 50 фоизга яқини амалга оширилмоқда. Ҳозирда бу борадаги Ўзбекистон экспорти диверсификацияланмаган ва асосан Евроосиё иқтисодий иттифоқи мамлакатлари – Қирғизистон, Қозоғистон ва Россия Федерацияси мамлакатлари билан чегараланиб қолмоқда ва Қозоғистонга экспорт қилинган гилос ўртача 1,77 АҚШ долларига сотилмоқда. Ушбу гилоснинг нархи Хитойда 3,07 АҚШ доллари ва Кореяда 3,6 АҚШ долларига сотилмоқда. Хитой ва Корея мамлакатларига хўл мевалар экспорти бўйича баъзи қийинчиликлар мавжуд, масалан, йиғиб олинган маҳсулотни қайта ишлаш ва маркетинги, ишлаб чиқариш ҳажмининг чегараланганлиги (бозорда асосан майда ишлаб чиқарувчилар), яъни маҳсулотни бир жойда тўплашнинг қийинлиги, сифатнинг пастлиги ва моддий-техник ресурсларнинг етишмаслиги (суғориш, уруғлик ва кўчатлар етишмаслиги, ўғитлар етишмаслиги ва молиялаштириш муаммолари), ишлаб чиқариш ва сотиш борасидаги амалий тажрибаларнинг ҳамма ишлаб чиқарувчиларда етарли эмаслиги, совитиш ва сақлаш тизимларининг етишмаслиги, халқаро санитар ва фитосанитар талабларга жавоб бермаслиги, мева таркибида зарарли модаларнинг максимал даражадан ортиб кетиш ҳолатлари, экспорт билан боғлиқ мураккабликлар, логистика тизимларининг талаб даражасида эмаслиги, электрон савдоларнинг яхши ривожланмаганлиги. Ушбу масалада асосий тизим суғурта фаолияти ҳисобланади. Ўзбекистон суғурта бозорида экспортёрлар учун таклиф этилаётган суғурта хизматларининг турлари қуйидагилардан иборат: экспорт контрактлари суғуртаси, йўлдаги юклар суғуртаси, комплекс суғурта. Экспорт контрактлари суғуртаси сиёсий ва тижорат фаолияти билан боғлиқ ҳодисалар юз бериши натижасида чет эллик ҳамкор ёки унинг банкининг ёки Ўзбекистонлик экспортёр ёки унинг банкининг контракт мажбуриятларини экспорт жўнатмаси амалга ошгунича ёки жўнатма амалга ошгандан кейин бажара олмаслик ҳолатларидан

суғурталашдан иборат. Ташқи савдо юклари суғуртаси ушбу юкни экспортёрдан импортёргача етказиб бериш жараёнида унинг қисман йўқотилиши, зарарланиши ёки тўлиқ йўқотилиши натижасида кўрилган зарарни қоплаш, шу билан бирга, уни ташиш, сақлаш, ортиш-тушириш жараёнларида юзага келадиган зарарларни қоплаб беришни кўзда тутади. Ўзбекистон Республикасида агросуғурта хизматини ривожлантириш орқали қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштирувчиларнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлашда қуйидагиларни тавсия сифатида келтириб ўтмоқчимиз:

— қишлоқ хўжалигида юз бераётган турли табиий ҳодиса ва табиий офатларни ҳудудлар хусусиятидан келиб чиқиб ўрганиш ҳамда қишлоқ хўжалигини суғурталаш тарифларини ҳудудий ёндашув асосида шакллантириш;

— агросаноат мажмуасининг марказий бўғини сифатида фақат фермер хўжаликлари томонидан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш жараёнидаги турли рисклардан суғурталаш ишлари амалга оширилиб келинади, бироқ томорқа хўжаликларини суғурталаш ишлари орқада қолмоқда, шу сабабдан томорқа хўжаликлари фаолиятини суғурталашга бўлган эътиборни ошириш, бу борада янги суғурта маҳсулотлари ва шунга мос суғурта тарифлари ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқдир;

— қишлоқ хўжалиги корхоналари билан “Ўзагросуғурта” АЖ ўртасидаги суғурта шартномалари ҳажмини кенгайтириш ва уларни замонавий тарзда “Online” тузиш бўйича мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш;

— фермер хўжаликлари раҳбар ходимларининг “суғурта” тўғрисидаги иқтисодий ва ҳуқуқий саводхонлигини ошириш;

— Тижоратга асосланган суғурта компаниялари томонидан таклиф этилаётган тариф ставаклари нисбатан юқори, фаолият шаффофлиги таъминланмаган ҳамда суғурта компанияларига бўлган ишонч паст даражада. Қишлоқ хўжалиги корхоналари ўртасида улар фаолиятини суғурталашга ихтисослашган нотижорат шаклидаги суғурта жамиятларини ташкил этиш юқорида келтирилган омилларни бартараф этади.

— Ўзбекистон қишлоқ хўжалик корхоналари ҳамда шахсий томорқа хўжаликлари томонидан хўл ва қуритилган мевалар экспортининг сезиларли даражада ошиб бораётганлиги ушбу соҳани талаб даражасидаги суғурта хизматлари билан таъминлашга бўлган эҳтиёжни орттирмоқда. Ушбу эҳтиёжни таъминлашда давлат-хусусий шерикчилигига асосланган янги суғурта маҳсулотларини ишлаб чиқиш зарур.

## Адабиётлар/Литература/Reference


1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 1 апрелдаги “Деҳқон хўжаликлари тўғрисида”ги ЎРҚ-680-сон Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган Стратегияси” тўғрисидаги ПФ-5853-сонли Фармони.
3. Кариев Х.Х., Васильева Н.П. (2004). Состояние и развитие страхового рынка Узбекистана//Страховое дело.№10 -с. 60.
4. Задорожная М.В., Решетникова Н.В. (2017). Зарубежный опыт управления рисками в агропродовольственном комплексе: роль государства.


# YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI


***Qahhorova Nodira Mirzapayasovna***

*TDSI tyuteri*


Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag‘rikenglik, yuksak ma’- naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e’zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir. Samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yoshlar orasida turli illatlarning oldini olishda, bugungi kunning ma’naviy yetuk yoshlarini tarbiyalashda hal qiluvchi vazifa hisoblanadi.Global axborot almashuv davri shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalikdan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Bugungi kunda o‘quvchi ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga “Ta’lim-tarbiya masalasi har doim kun tar tibidagi masalalardan biri bo‘lib kelgan va shunday vazifa bo‘lib qoladi. Chunki yangi avlodlar tug‘iladi, hayotda kamol topish uchun ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat,

or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Mahallaning vazifalari:

ta’lim muassasalari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashib, oqilona yechimlar topishda faollik ko‘rsatish; farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta’sirini o‘tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko‘rish; yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta’sirini to‘g‘ri anglab yetishida ularga ota-onalar orqali ta’sir ko‘rsatish, ulug‘ ajdodlarimizning tarbiyaviy o‘gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish; mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olishdan iborat.

Ta’lim muassasalarining vazifalari:

bolalarga ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborotkommunikatsiya vositalaridan o‘rinli foydalanishga shart-sharoit yaratish; yoshlarni mustakil fikrlashga o‘rgatish, ularni istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish. Hamkorlik ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy tushunchalar berish va bu tadbirlarga tibbiyot xodimlari, ibratli oilalarni jalb qilish (yosh oilalarning oilaviy sharoitlarini o‘rganib chiqish va doimo ma’naviy tomondan qo‘llab- quvvatlash). Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo‘lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o‘ziga o‘zi xizmat qilish, qo‘shiq va raqsga tushish, mustaqil ravishda bilim olish, maktabga tayyorlash guruhlari, «Yakshanbalik maktablari» ishini tashkil qilish.Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy shakllanishini ta’minlash, ularning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, ularda o‘z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rgatish, atrof-muhitga ongli munosabat, vatanlarvarlikni shakllantirish. To‘rtinchi bosqich. O‘smirlarning (11-16 yosh) qiziqishi, bilimga chanqoqligi va aql- zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo‘lishini ta’minlash, turli kasblarga yo‘naltirish, jamoatchilik orasida o‘z o‘rnini topa olishiga ko‘maklashish, o‘z xatti-harakatlari uchun qonun, jamoatchilik va otaona oldida javobgarlik tuyg‘usini

shakllantirish. Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, ta’lim olishlari, tanlagan kasb boʻyicha ish bilan ta’minlash, iqtisodiy mustaqil boʻlishlari uchun shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etish, mustaqil oila qurishda yoʻllanmalar berish. Zamon ma’naviy tahdid va xatarlarni toʻgʻri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu holatda o`quvchi yoshlarning ma`naviy kamoloti hamkorlikdagi harakatni talab etmoqda. Ushbu jarayonda mahallaning o`rni beqiyos ekanligi, ular bilan doimiy aloqada ish olib boorish lozimligi kechiktirib bo`lmas amaliyotga aylandi desak mubolag`a bo`lmaydi.

**Adabiyotlar ro`yxati**


1. Quronov M. Bolam baxtli boʻlsin, desangiz... - T.: «Ma’naviyat», 2013.
2. Shodmonova Sh., Xoshimova M., Fayzullaeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. Oʻquv qoʻllanma. – T.: TDIU, 2017.
3. Zairov, A., & Muhammadieva, O. (2021). YANGILANAYOTGAN
4. OʻZBEKISTONDA JAMIYAT ISLOHOTLAR TASHABBUSKORI. Scientific progress, 2(7), 209-215.
5. www.natlib.uz
6. www. Ziyonet.uz


## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI


***Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o’g’li***
*Mustaqil tadqiqotchi*
*Tel: +998 94 277-88-98*
*e-mail: mbobur313@gmail.com*



**Annotasiya.** mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish holati, YaIM, eksport va sanoat kabi makroiqtisodiyot ko’rsatkichlaridagi ulushi tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo’llari bo’yicha takliflar ilgari so’rilgan.



**Kalit so’zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport, sanoat, o’zini-o’zi band qilish, servis, bozor infratuzilmasi.



**Аннотация.** В данной статье анализируется состояние развития малого бизнеса и частного предпринимательства, его удельный вес в таких макроэкономических показателях, как ВВП, экспорт и промышленность. Также были запрошены предложения по основным направлениям развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

**Ключевые слова:** малый бизнес, частное предпринимательство, экспорт, промышленность, самозанятость, сервис, рыночная инфраструктура.

**Abstract.** This article analyzes the state of development of small business and private entrepreneurship, its share in macroeconomic indicators such as GDP, export and industry. Also, proposals on the main ways of developing small business and private entrepreneurship were requested.

**Key words:** small business, private entrepreneurship, export, industry, selfemployment, service, market infrastructure.

Bugungi globallashuv va raqamli integratsiya sharoitida O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko‘maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub’ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste’mol tovarlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko‘rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Mamlakatimizda qisqa davrda to‘plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini isbotladi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshishi hamda yuqori makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishimizda kichik biznes muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko’ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og’ir bo’lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo’l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo’yilgan. Mamlakatimiz hududlarida

kambag’allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o’zini-o’zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan asosiy ko‘rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta’minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya’ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo‘lgan tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi. Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta’minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;
- aholining joriy daromadlari va jamg‘armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko‘tarilishiga zamin yaratadi;
- sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag‘larining bir me’yorda bo‘lishini ta’minlaydi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma’naviytarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma’naviytarbiyaviy va madaniy sohalarni rivojlanishiga ham o‘z hissasini

qo‘shadi. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirishning ma’naviy-tarbiyaviy va madaniy sabablari:

- an’anaviy xalq amaliy san’ati va badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko‘maklashish;
- sport va sog‘lomlashtirish maskanlarini barpo etish;
- xususiy o‘quv muassasalarini ochish;
- obodonlashtirish, ko‘rkamlashtirish va ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish;
- bolalar, o‘smirlar hamda yoshlar lagerlarini tashkil qilish.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkin, milliy iqtisodiyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag’allikni qisqartirish, o’zini-o’zi ish bilan bandligini ta’minlash, mahallalarda xizmat ko’rsatish sohalarini rivojlantirish kabilarga erishishni ta’minlaydi. Mahaliy Institutlarning samaradorligi rolini oshirish – tadbirkorlarga yangi korxona yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga inkoniyat beriishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
2. Kotler, P. (1998) Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control. 9th Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River.
3. Kholmamatov Diyor Haqberdievich, Boyjigitov Sanjarbek Komiljon ugli. Marketing Problems In The Development Of Export Activities Of Small Business Entities. International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS), 31- 39 pp, 2020

# KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

***Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o'g'li***
*Mustaqil tadqiqotchi*
*Tel: +998 94 277-88-98*
*e-mail: mbobur313@gmail.com*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish holati, xususan turizm sohasida samaradorlikni oshirish, sohadagi muammo va kamchiliklar o'rganish. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'llari bo'yicha takliflar ilgari so'rilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, turizm, turizm tashkilotlari, eksport, sanoat, o'zini-o'zi band qilish, servis, bozor infratuzilmasi.

**Аннотация**. В данной статье рассматривается состояние развития малого бизнеса и частного предпринимательства, особенности повышения эффективности в сфере туризма, проблемы и недостатки в этой сфере. Также были запрошены предложения по основным путям развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

**Ключевые слова:** малый бизнес, частное предпринимательство, туризм, туристические организации, экспорт, промышленность, самозанятость, сервис, рыночная инфраструктура.

**Abstract.** This article examines the state of development of small business and private entrepreneurship, especially increasing efficiency in the field of tourism, problems and shortcomings in the field. Also, proposals on the main ways of developing small business and private entrepreneurship were requested.

**Key words:** small business, private entrepreneurship, tourism, tourism organizations, export, industry, self-employment, service, market infrastructure.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlar sohasida olib borilayotgan islohotlar sharoitida turistik korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri sanaladi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilma obyektlarini modernizatsiyalash ushbu soha taraqqiyoti bilan uyg'un kechadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston iqtisodiyoti strategik sektorlardan biri sifatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu yesa mintaqalarni jadal rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, shuningdek, investitsiya jalb qilishni yaxshilash imkonini beradi.

Turizm sohasi subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotiga ta'sir etayotgan omillar bo'yicha o'tkazilgan tahlillarga ko'ra

respublikamizda turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko‘rsatdi. Bu boradagi ana shunday dolzarb muammolardan biri bo‘lib, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi hisoblanadi.

Respublikamizda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasining past ekanligi, turizm sohasidagi investitsiyalarning tashabbuskorlarida pul oqimining zaif ekanligi moliyalashtirish manbalari yetishmasligi muammosini chuqurlashishiga xizmat qilmoqda.

Korporativ moliyada kapitalning real bahosi mablag‘larni jalb qilish uchun sarf qilinadigan vaqt va risk omillarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, e’tibor qaratish talab etiladigan darajada murakkabliklar, aniqlik darajasini pasaytiruvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjudligiga qaramasdan kapital yoki uning alohida komponentlari bahosini aniqlash, hech bo‘lmaganda taxminiy bahosini belgilash muhimdir.

2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko’ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og’ir bo’lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo’l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo’yilgan. Mamlakatimiz hududlarida kambag’allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o’zini-o’zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan

foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolardan yana biri – bu investitsiya loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqarish amaliyotini takomillashmaganligidir.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarishda turistik majmualar tarkibiy qisimlariga yondashuvlarning mavjud iqtisodiy va tashkiliy salohiyatni hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish soha rivojlanishining hozirgi bosqichida katta ahamiyatga ega. Bu turistik mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turistik mahsulotlar va hismatlar turini yaratish, turistik majmualar korxonalari o‘rtasida gorizontal iqtisodiy aloqalar darajasini kengaytirish, turizmda iqtisodiy oqimlarning intensivligini oshirish va soha faoliyati bilan bog‘liq tarmoqlarning zaruriy darajadagi integratsiyasi bilan bog‘liqdir.

Fikrimizcha, turistik majmualar faoliyatini boshqaruv amaliyotida rivojlanish xolatini baholovchi usullardan foydalanishda turistik majmualarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda boshqaruv strategiyalari tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – turistik majmua faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – turistik majmualarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, turistik majmuaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
2. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
3. Tishukov Yu.V. Potrebitel na rinke turisticheskix uslug. –Rostov-na-Donu: Feniks, 2007.4-bet.
4. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni bosh arish. O‘ uv o‘llanma. –T.: O‘ ituvchi, 2003

# ГЕРОНТ АХОЛИ ПОПУЛЯЦИЯСИДА КОМОРБИД КАСАЛЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ

***Сирожидинов Комилжон Бобожонович***
*Андижон давлат тиббиёт институти*

Коморбид касалликлар ёшга боғлиқ холда ортиб боради ва полипрагмазия хавфини кескин оширади, натижада айниқса геронт ахоли учун иккинчи хатар – фармакоэпидимологик омил пайдо бўлади. Хусусан, қария ёшида бўлган ўлимидан олдин 5 йил давомида 10 та ва ундан ортиқ кунига дори истъмол қиладиганларни хиссаси 30% дан то 47 % гача ортган (Morin L. et. al., 2017). Айрим хорижий тадқиқотларда тасдиқланишича 5 та оғир бўлмаган касалликлар билан мижозлар кунига 11 тадан кам бўлмаган сонда дори қабул қилишади ёки халқаро тавсияларда шундай талаб қўйилган (Hughes L. et. al., 2013). Бундай амалиёт шифохона шароитида даволанаётганларда дориларни ножўя таъсирлари келиб чиқишини 40% гача етиб оширади (Passarelli M. et. al., 2005). Коморбид касалликларни асоратланиб кечиши частотасини ошишига шароит туғдиради ёки иккинчи занжирлашган салбий холат келиб чиқади: коморбид касалликлар мустақил даволанишга тўсқинликлар келтириб чиқаради ва беморларда даволанишга бўлган ихлосмандликни пасайтиради (Foley L. et. al., 2021).

Фармакоэпидимологик тадқиқотларда ушбу хулосалар тасдиқланган. Бронхообструктив касалликлар билан беморларда антигипертензив препаратларни қабул қилиш 57%га, депрессия билан мижозларда-50%га, гастроинтестиналь бузилишларда-41%га, остеоартрозларда-37%га, депрессия билан мижозларда – 30% га, гастроинтестиналь бузилишларда – 41% га, остеоартрозда – 37% га камаяди (Wand P. et. al., 2005). Ёки беморга қанча кўп дорили препаратлар буюрилган бўлса, шунча давога нисбатан ихлос қайтади ва яна шу сабабли дори сони камайтирилса коморбид касалликларни таҳдиди шунча ортиб боради (Tinetti M. et. al., 2019; Chordhry N. et. al., 2011; Белялов Ф.И., 2022).

Коморбид касалликлар иқтисодий йўқотишларни кескин ошириб соғлиқни сақлашга жиддий муаммо келтириб чиқаради, чунки бир неча касалликларни даволаш харажатларини оширишни талаб қилади. Чунончи, айрим мамалакатларда суғурта харажатларининг 80% - ти коморбид касалликлари бўлган 65 ёшдан ошган мижозларга тўғри келади (Wollf J. et. al., 2002).

Кексаларда коморбидлик/мультиморбидлик ва полипрагмазия (5 та ва ундан ортиқ препаратларни узоқ муддат давомида қабул қилиш) муаммосини

янада долзарблашиб бориш тенденциясини борлиги Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) томонидан огоҳлантирилмоқда. ЖССТ хулосасига кўра бу, – кекса ёшлилар хиссасини ахоли орасида ошиб бориши билан боғлиқ юз беради: 1) прогнозга кўра кекса ёшлилар йилига 2 %га ошиб боради; 2) ≥65 ёшдан ошганлар дунё бўйича 2030 йилга бориб 8%га, 2050 йилгача эса – деярли 16% га ортиши қўшилмоқда; 3) Европа мамлакатларида эса бундай ўсиш 40% га, «кексаларни энг кексалари»ни эса (80-85 ёшдан ошган шахслар) – 2060 йилга бориб 10-15% га ортиши мумкин (Doi X. et. al., 2016); 4) ўхшаш тенденция хамдўстлик мамлакатларида, жумладан, Ўзбекистонда хам кузатилмоқда. Чунончи, туғиш ёшидаги ўзбек аёллари популяциясида махсус олиб борилган эпидемиологик тадқиқотлар бўйича коморбид касалликлар юқори тарқалиш частотаси билан тасдиқланади. Деярли хар иккинчи аёлда мультиморбидлик кузатилади [Назарова Г. ва б.қ.; 2016]. 5) узоқ давом этувчи морбидлик ва мультиморбидлик ўлим олдидан келади (Singat N.S. et. al., 2017; Yan M. et. al., 2020; Fleg J.L. et. al., 2012; Seals D.R. et. al., 2011).

Бошқа томондан геронтокоморбидлик тахлил қилинса кекса ва қария ёшдаги мижозлар – ёшларда ёки ўрта ёшдагилардан кескин тафовутланишади: турли аъзолар ва тизимлар томонидан функционал хамда морфологик ўзгаришларни мавжудлиги билан, касалликларни асосан сурункали кечиши билан, уларнинг клиник кўринишларида ноанъанавийликни устуворлиги билан, герматрик синдромларни бўлишлилиги билан, коморбидлик ва мультиморбидликни иштироки билан ва яна, ижтимоий – руҳий дезадаптация билан. Шу хусусиятлардан келиб чиқиб кекса ва албатта, геронт ёшидаги ахолида эрта ташхислаш, фармакотерапия ва профилактика муаммолари айниқса қуйидаги кекса ёш гуруҳларида келиб чиқади ва/ёки то хозиргача сақланиб қолинаётганлиги тадқиқотчилар хамда ҳалқаро илмий жамиятлар томонидан эътироф этилади: кекса ёш – 60 дан 75 ёшгача; қариялик ёши – 75 дан 90 га; узоқ умр кўрувчилар ёши – 90 ёш ва ундан юқори; youngest – old («ёш» кексалар) – 65-74 ёш; middle – old («ўрта» кексалар) – 75-84 ёш; oldest – old («энг кексалар») – 85 ёш ва ундан юқори; саксонёшлилар – 80-89 ёш; тўқсонёшлилар – 90-99 ёш; яримсупер юзёшлилар (semi - supercentenarians) – 105-109 ёшлилар; супур юзёшлилар (super - centenarians) – 110 ёшдан ўтганлар (Aetero – vitz S.S. et. al., 2012). Шундай экан кекса ва геронт ёш коморбид касалликларни кучли ва мустақил хатар омили хисобланади.

# ГЕРОНТ АҲОЛИ ПОПУЛЯЦИЯСИДА КОМОРБИД КАСАЛЛИКЛАР ЭПИДЕМИОЛОГИЯСИ

***Сирожидинов Комилжон Бобожонович***
*Андижон давлат тиббиёт институти*

Умр кўришни узайиши коморбид касалликларни, бир вактда 2 тадан кам бўлмаган касалликлари бўлган ахоли сонини, ортишига олиб келди. Коморбидлилик турли аъзолар функциясини камайишига, когнитив бузулишлар ва кексалик учун хос бўлган синдромларни келиб чикишига, ногиронлик ва барвақт ўлим кўпайишига олиб келувчи хатар омили бўлиб хисобланади (С.К. Зырянов ва б.қ., 2023; Horodinschi R.N. et. al., 2019). Кекса ахолида нисбатан кўп учрайдиган коморбид касалликларни бўлиши умр кўришни 12 йилдан 15 йилгача етиб қисқариши билан ассоцияцияланади (Marshall B. et. al ., 2020) .

Коморбид касалликлар кексаларда тез-тез учрайди. Мавжуд тадқиқотларнинг маълумотларига кўра кексаларда (60-74 ёшлилар) 49% тарқалиш частотаси билан тасдиқланади (Zhu H. et. al., 2019) ва яқин йилларда уларни ўсиб боришини давом этиши башоратланади. Чунончи 2035 йилга бориб коморбидлик билан яшовчи аҳоли сонини 86,4% га ортиши прогноз қилинган (Peng R. et. al., 2019).

Кексалик ҳам хатар омили сифатида кўрилади ва у кўпчилик коморбидлиликлар билан (ноинфекцион сурункали касалликларни асосан таркибига киритиб) кучли ассоциирланади. Лекин бундай ассоциацияланишларни прогнози ва сабаблари геронт ахолида тўлиқ ўрганилмаган.

Коморбид касалликларни бошланиш даври 10-20 йил ўтиб кўпинча одатда асоратлар келиб чиқади. Шундай экан, касаллик бошланиши ва асоратларни келиб чиқиши орасидаги давр скрининг (эпидемиология), профилактика ва даволаш учун жуда муҳимдир. Барвақт аниқлаш ва даволашни бу даврда амалга ошириш билан биринчи асосий касалликни, коморбидлик хавфини камайтириш мумкин ва/ёки унинг авжланиб боришини секинлаштириш мумкин бўлади.

Нечта геронт – ахоли Ўзбекистон шароитида коморбид касалликларга эга?, Хар бир ахолида касалликни коморбидликдаги хиссаси қанча бўлади?, Коморбидликни гентерли фарқлари Ўзбекистон шароитида қандай ифодаланади?, геронт ахоли ўлимида коморбидликни хиссаси қанчалик улкан? каби саволларга жавоб то хозиргача фанда очиқ қолган ёки Ўзбекистон шароитида – жавоб йўқ. Буларни аниқ англаб олиш учун эса

эпидемиологик тадқиқотлар керак бўлади, қайсиларки профилактика тадбирлари ва дастурларини коморбидликка нисбатан ишлаб чиқиб бериш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Лекин то хозиргача геронт ахоли популяциясида, Ўзбекистон шароитида, бундай мазмунли эпидемиологик тадқиқотлар ўтказилмаган. Юқорида зикр этилган масалалар эпидемиологик тадқиқот учун объект сифатида олиниб ўрганилмаган ва/ёки шундай мохиятли текширувларга эҳтиёж хамда зарурат туғилган.

Шулардан келиб чиқиб мазкур диссертация мавзуси режалаштирилди.

Тадқиқот мақсади – коморбид касалликларни ва уларнинг хатар омилларини тарқалишини Ўзбекистоннинг турли минтақаларида истиқомат қилувчи геронт ахоли популяциясида ўрганиш, самарали ташхисоти ва профилактикаси усулларини ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқотнинг асосий вазифалари:

Коморбид касалликларнинг тарқалишини Ўзбекистоннинг геронт ахолисида ўрганиш ва қиёслаб баҳолаш.

Ўзбекистоннинг турли минтақаларини геронт ёшдаги ахолиси орасида коморбид касалликларнинг асосий хатар омилларини ўрганиш ва эпидемиологик хос хусусиятларини аниқлаш.

Ўзбекистоннинг геронт популяциясида коморбид касалликларни гендерли жиҳатларини ўрганиш ва аниқлаш.

Ўзбекистоннинг турли минтақаларини геронт ёшдаги ахоли популяциясида коморбид касалликларнинг энг етакчи хатар омилларини ўрганиш ва аниқлаш, уларнинг коморбидлик билан боғлиқлари даражасини баҳолаш.

Ўзбекистоннинг турли минтақаларини қишлоқ ва шахар геронт ахолисида коморбид касалликларининг хамда уларнинг хатар омилларини эпидемиологик тавсифларини ўрганиш ва аниқлаш.

Ўзбекистоннинг турли минтақаларида истиқомат қилувчи геронт оборигeн ва келгинди ахолиси популяциясида коморбид касалликларининг эпидемиологик хусусиятларини қиёслаб ўрганиш ва аниқлаш.

Геронт ахоли популяциясида ёшга боғлиқ холда коморбид касалликларни шаклланишининг эпидемиологик механизмлари ва клиник кечишининг хос тавсифларини ўрганиш хамда аниқлаш.

Геронт ахолида коморбид касалликларни ўрганиш ва барвақт аниқлашнинг эпидемиологик тизимини ишлаб чиқиш хамда амалий фаолият учун жорий қилиш.

Ўзбекистоннинг турли минтақаларини геронт ахолиси учун коморбид касалликларни профилактикаси моделини ишлаб чиқиш ва амалиётга тавсия этиш.

Геронт ахолида коморбидликни прогностик шкалаларини ишлаб чиқиш ва амалий фаолият учун тақдим этиш.

## THE ANALYSIS OF THE CHIEF CHARACTER OF “CITADEL”

***Djumaniyazova Roza Bahodirovna***
*Uzbekistan State World Languages University*
*English Literature (Study Literature)*
*2 nd year student of Master's.*

**Abstract.** This article analyses the chief character of the novel called “Citadel’ by Cronin. This novel was published almost 70 years ago at a time when medical practice involved hardly any laboratory tests, x-ray films, or specialists. The vivid characters, dramatic plot, and moral lessons presented in Cronin’s novel make it as timely and readable today as it must have been in the 1930s.

**Key words:** medical training, idealistic, measles, miners, x-ray films, protagonist.

The Citadel is particularly pertinent to us in Kaiser Permanente because Cronin’s protagonist begins his career in a health care system similar to our own but which existed in Wales at the beginning of the 20th century.

The Citadel tells the story of Andrew Manson, an idealistic young Scottish doctor, modeled closely on Cronin himself. Manson takes up a post as a GP assistant ... The story of her struggles to make him realize his mistakes. This is a book about medical ethics and what it means to be a doctor. It is a great read and all. The Citadel is the morality tale of the initially idealistic Scottish Doctor Andrew Manson who starts off working in the mining towns of the South Wales valleys where he makes liberal use of explosives to remedy public health nuisances before descending into the vanity fair of fashionable London doctors, who specialize...

The Citadel follows the life of Andrew Manson, a young and idealistic Scottish doctor, as he navigates the challenges of practicing medicine across interwar Wales and England. [O’Mahoney, ‘A. J. Cronin and The Citadel: did a work of fiction contribute to the foundation of the NHS?’, in J. Roy Coll Physicians Edinb 2012, 42: 172–8]

Manson finds that his medical training is inadequate, that as a GP he has to be family doctor, diagnostician, surgeon, dispenser, anesthetist, that other doctors are often incompetent, that local conditions are unsanitary resulting in an outbreak of

cholera in the village, and that fee structures are open to abuse. When he moves to be an assistant doctor with the Aberalaw Medical Aid Society, for instance, he finds that all the assistant doctors have to pay one fifth of their fees to the suave Doctor Llewellyn, the head physician and surgeon. [ O'Mahoney, 'A. J. Cronin and The Citadel: did a work of fiction contribute to the foundation of the NHS?', in J. Roy Coll Physicians Edinb 2012, 42: 172–8]

Manson is very idealistic and principled at the start of his career. One can sympathize with his refusal to issue sick certificates to miners who are quite fit to work, with his run-in with the district nurse and her antiquated remedies which do more harm than good and his desire to overcome resistance to vaccination but when it comes to showing up another doctor for mis-diagnosis and to reviving a stillborn baby that others have given up on he comes across as rather sanctimonious. [ O'Mahoney, 'A. J. Cronin and The Citadel: did a work of fiction contribute to the foundation of the NHS?', in J. Roy Coll Physicians Edinb 2012, 42: 172–8]

Her unstinting support enables Manson to travel to London, successfully defend his research paper, and qualify for the advanced degree—an amazing set of accomplishments for a graduate of an undistinguished medical school, practicing in a small town. In The Citadel, Cronin preaches many lessons: hard work, conscientious patient care, and intellectual curiosity are the keys to success in medicine; knowledge and integrity count for much more in life than money; doctors need continuing education to remain current and to serve their patients well. In each of Manson's professional endeavors, he befriends a colorful colleague whose lack of material success belies a keen intellect and great personal integrity. These "diamonds in the rough" reemerge later in Manson's life to help him through professional and personal difficulties. Again in his second position, Manson clashes with the powers that be. He resigns his provincial post and takes Christine off to London, where he hopes to become a specialist in lung disease and become an attending physician at a respected London hospital. He I Seth Kivnick, MD, is a surgeon at the SCPMG West Los Angeles Medical Center. [A. J. Cronin and J. A. Fisher, "A. J. Cronin--physician, author, Boston: Twayne Publishers, 1985]

The challenges Manson faces and the ethical issues Cronin presents are essentially the same ones each of us in medicine faces today.

As his career progresses , Manson becomes interested in the relationship between the coal dust in the mines and lung disease but this results in even greater disillusionment; having completed his paper and submitted it successfully for an MD, he is recruited by the government's Coal and Metalliferous Mines Fatigue

Board. He is dismayed at the inertia of the Civil Service and at the way he is channeled into the fatuous personal projects of the Board Directors rather than being allowed to continue his research and at the way one of the Board Directors gets the recognition for his (Manson's) paper on lung disease.[ A. J. Cronin and J. A. Fisher, "A. J. Cronin--physician, author, Boston: Twayne Publishers, 1985]

The Citadel a tale of a mining company doctor's struggle to balance scientific integrity with social obligations, helped to promote the establishment of the National Health Service in the United Kingdom by exposing the inequity and incompetence of medical practice at the time. In the novel, Cronin advocated a free public health service to defeat the wiles of doctors who "raised guinea-snatching and the bamboozling of patients to an art form." The author quickly made enemies in the medical profession, and there was a concerted effort by one group of specialists to get "The Citadel" banned. Cronin's novel, which became the highest-selling book ever published by Gollancz, informed the public about corruption in the medical system, which eventually led to reform. Not only were the author's pioneering ideas instrumental in creating the NHS, but according to the historian Raphael Samuel, the popularity of Cronin's novels played a major role in the Labour Party's landslide victory in 1945. [ Samuel, R. "North and South: A Year in a Mining Village". London Review of Books. 17. 3–6. 22 June 1995].

**References**


1. J. Cronin and J. A. Fisher, "A. J. Cronin--physician, author, Boston: Twayne Publishers, 1985.
2. O'Mahoney, 'A. J. Cronin and The Citadel: did a work of fiction contribute to the foundation of the NHS?', in J. Roy Coll Physicians Edinb 2012, 42:
3. Samuel, R. "North and South: A Year in a Mining Village". London Review of Books. 17. 3–6. 22 June 1995.

A. J. Cronin, author of 'Citadel' and 'Keys of the Kingdom', dies". New York Times. 10 January 1981. Retrieved 22 May 2021.

4. Salwak, Dale A.J. Cronin. Boston: Twayne Publishers. p. 10. ISBN 978-0-8057-6884-8. 1985.

A. J. Cronin, Adventures in Two Worlds, Chapter 40 "Why I Believe in God," in The Road to Damascus. Volume IV: Roads to Rome, edited by John O'Brien. London: Pinnacle Books, 1955, pp. 11–18.

5. K. C. Calman, Medical Education: Past Present and Future OUP, 2007.
6. K.C. Calman et al., 'Literature and Medicine', in Medical Education, 1988, 22: 265–69.
7. "Booksellers Give Prize to 'Citadel': Cronin's Work About Doctors Their Favorite–'Mme. Curie' Gets Non-Fiction Award TWO OTHERS WIN

HONORS Fadiman Is 'Not Interested' in What Pulitzer Committee Thinks of Selections", The New York Times, 2 March 1938, page 14. ProQuest. Historical Newspapers The New York Times (1851–2007).
8. Gallup Jr., Alec M. The Gallup Poll Cumulative Index: Public Opinion, 1935–1997, p. 135, Rowman & Littlefield Publishers. 2009

## ARTEMIYANIŃ BAZI PARAMETRLERI HÁM BIOLOGIK QÁSIYETLERI

***Kaliknazarova A.***
*QAXAI Gidrobiologiya qánigeligi tayanısh doktorantı*

Artemiya-shorlı suwda jasaytuǵın shayantárizlilerdiń eń kishi túrlerinen esaplanıp, shorlanıw dárejesi keń ortalıqlarda jasay aladı. Ol bir neshe payızdan 250% ǵa shekem bolıwı múmkin. Tábiyatta artemiya populyaciyası batpaqlıqlarda, shor kóllerde yáki shor suw háwizlerine ushırasadı. Olar jıllar dawamında shorlanıwdı joqarı dárejede uslap turıwı múmkin. Artemiya 1930-jıllardıń basında shayanlar, balıqlar hám shayantárizliler sıyaqlı akvakulturanıń áhmiyetli túrleri ushın toyımlı azıq-awqat sıpatında belgili bolǵan. [1; -P. 17]

Artemiya ózine tán kóbeyiw ózgesheligi menen basqa akvakultura azıqlıqlarınan ajıralıp turadı. Máyek kletkaları qarın boslıǵındaǵı eki naysha tárizli máyekliginde rawajlanadı. Sırtqı ortalıq sharayatları artemiya rawajlanıwı ushın optimal halatta bolsa bul máyeklerden suwda erkin júzip júriwshi naupliler, al kerisinshe qolaysız sharayatta bolsa bul máyeklerden sista yaǵnıy máyek payda boladı. [4; -P. 31]

Artemiya sistalarınıń tuwılıw payızı olardıń sıpat kórsetkishin belgilewshi hám dunyanıń akvakultura bazarında satıw imkanıyatın beriwshi tiykarǵı parametri esaplanadi. Standart usılda sistalardıń tuwılıw payızın anıqlaw maqsetinde alımlar tárepinen tájiriybeler ótkerilgen. [5; -P. 320], [2; -C. 25]. 2003-2005 jılları qıs máwsiminde Aral teńizi jaǵalawlarınan toplanǵan sistalar ximiyalıq usıl, yaǵnıy vodorod pereksi járdeminde diapauza halatınan shıǵarılıp, suwdıń duzlılıq dárejesi 32g/l hám temperaturası 24° C ortalıǵında kultuvaciya qılınǵanda tuwılıw payızı nátiyjeleri 24 saattan keyin 84% hám 48 saattan keyin 92% bolıp jaqsı kórsetkishlerge iye bolǵan [3; 69-102]-p.

Biz ÓzR IA Qaraqalpaqstan bólimi, Haywanlar ekologiyası laboratoriyasında standart usıllardan paydalanǵan halda 2018-jılı Aral teńizinen alıp kelingen diapauza dáwirindegi artemia sistalarınan alınǵan artemiyanıń bazı parametrleri hám biologik qásiyetlerin úyrenip shıqtıq. Bunda 100 dana sista diametri úyrenildi,

dekopsulyaciya islenip salıstırıldı. Bunda diametri ortasha 244 mkm,dekopsulyaciya qılınǵannan keyin 232 mkm ekenligi anıqlandı.

Balıq lishinkaları ushın ekzogen awqatlanıwǵa ótiwinde azıq-awqat obiekti sıpatında 0,4-0,6 mm kólemge iye azıqlıq talap etiledi. Aral artemiyası naupliniń 24 saattan keyin birinshi basqıshında ólshengen uzınlıq ortasha 0.5 mm. Bul balıq ushın júdá qolaylı ólshem esaplanadı. Solay etip Aral artemiyası sistalarınıń kólemi dunya bazarında talap etiletuǵın ólshemge tuwra keledi yaǵnıy 250 mikronnan tómen ólshemge iye. Dunyada eń kóp talap etiletuǵın standart sistalar diametri 220-230 mikrondı quraydı, úlkenlewleri bolsa Eranda bolıp, onıń diametri 260-287 mikron[1; 442-454-p], Xıtayda – 233-280 mkm [6; 77-78-p].

Aral teńizi artemiya sistaların jıynaw hám paydalanıw, kóleminiń kishiligi, jumsaqlıǵı hám joqarı azıqlıq quramı sebepli naupli basqıshındaǵı artemiyalardı azıqlıq sıpatında kópshilik balıq túrleri shabaqlarına tirishiliginiń birinshi kúninen-aq paydalanıw imkaniyatın beredi. Ásirese artemiyanıń bahalılıǵı onıń sistaları bolıp tabıladı. Sistalar uzaq waqıt dawamında jasawshań bolıp, hár qanday waqıtta naupli yáki dekopsulyaciyalanǵan formada kóp muǵdarda baslanǵısh azıqlıq alıw imkaniyatın beredi.

## Paydalanilǵan adebiyatlar

1. Abatzopoulos T. J., Baxevanis A. D., Triantaphyllidis G. V., Criel G., Pador E. L., Van Stappen G., Sorgeloos P. Quality evaluation of Artemia urmiana Giinther (Urmia Lake, Iran) with special emphasis on its particular cyst characteristics (International Study on Artemia LXIX) // Aquaculture 254 – 2006. 442-454-p.
2. Литвиненко А.И, Литвиненко Л. И., Соловов В.П. и др. Методические указания по определению общих допустимых уловов (ОДУ)цист жаброногого рачка Artemia. Сибирский научно-исследовательский и проектно-конструкторский институт рыбного хозяйства (СибрыбНИИ проект), 2002. – 25 с.
3. Мусаев А.К. Зоопланктон Большого Аральского моря ( фауна, экология, суксессия, практическое значение). Автореф.дисс. …канд. биол. Наук. Ташкент: 2020. 69-102-с.
4. Nguyen V. H. – Nguyen T. H. Principle of Artemiya culture in solar saltworks. Agricultural publishing house 2019. 17-31-p
5. Sorgeloos P., Lavens P., Leger P., Tackaert W. et al. Manual for the culture and use of brine shrimp Artemia in aquaculture. - State Univ. Ghent. 1986. –P. 320.

6. Xin N. Strain characterisation of artemia from 9 inland salt lakes in China//International workshop on Artemia. 21-25 Sept. 2004. Urmia.AAARC. 2004. 77-78-p.

## SO'Z BIRIKMALARI VA NUTQ MADANIYATI

***Tursunmamatova Diyora***
*Andijon davlat pedagogika instituti, Filologiya fakulteti,*
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 303-guruh talabasi*
*diyoratursunmamatova@gmail.com*
*+998910616630*

**Annotatsiya.** Maqolada so'z birikmalari nutq tarkibidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. So'z birikmalari noto'g'ri qo'llanganda yuzaga keladigan xatoliklar hamda kommunikatsiya buzilishlari ko'rsatib berilgan. So'z birikmalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, nutq madaniyatini oshirish usullari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z birikmalari, nutq madaniyati, uzviylik, mantiqiy moslik, xatoliklar, kommunikatsiya, ta'sirchan nutq.

**Kirish.** So'z birikmalari har qanday nutqning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular ayrim so'zlarning birikuvi natijasida yuzaga keladi hamda yangi ma'no anglatadi. So'z birikmalari orqali fikr ifodalash, voqealikni badiiy tasvirlash va nutqni boyitish imkoniyati vujudga keladi. Shu bilan birga, so'z birikmalari noto'g'ri qo'llanilsa, fikr buzilishiga hamda kommunikatsiya nuqsonlariga olib kelishi mumkin.

So'z birikmalari nutqimizdagi o'rni beqiyosdir. Ular orqali inson tafakkuri ifodalanadi, fikrlar almashinadi va muloqot amalga oshiriladi. Agar so'z birikmalari noto'g'ri shakllansa yoki urg'u noto'g'ri tushirilsa, gap ma'nosi o'zgarishi yoki buzilishi mumkin [1]. Masalan, "qora qozon" va "qóra qozon" birikmalari orasida katta farq bor. Birinchisi rangni, ikkinchisi esa idishning iflos ekanligini bildiradi.

Metodologiya. Maqolada so'z birikmalari va ularning nutqdagi o'rni haqidagi nazariy manbalarni o'rganish maqsadida adabiyotlar tahlili metodi qo'llanilgan. So'z birikmalari noto'g'ri qo'llanganda yuzaga keladigan xatolar va kommunikatsiya buzilishlarini aniqlashda tahlil va sintez hamda induktiv metodlaridan foydalanilgan. Jumladan, ayrim misollar tahlil qilingan holda umumiy xulosalar chiqarilgan.

So'z birikmalari imkoniyatlaridan unumli foydalanib, nutq madaniyatini oshirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda deduktiv metoddan

foydalanilgan, ya'ni mavjud nazariyalar asosida xulosalar qilinib, amaliyot uchun ko'rsatmalar berilgan.

Ushbu usullar orqali so'z birikmalari va nutq madaniyati borasidagi muammolarga e'tibor qaratilgan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Natijalar va tahlil. So'z birikmasining uzviyligi ham muhim omillardan biridir [2]. Ayrim so'z birikmalari umuman uzviy bo'lmagan holda qo'llaniladi, natijada esa bekorga so'zlar sarflanadi va fikr aniq ifodalanmaydi. Masalan, "yomg'ir yog'ayotgan hudud" degan birikma uzviy emas, chunki yomg'ir har doim ma'lum bir hududda yog'adi.

Grammatik jihatdan xato qurilgan birikma ham nutqiy muloqotga putur yetkazadi. "Qizil gilos rang", "kulrang oq ipak mato" kabi birikmalar mantiqan xato [3]. Rangni anglatuvchi so'z oldinda kelishi lozim bo'lgani holda bu yerda uning o'rni almashgan.

So'z birikmalari qo'llanishidagi xatoliklar asosan quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

•So'zlarning mantiqan mos kelmasdan biriktirilganda. Masalan, "shirin nordon", "yumshoq qattiq" [4].

•Bog'lovchining noto'g'ri ishlatilganda. "U men bilan senga boradi" xato birikma.

•Birikmada so'zning qo'shimchasiz qo'llanilganda. "Do'st kitob".

•So'z tartibining buzilishida. "Qora qozon" o'rniga "qozon qora" deb aytilganda ma'no o'zgaradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, so'z birikmalari xususiyatlari va ularning nutqda qo'llanishi murakkab hodisa bo'lib, unga e'tiborsizlik bilan yondashish turli xatolar va muloqot buzilishlariga olib keladi.

So'z birikmalari noto'g'ri qo'llanganda quyidagi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

•Fikr yetarlicha aniq va ravon ifodalanmaydi.

•Nutqiy muloqot izdan chiqadi, kommunikatsiya buziladi.

•Gapning ma'nosi o'zgarib ketadi, chalg'ituvchi bo'ladi.

•Nutqiy xatoliklar paydo bo'ladi.

•Tinimsiz takrorlanish va so'zlarning bekorga sarflanishi kuzatiladi.

•Badiiy matn ta'sirchanligi pasayadi.

Demak, so'z birikmalari xususida yetarli bilimga ega bo'lish, ularni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Ayniqsa, nutq madaniyati yuqori, ta'sirchan va ravon nutq uchun so'z birikmalari imkoniyatlaridan unumli foydalana bilish zarur.

Muhokama. So'z birikmalarini to'g'ri qo'llash va nutq madaniyatiga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu bizning madaniy darajamizni ko'rsatadi va muloqot jarayonida tushunishni osonlashtiradi.

So'z birikmalari turli so'zlarning mantiqiy ketma-ketlikda birikmasidan hosil bo'ladi. Ular ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Ammo ba'zan noto'g'ri so'z tanlovi yoki so'zlarni noto'g'ri tartibda joylashtirish tufayli ma'no buzilishi mumkin. Shuning uchun so'z birikmalarini puxta o'ylab tuzish lozim.

Nutq madaniyati esa muloqot jarayonida odob-axloq qoidalarga rioya qilish demakdir. Bunda suhbatdoshga hurmat, uning fikrlariga e'tibor qaratish muhim. Shuningdek, nutqda so'z tanlovi, ohang, mimika kabi omillarga ham e'tibor berish zarur. Zero, noto'g'ri tuzilgan gap yoki noto'g'ri aytilgan so'z suhbatdosh his-tuyg'ularini jarohatlashi mumkin.

Umuman olganda, so'z birikmalarini puxta o'ylab tuzish va nutq madaniyatiga rioya qilish muloqot samaradorligini oshiradi. Bunday muloqot jarayoni ham suhbatdoshlar, ham jamiyat uchun foydali bo'ladi.

Avvalo, so'z birikmalarini to'g'ri tuzishda asosiy omillardan biri mantiqiy izchillikdir. Ya'ni so'zlar ma'no jihatidan bir-biriga bog'liq holda joylashtirilishi kerak. Masalan, "mashg'ulotlar yog'ingarchilik" degan birikma noto'g'ri, chunki bu yerda predmet belgisi obyekt belgisidan oldin kelgan. To'g'ri variant "yog'ingarchilik mashg'ulotlari" bo'lishi lozim edi.

Bundan tashqari, ayrim so'z birikmalarida so'zlar soni ham muhim. Zero, ortiqcha so'z qo'shilishi ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, "samolyot uchishi" degan birikma to'liq ma'noni ifodalaydi. Ammo "samolyot uchib ketishi" degan holda esa so'zlar soni ortiqcha.

Yana bir muhim jihat, ba'zi so'zlarni biriktirishda ma'no monandligini hisobga olish kerak. Ya'ni ma'no jihatidan yaqin bo'lmagan so'zlarni biriktirish noto'g'ri. Masalan, "shirin taom" degan birikma to'g'ri, lekin "achchiq taom" noto'g'ri. So'z birikmalarini puxta tuzish uchun mantiqiy izchillikka, so'zlar soniga va ma'no monandligiga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, so'z birikmalari qanchalik to'g'ri va o'rinli qo'llanilsa, shunchalik nutqimiz ravon, aniq va ta'sirchan bo'ladi. Aks holda turli xatoliklar va fikr ifodalashdagi kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois so'z birikmalari imkoniyatlaridan cheklanmagan holda foydalanish, biroq ularning mantiqiy mosligi va uzviyligiga rioya qilish lozim. Bundan tashqari, so'z biriktirish qoidalarini puxta egallab olgan holda qo'llash ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Ana shundagina nutqimiz musaffo va ravon bo'ladi hamda muloqot samaradorligi oshadi.

## References

1. Safarov, O. (2019). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Akademnashr
2. Rahmatullayev, Sh. (2017). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi
3. Kadirqulov, U. (2021). So'z birikmalari va gap bo'laklarining bog'lanishi. Til va Adabiyot Ta'limi, 2(293). 87-89.
4. Azizov, U. (2019). Frazeologik birikmalar va ularning stilistik talqini. Toshkent: Zarqalam
5. Anvarjonov, X. (2020). Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: Akademnashr


# TURIZMNI INNOVATSION BOSHQARISH MODELINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI


***Jumaniyazova Ro‘za Quvondiq qizi***

*Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*



**Annotatsiya**. Ushbu maqolada turizm sohasini innovatsion boshqarish modelining mazmuni, tarkibi va xususiyatlari yoritib berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Turizm, innovatsiya, model, boshqarish modeli, turistik korxona, raqamli texnologiya.


Bugungi kunda asosiy e’tibor turizmni samarali rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bu borada sohani boshqarish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jahonning turli mamlakatlarida turizm sohasini boshqarish o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu borada jahon amaliyotida turizmni boshqarishning quyidagi uchta asosiy modeli mavjud [1]:

birinchi holda, turizm sohasini rivojlantirish vakolati kiritilgan davlat organi mavjud emas.

ikkinchi holda, turizm sohasini rivojlantirish masalalarida harakatlarni muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan mustaqil vakolatli davlat organining mavjudligini nazarda tutadi.

uchinchi holatda, turizm sohasini rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organi ayrim tarmoq vazirliklari tarkibiga kiradi.

Raqobatbardosh raqamli iqtisodiyotda turistik biznes tuzilmalari barqaror uzoq muddatli bozor afzalliklari va ularning oqilona ishlashini ta’minlash uchun doimiy ravishda innovatsiyalar va samarali axborot texnologiyalarini joriy etishni talab qiladi. Shu bilan birga, turistik biznes tuzilmalar raqobatbardoshligining raqamli texnologiyalaridan foydalanish, boshqaruvning axborot tizimidan foydalanish va yangi biznes modelida mavjud biznes-jarayonlar doirasida shakllanadi.

Turistik korxonaning biznes jarayonlarini tuzish turistik biznesning ishlashiga yordam beradigan va uning raqobatdosh ustunligini ta’minlaydigan asosiy

vositasidir. Bu turizm korxonalarining global axborot muhitida rivojlanishiga imkon beradigan jarayon bo‘lib, uning natijasi bo‘lib raqamlashtirish jarayoni hisoblanadi. Raqamlashtirish daromad olishning imkoniyatlarini ta’minlash, raqamli biznesga o‘tishda qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida biznes jarayonlarini shakllantirish doirasida raqamli unsurlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu holatda raqamli texnologiyalarning turistik korxonalar biznes jarayonlariga ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm korxonasini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishini aniqlash uchun hozirgi vaziyat, shuningdek uning biznes modelini yaratish va tasavvur qilish, to‘siqlar tashxisini qo‘yish va shundan keyin esa olingan ma’lumotlar asosida strategik rejani ishlab chiqilishi lozim. Turistik korxonaning biznes modelini yaratish uchun ixtisoslashgan va ommaviy xizmatlardan foydalanish lozim [2].

Bundan tashqari, ushbu raqamli asrda o‘zgarish sur’ati sayyohlik korxonasining raqobatchilardan kelib chiquvchi tahdidlariga duch kelmoqda. Xususan, sanoat inqilobining - 4,0 davrida sayyohlik kompaniyasining biznes modeli sayyohlik bozorini o‘zaro farqlash uchun o‘zgartirish imkoniyatini beradigan texnologiyalar bo‘lib hisoblanadi. Raqamli turizm biznesi raqobatbardosh ahamiyatga ega bo‘lib, bu bevosita integratsiya jarayonlariga ta’sir qiladi. Biroq, raqamlashtirishning yo‘l xaritasini ishlab chiqishdan oldin, turistik korxonaning amaldagi biznes modelini tahlil qilish, turistik biznes egalari duch keladigan muammolarni tushunish va shundan keyin esa raqamli iqtisodiyotga o‘tish lozim.

Raqamli texnologiyalarning asosi veb-sahifalar maketlarini yaratish, iqtisodiy sikllarni rejalashtirish, mijozlar xaritasini tuzish va aqliy hujum g‘oyalarini yozib olish imkonini beradi. Xizmat jamoalar sifatida ishlash va virtual rasmlarni yaratishga imkon beradi. Buning uchun jarayonlar, iste’dod, tushunish va asboblar kabi unsurlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimning kamchiliklari bo‘lib, ishlab chiqilgan biznes modelini yuklash qobiliyatining pastligidir. Ba’zi modellar startap yoki biznes modelini tuzishga yordam beradi. Bu xizmat biznes modellarini tuzishga ixtisoslashgan bo‘lib, u rivojlanganlik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bu foydalanuvchilar uchun qimmatli va ish uchun namuna sifatida ishlatiladi. Doimiy foydalanuvchilar uchun SWOT-tahlil modellari mavjud bo‘ladi. Bunda xizmat mobil texnologiyalarga moslashtirilgan bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalarning ta’siri bevosita turistik korxonaning biznes modelini o‘zgartirishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar mos kelmaydigan sayyohlik tizimlarini birlashtirish va innovatsiya jihatlarini kuzatish imkonini beradi. Innovatsiyaning ushbu jihati turizm sanoatining an’anaviy tarmoqlarida raqamli texnologiyalar doirasidagi biznes modellari uchun

muhim oʻrinni egallaydi. Shu bilan birga, raqamli biznes modelini amalga oshirish turistik korxonalar faoliyatini innovatsion rivojlantirishga imkon beradigan istiqbolli sohasi boʻlib qaraladi. Shunday qilib, turizmda yaratilgan innovatsion biznes modellari raqobat vositasiga aylanadi. Bundan tashqari, raqamli biznes modeli sayyohlik korxonalariga potensial xaridor va mijozlarning ehtiyojlariga nisbatan javob berishga imkon beradi. Bu esa turistik korxonaning biznes jarayonlarini bozor sharoitlariga moslashtirishga imkon beradi.

Biznes modelida raqamli oʻzgarishlar biznes yuritish va daromad olishdagi tub oʻzgarishlarning raqamli modeli boʻlib hisoblanadi. Turistik korxonalarning muvaffaqiyatlari uchun innovatsion biznes modellarini joriy etishga majbur boʻlishlari lozim. Ular tufayli yangi turistik bozorlarni ham yaratishga imkon beradi. Bunday sharoitda turizm bozorining yetakchilari amaliy tajribalari bilan samarali biznes modellari doirasida zarur asosiy vakolatlarga egaligini koʻrsatadi. Bu esa sayyohlik kompaniyalariga nisbatan foyda olish va qoʻshilgan qiymat zanjirlarida yaxshi mavqega ega boʻlish imkonini beradi. Biroq, ularning tajribalariga koʻra, yangi texnologiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuchi boʻlishi lozim. Biznes modeli qanchalik samarali boʻlsa, sayyohlik kompaniyasining biznesi shunchalik foydali boʻlib, innovatsion mahsulotlar biznes modelining samaradorligiga taʼsir qiladi. Shu bois, bozor muhitidagi ushbu jarayonlar bir-biriga bogʻliq boʻladi.

Sayyohlik korxonasining biznes modeli - raqamli texnologiyalar yordamida oʻzgartiriladigan, shuningdek turizm bozori tomonidan turistik korxona uchun foyda bilan moliyaviy oqimga aylantiriladigan qiymat sifatida qabul qilinadigan mahsulot va xizmatlarning paydo boʻlishiga yordam beradi. Shu bilan birga, sayyohlik korxonasining biznes modellari ularning muvaffaqiyati va uzoq muddatda omon qolishini taʼminlash uchun bozor shart-sharoitlariga qarab oʻzgarishi lozim. Kichik oʻzgarishlar mijozlar va sayyohlik korxonasi uchun foydali boʻladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, biznes modelidagi yangiliklarning 90 foizi anʼanaviy yoki boshqa biznes modellaridagi yangi tarkib boʻlib hisoblanadi.

Innovatsion biznes modeli yangi texnologiya yoki mahsulotning paydo boʻlishi bilan bogʻliq boʻladi. Uning asosiy vazifasi innovatsion mahsulotdan biznes qiymatini olish yoki yangi texnologiyani birlashtirishdir. Bundan tashqari, biznes modelidagi oʻzgarishlar turistik korxonaning biznes jarayonlaridagi oʻzgarishlarda aks ettirilishi lozim. Har bir turistik korxonada biznes modeli mavjud boʻladi. Bunday sharoitda sayyohlik korxonasining biznes modeli uning muvaffaqiyati va omon qolishini taʼminlash uchun oʻzgarishi lozim. Biznes modelini alohida va yangi tahlil sifatida koʻrib chiqish mumkin. Bunda mijoz

uchun qiymat yaratish va turistik korxona uchun qo‘shimcha qiymatni hisobga olishga e’tibor qaratiladi.

Xulosa shuki, turizm biznesida raqamli texnologiyalarni qo‘llash innovatsion biznes modelining qismi bo‘lib hisoblanadi. Bular biznes jarayonlarini jadallashtirish va avtomatlashtirish, turistik mahsulotning qo‘shimcha qiymatini shakllantirish, yangi turistik xizmatlarni ishlab chiqish, yangi bozorlarga chiqish, asosiy resurslarni birlashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash kabilardan iborat bo‘ladi. Shuningdek, savdo kanallarini raqamli tizimlar yoki platformalar asosida integratsiyalashgan raqamli biznes jarayonlariga aylantirish ham shular jumlasidandir. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yagona ekotizimning shakllanishi va turizm biznesi madaniyatining o‘zgarishiga olib keladi, Ushbu texnologiyalar mavjud ma’lumotlarga kirishni ta’minlaydi, intellektual tahlil va prognozlashdan foydalanishni ta’minlaydi, mijozlar va sheriklar bilan samarali hamkorlikni rag‘batlantiradi, tizimni boshqarishni optimallashtirishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytiradi hamda turistik korxonada iqtisodiy sikllarni tezlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Полухина А.Н. Инновационная модель управления предпринимательством в сфере туризма в регионах России (на примере Республики Марий Эл). // Ж.: Экономические науки, 2014, 2(111). – с. 64-69.
2. Копылова Е.В., Немчинова Е.Е. Формирование инновационной бизнес-модели туристского предприятия в условиях цифровой экономики. // Научный журнал: Вестник Алтайской академии экономики и права. Выпуск журнала № 5 (часть 2) за 2023 год. Print ISSN 1818-4057, Online ISSN 2226-3977. https://vaael.ru/ru/article/view?id=2840

## SAVOD O’RGATISH DAVRIDA O’QUVCHILAR NUTQINI O’STIRISH

***Xaydarova Hanifaxon Jakbarovna***
*Dang’ara tumani 7-maktab o’qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Boshlang’ich sinf o’quvchilarining savod o’rgatish davrida o’quvchilar nutqini o’stirish to’g’risidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Ma’lumki, jamiyatda til kishilar o’rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog’lash amalga oshadi.

**Kalit so'zlar:** nutq, ko'nikma, malaka, fikr-mulohazalar, metod, nazariya, tovush, analiz, sintez.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Pedagog kadrlar, yetuk mutahassislar tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Darslarni yuqori saviyada o'tkazish, darsga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yangi-yangi dars uslublarini ishlab chiqish, noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish, o'qituvchilarning o'z ustlarida ishlab borishlari, zamon bilan hamnafas yashash, ishlash oily ta'lim va o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari hamda o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim vazifaga aylandi.

**Metod** aslida yimoncha ***„metodos"*** so'zidan olingan bo'lib, ***„bUish va tadqiqot yo'li", „nazariya", „ta'limot"*** kabi ma'nolarni bildiradi[1]. Metodika *(yun. „me1hodike")* biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot[2] — ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

**Tovush ustida ishlash.** Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash harf ustida ishlash bilan, ayniqsa, kesma harflardan bo'g'in, so'z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf

o'rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imloviy jihatdan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

So'zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o'rgatishda asosan, quyidagi usullar amalda qo'llanilmoqda:

**I. Analiz mashqlari.** 1.Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, so'zdan, bo'g'indan tovushni kuchli talaffuz qilib o'qish, muayyan tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish; 2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. 3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: *Olma — ol-ma; o-l-m-a —* to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli toviish, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in .... Bu usuldan o'quv yilining ikkinchi yarmida va keying! sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

**II. Sintez mashqlari.** 1.Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z vistida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;

2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish; 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;

4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya" (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ish-latishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap *(Bolalar yugtiryaptilar),* sodda yoyiq gap *(Lola do'konga bordi),* uyushiq bo'lakli gap *(Anvar o'qidi va yozdi)* tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgiiari asosida gunihlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchiningtopshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf,

maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

Xulosa qilib aytganda, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

**1.** G'ulomov A. 4-sinf "Ona tili" darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. T. 2003 yil. 43-bet.
2. Qosimova K.,Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariev Sh.Ona tili o'qitish metodikasi.Darslik. T., "Noshir" 2009 yil. 59-bet.
3. Sh.Yoqubov., D.Yoqubova.Grammatik o`yinlar.Termiz 2009 yil.
4. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. (1-sinf uchun darslik). T.: "Sharq", 2015 yil.
5. Qosimova K., Fuzailov S, Na'matova A. Ona tili. (2-sinf uchun darslik).T.: "Cho'lpon", 2014 yil.
6. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: "O'qituvchi", 2012 y
7. Egamqulovna, A. M., Gafforova, Z., & Sobirova, G. (2024). EXPRESSION OF PHONETIC MEANS IN ARTISTIC TEXT. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, *2*(25), 149-152.
8. Mahfuza, A. (2024). BADIIY MATN VA LINGVOPOETIKA. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, *2*(25), 145-148.
9. Egamqulovna, A. M.(2023). LINGVOPOETICS IS A BRANCH OF LINGUISTICS THAT STUDIES THE LANGUAGE OF ARTISTIC WORKS. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 23-26.
10. Mahfuza, A. (2023). FEATURES OF LINGUOPOETIC ANALYSIS OF LITERARY TEXT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(2), 577-579.
11. Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O 'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *2*(8), 41-44.

12. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. *Mug'allim*.
13. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali*.
14. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. *Scienceweb academic papers collection*.

# INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Omongaldiyev Mashxurbek Davronbek o‘g‘li***
*Urganch davlat universiteti 231-Iqtisodiyot guruhi magistratura talabasi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikni oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, investitsion jozibadorlik, investitsiya salohiyati, investitsiya siyosati.

Ma’lumki, investitsiya siyosati ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va madaniy omillarni ta’siriga asoslanadi. Buning uchun puxta asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun investitsiya muhitini doimiy monitoring qilish amalga oshiriladi. Investitsiya salohiyatini hisoblashda mutlaq statistik ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Iqtisodiy fan va amaliyotda investitsiyalardan oqilona foydalanish shartlarini tahlil qilish uchun “investitsiya muhiti” toifasi qo‘llaniladi. Bu investitsiya joziborligi sifatida mintaqaviy iqtisodiy tizimga investitsiyalarni oldindan belgilangan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar to‘plami tavsifini aks ettiradi.

Investitsion jozibadorlikni baholash va investitsiya hajmini bashoratlash modellaridan bir vaqtda foydalanish, bir xil natijalarga erishishga imkon beruvchi, iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o‘zgartirish bo‘yicha juda ko‘plab chora-tadbirlar variantlarini ishlab chiqishga imkoniyat beradi [1].

Darhaqiqat, mamlakat investitsion jozibadorligi uning iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlari, davlat, ijtimoiy, qonunchilik, siyosiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari majmuasi bilan belgilanadigan ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik tabiiy, moliyaviy, intellektual va inson kapitali harakati yo‘nalishini belgilaydi. Chunki, investor mamlakat yoki mintaqaning investitsion jozibadorligini ta’minlashga harakat qiladi. Qonunchilik va ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali darajasi va sifati bo‘yicha baholaydi.

Avvalo, investitsiya jozibadorligini oshirish uchun investitsiyalar mutaxassislarsiz, sifatli inson va inson kapitalisiz jalb qilinmaydi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarda asosiy investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirishga qaratiladi. Inson kapitali sifati asosida mamlakat, mintaqalar va korxonalar investitsiyalardan samarali foydalana oladilar. Aks holda, inson kapitalining yetishmasligi va uning past sifati investitsiyalar kam daromad keltiradi.

Fikrimizcha, investitsion jozibadorlik - investitsiyalar oqimi yoki kapitalning chiqib ketishini belgilaydigan turli ichki va tashqi omillar to‘plamidir. Mamlakat yoki mintaqaning investitsion jozibadorligi investitsiya salohiyati va investitsiya xavfi bilan belgilanadi.

Investitsiya jozibadorligi asosida investitsiya salohiyati iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim imkoniyat bo‘lib hisoblanadi. Mintaqa investitsiya salohiyati – investitsiyalarni mintaqaga jalb qilish imkonini beradigan ob’ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-geografik va boshqa omillar majmuidir [2]. Investitsiya salohiyati mintaqaning kapitalni saqlash va investorlar tomonidan foyda olish kafolatlari bilan investitsiyalarni qabul qilishga tayyorligini hisobga olib, quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- resurs va xom ashyo (tabiiy resurslar turlari balans zaxiralari);
- mehnat (mehnat resurslari va ularning ta’lim darajasi);
- ishlab chiqarish (yalpi hududiy mahsulot);
- innovatsion (fundamental, universitet va amaliy fanlarni rivojlanish darajasi);
- institutsional (bozor iqtisodiyoti institutlarining rivojlanish darajasi);
- infratuzilmaviy (mintaqaning iqtisodiy-geografik joylashuvi va uning infratuzilmasini ta’minlash);
- moliyaviy (soliq bazasi hajmi va mintaqadagi korxonalarning rentabelligi);
- iste’molchi (mintaqa aholisining umumiy sotib olish qobiliyati).

Investitsion jozibadorlikni oshirishda investitsiya xavfi bo‘lishi mumkin. Bu esa kapitalni yo‘qotish ehtimoli bo‘lib qaraladi. Hamda investitsion jozibadorlikni oshirishda investitsiya strategiyasi hissa qo‘shib, ushbu jihat mintaqa tarkibiy qismlari umumiy investitsiya salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ya’ni, mintaqaning investitsiya iqlimining jozibadorligini oshirishga hissa qo‘shishi bilan belgilanadi.

Barcha mintaqalarning investitsiya jarayonini tartibga solishning shaffofligini oshirish va uning qonunchilikka muvofiq kelishi uchun investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarning jozibadorligini oshirish to‘g‘risida me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib boriladi. Shunga ko‘ra, mamlakatda investitsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- bozor infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;
- investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan qonunchilik bazasini ishlab chiqish va qabul qilish;
- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- biznes xavfsizligini ta'minlash;
- sohani rivojlanish ustuvorliklari va ularni qo'llab-quvvatlash usullari va mexanizmlarini aniqlash;
- biznesni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish;
- investorlarga mamlakat qonunchiligiga zid bo'lmagan yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun imtiyozli shart-sharoitlarni taqdim etish;
- investorlarga viloyat mulki bo'lgan binolar va boshqa mol-mulkni imtiyozli shartlarda ijaraga berish;
- investitsiya faoliyatini axborot bilan ta'minlash;
- investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq viloyat budjeti mablag'lari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etish;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq budjet kreditlari va ssudalar berish.

Xulosa shuki, investitsiya jozibadorligi mamlakatga investitsiya jalb qilish darajasini belgilab, oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, to'g'ri va oqilona investitsiya siyosatini olib borish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, shuningdek korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlash natijasida axoli farovonligini oshirishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Нурмухамидова М.Х., Мамажанова С.В., Шоев А.Х. Минтақалар инвестиция жозибадорлигини ошириш ва уларни баҳолаш услубиятини такомиллаштириш. // Молодой ученый. Международный научный журнал. № 11 (301), 2020. - 283 б.
2. Жўраев Х., Алияров О. Минтақа инвестиция муҳити ва инвестицион жозибадорлиги. // Минтақавий иқтисодиёт (региональная экономика). Иқтисод ва молия. Экономика и финансы, 2015, 7. - 28 б.

# XX-ASR BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRIDA CHORVA MOLLARI KASALLIKLARINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

***Bazarbayeva Shohsanam Muratovna***
*Perfect Universiteti o`qituvchisi.*
*Tel: +998 90 945 07 02*
*bazarboyevashohsanam@gmail.com*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada XX-asr boshlarida Toshkent shahridagi veterinariya sohasining umumiy holati, chorva mollari kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari, chorva mollari orasida tarqalgan kasalliklar va ularni davolash usullari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Toshkent shahri, veterinar shifokorlar, varetinar feldsherlar, vabo kasalligi.

**Аннотация.** В данной статье изложено общее положение ветеринарной отрасли Ташкента в начале XX века, меры профилактики болезней скота, распространение болезней среди скота и методы их лечения.

**Ключевые слова:** город Ташкент, ветеринарные врачи, ветеринарные фельдшеры, холерная болезнь.

**Annotation.** In this article, the general situation of the veterinary industry in Tashkent at the beginning of the XX th century, measures to prevent livestock diseases, diseases spread among livestock and methods of their treatment are explained.

**Key words:** Tashkent city, veterinarians, veterinary paramedics, cholera disease.

Veterinariya nafaqat hayvonlarni, odamlarning sog'lig'ini himoya qilishda ham juda katta ahamiyatga ega. Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) ma'lumotiga ko'ra tabiatda 150 dan ortiqroq zooantroponoz (grekcha zoon – hayvon, antropos – odam, nosos - kasallik), ya'ni hayvon va odamlarga umumiy bo'lgan kasalliklar mavjud. Shu sababdan veterinariya medisina xodimlari bilan birgalikda zooantroponoz kasalliklarining oldini olish va ularni mutlaqo yo'qotish maqsadida sut-go'sht mahsulotlarini nazorat qilib, ularni sifatli holatda iste'mol qilishni ta'minlaydi. Bu sohada akademik I. Pavlovning "medisina shifokori odamni, veterinariya vrachi esa odamzodni davolaydi" degan gaplarini eslash o'rinlidir.

Ushbu maqolada XX-asr boshlarida Toshkent shahridagi veterinariya sohasining umumiy holati, chorva mollari orasida tarqalgan kasalliklar va ularni davolash usullari yoritib berilgan.

1904 yil Toshkent shahrida qoramollar orasida vabo kasalligi tarqalgan. Shu sababli Toshkent shahar boshqarmasi Turkiston general-gubernatori bilan kelishgan holda bir qarcha chora tadbirlarni amalga oshiradi. Xususan, aholiga bir qancha majburiyatlar yuklatiladi. Unga ko'ra qoramollarda uchragan har qanday kasallik yoki qoramollar orasida o'lim holatlari kuzatilgan taqdirda polisiya bo'limlariga yoki mahalla va daha oqsoqollariga ma'lumot berishi zarur edi.[4] Unda ma'lumot bergan shaxs manzilni aniq ko'rsatishi lozim bo`lib, shuningdek, aholi kasal hayvonlarni sog'lom hayvonlardan alohida joylashtirish kerak bo'lgan. Yana majburiyat shundan iborat bo'lganki chorva egasi o'z chorva mollarini kasal yoki sog'lom bo'lishidan qattiy nazar, o'z hovlisida saqlashi va uni tashqariga chiqarmaslikka majbur edi. Kasal hayvonlarni parvarish qilish uchun ma'lum bilimga ega bo'lgan xizmatchilardan foydalanish lozim bo'lgan bunda kasal chorva mollarini parvarish qilish uchun maxsus kiyim kiyilgan. Agar qaysidir xonadonda va hovlida vabo kasalligi aniqlansa chorva egasi sog'lom va kasal chorva mollarini umumiy foydalanishdagi yaylovga chiqarishni to'xtatgan. Vabo bilan kasallangan hayvonlarni sog'lom chorva mollari yaqiniga qo'ymaslik, chorva mollarini ko'chada yurmaslikka yo'l qo'ymaslik, hamda kasal hayvonlarni hovlidan oqib o'tadigan ariqdan sug'ormasligi lozim bo'lgan. Bundan tashqari vabodan kasallangan chorva mollarini so'yish taqiqlangan. Shuningdek, Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan shaharda kasal hayvonlarning murdalari va go'nglarini tashish uchun maxsus aravalar ajratilgan. Mazkur harajatlar shahar hisobidan amalga oshirilgan. Aholi arava uchun polisiya bo'limiga yoki mahalla oqsoqoliga murojat qilishi lozim bo'lgan. Mazkur majburiyatga amal qilmagan shaxslar javobgarlikka tortilgan.[5]

Veterinariya shifoxonalari uchun maxsus nizom va ustavlar ishlab chiqarilgan. Ushbu hujjatlarda veterinariya shifoxonasini tashkil etishdan maqsad va ularning asosiy faoliyati sanab o'tilgan. Unga ko'ra veterinariya shifoxonalari uy hayvonlari va qushlarni davolash hamda, umumiy veterinariya yordami va maslahatlar berish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu hujjat ko'rsatadiki ayrim hududlarda ixtisoslashtirilgan veterinariya shifoxonalari ham tashkil etilgan. Masalan, ulardan biri jarrohlik veterinariya shifoxonasi bo'lgan. Veterinariya shifoxonalarning faoliyatiga uy hayvonlari va qushlarni amblator va stasianar davolash, bakteriolagik, mikraskopik va kimyoviy bo'yicha tadqiqotlar olib borish, deagnostika maqsadida kasalxonaga olib kelingan kasal hayvonlar to'g'risida manfaatdor muassasalarga yoki jamiyatlarga yuborishi kabi vazifalar kirgan.[6]

[4] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 5.
[5] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 5.
[6] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 12.

Shuningdek veterinariya shifoxonalarini tashkil etish uchun maxsus binolar lozim bo'lgan. Veterinariya shifoxonasi binolariga bir qancha talablar qo'yilgan. Unga ko'ra amblatoriya shifoxona hovlisi toza asfaltlangan yoki taxta hovli bo'lishi kerak bo'lgan. Hovlining bir qismi yopiq bo'lishi lozim bo'lgan va uning yomon ob-havo ostida kasal hayvonlar ushbu yopiq bino ostida davolangan.[7] Bunday shifoxona hovlisida yuqimlik kasallik aniqlangan taqdirda kasal hayvonlarni izalasiya qilish uchun alohida joy ajratilgan bo'lishi lozim bo`lgan. Shuningdek, kasal hayvonlarni stasionar davolash uchun yirik hayvonlar uchun alohida 3 ti yopiq molxonalar yoki otxonalar hamda itlar va boshqa mayda hayvonlar uchun qafaslar bo'lishi kerak bo'lgan. Ushbu har bir binolar yetarli darajada shamollatish tizimi bilan ta'minlanishi lozim edi. Ushbu veterinariya shifoxonalari maxsus jihozlarga ham ega bo'lishlari lozim bo'lgan.[8]

Yuqoridagi veterinariya shifoxonalarining veterinar shifokorlari nafaqat tirik chorva mollarini balki so'yilgan hayvonlarning go'shtini ham tekshirib turgan. Jumladan, veterinar shifokorlar so'yilgan hayvonlarning boshini, tilini, o'pkadagi bironxal va yurak xaltasini deyafragmani, qorin pardasini, jigarini, linfa bezlarini, taloqni, buyrak va buyrak usti bezlarini, siydik pufagini, yelinini va ustki bezlarni, oshqozon ichak bezlarini, hamda suyak va suyak bo'g'inlarini tekshirib turgan. Agar so'yilgan hayvon hududida qandaydir kasallik aniqlangan taqdirda hayvonning boshqa a'zolari ham tekshirilgan. Shuningdek, hayvonlarni tekshirish punktlarida so'yilgan chorvaning og'iz va jax qismi alohida tekshirilgan, bunga asosiy sabab chorva mollariga infeksiyalar, hayvon tanasiga birinchi bo'lib, ochiq hududlarda kirishi deb hisoblangan. Boshqa tomondan hayvonlar turiga qarab bu tekshiruv jarayoni bir biridan farq qilgan. Masalan, buzoqlarning kindigi va kindikka ulangan ichaklari alohida e'tibor bilan tekshirilgan, qo'y va echkilarda esa asosiy e'tibor hayvonlarning jigari va o'pkasiga qaratilgan. Chunki mazkur hayvonlarda ko'proq jigar distomatozi va o'pka pnivmaniyasi kabi kasalliklar ko'proq uchragan. Otlarni so'yishdan oldin esa ularning terisi, burni va unga tutash bo'shliqlarning shilliq pardalari tekshiruvdan o'tkazilgan.[9]

Xulosa, jamiyatning iqtisodiy hayotida veterinariya katta ahamiyatga ega. U qishloq xo'jaligi va mo'ynali hayvonlar, parranda va darranda kasalliklarini oldini olib, hayvonlarning o'limini keskin kamaytiradigan, sog'lom, yuqori mahsuldor, sifatli mahsulotlar beradigan podalarni yaratish, shu tariqa odamlarni sifatli oziq mahsulotlari, sanoatni esa hom ashyo bilan ta'minlash, tashqi muhitni iflosliklardan muxofaza qilish hamda shu kabi mas'ulliyatli masalalarni hal qilishda kerak bo'lgan veterinariya-sanitariya tadbirlar kompleksini bajaradi.

[7] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 12- bet orqasi.
[8] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 13.
[9] O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro`yxat, 14-ish, b. 18.

# RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA ELEKTRON DARSLIKLARNING AHAMIYATI

***Abduvaxobova Robiyaxon Abdusamat qizi***
*Andijon Mashinasozlik Instituti I.B va K.T fakulteti*
*Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi*
*3-bosqich talabasi.*
*robiyaxonabduvakhobova@gmail.com*

***Xoldarboyev Rahimjon***
*Ilmiy rahbar. Andijon mashinasozlik Instituti*
*Axborot tizimlari va texnologiyalar kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim landshaftlarida texnologiya integratsiyasi taraqqiyot va innovatsiyalar uchun asos bo'ldi. O'chmas iz qoldiradigan o'zgartiruvchi vositalar qatorida ta'limda yangi davrdan darak beruvchi elektron darslik ham bor. Ushbu maqola rivojlangan mamlakatlarda elektron darsliklarning ahamiyatini o'rganib, ular ta'limning mukammalligi, foydalanish qulayligi, barqarorligi va texnologik mahoratga qanday hissa qo'shishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Elektron darsliklar,rivojlangan mamlakatlar,ta'lim,global aloqa,taraqqiyot,talabalar.

**Abstract.** The integration of technology in the educational landscape of developed countries has become the basis for development and innovation. Among transformative tools that leave an indelible mark is the e-textbook, heralding a new era in education. This article examines the importance of e-textbooks in developed countries and shows how they contribute to educational excellence, usability, sustainability and technological proficiency.

**Key words:** electronic textbooks, developed countries, education, global communication, development, students.

**Аннотация.** Интеграция технологий в образовательный ландшафт развитых стран стала основой развития и инноваций. Среди преобразующих инструментов, оставляющих неизгладимый след, — электронный учебник, знаменующий новую эру в образовании. В этой статье рассматривается важность электронных учебников в развитых странах и показано, как они способствуют повышению качества образования, удобству использования, устойчивости и технологическому мастерству.

**Ключевые слова:** Электронные учебники, развитые страны, образование, глобальные коммуникации, развитие, студенты.

Ta'lim mukammalligini oshirish:

Rivojlangan mamlakatlar har doim ta'limga ustuvor ahamiyat berib, talabalar uchun ta'lim tajribasini oshirish yo'llarini izlab kelgan. Elektron darsliklar o‘zining dinamik multimediyali mazmuni, interfaol xususiyatlari va moslashuvi bilan ta’limda mukammallikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar ilg‘or manbalar bilan tanishib, ularga mavzularni chuqurroq o‘rganishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va ularni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashga imkon beradi.

Universal kirishni yoqish:

Rivojlangan mamlakatlarda elektron darsliklarning qabul qilinishi ta’lim olishning hamma uchun qulay bo‘lishiga katta hissa qo‘shmoqda. Raqamli qurilmalarning keng tarqalishi va yuqori tezlikdagi internetga ulanishi bilan barcha ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi talabalar ko'plab ta'lim resurslaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu inklyuzivlik bo'shliqlarni bartaraf qiladi va har bir o'quvchi, geografik joylashuvi yoki iqtisodiy holatidan qat'i nazar, ta'lim tizimida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'limda barqarorlik:

Rivojlangan mamlakatlar barqaror amaliyotlarni qo'llashda ko'pincha yetakchilik qiladi va elektron darsliklarga o'tish bu majburiyatga to'liq mos keladi. Raqamli format qog'oz ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi, o'rmonlarni kesish va an'anaviy bosib chiqarish bilan bog'liq uglerod izini kamaytiradi. Elektron darsliklarni qo'llash orqali rivojlangan davlatlar ta'lim va barqarorlik qanday yonma-yon borishini ko'rsatib, atrof-muhitni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlamoqda.

Kelajakdagi ishchi kuchi uchun texnologik malaka:

Texnologik taraqqiyot sanoat va mehnat bozorlarini qayta shakllantirar ekan, rivojlangan davlatlar o'z talabalari orasida texnologik malakani oshirish zarurligini tan olishadi. Elektron darsliklar nafaqat fanga oid bilimlarni beradi, balki raqamli savodxonlik va ravonlikni rivojlantiradi. Elektron resurslardan foydalanayotgan talabalar texnologiyadan XXI asr ishchi kuchida ajralmas ko'nikma to'plamini o'rganish vositasi sifatida foydalanishga mohir bo'ladilar.

Haqiqiy vaqtda yangilanishlar va dolzarblik:

Axborot tarqatishning tez sur'atlari o'quv materiallarining dolzarb bo'lishini talab qiladi. Elektron darsliklar real vaqt rejimida yangilanish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarning turli sohalardagi eng yangi bilim va ishlanmalardan foydalanishini ta’minlaydi. Ushbu moslashuvchanlik o'quvchilarni doimiy rivojlanayotgan global landshaftga tayyorlaydi va ularni eng so'nggi tushunchalar, nazariyalar va amaliy qo'llanmalar bilan jihozlaydi.

Birgalikda o'rganish va global aloqa:

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasida hamkorlik va global aloqa muhimligini ta'kidlaydi. Elektron darsliklar onlayn platformalar, munozara forumlari va umumiy resurslar orqali hamkorlikda o'quv muhitini yaratishga yordam beradi. Talabalar butun dunyo bo'ylab tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin, bu ularning ta'lim tajribasini boyitadigan global istiqbol va madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida elektron darsliklarni qabul qilish texnologik siljishdan ko'proq narsani anglatadi - bu mukammallikka, inklyuzivlikka, barqarorlikka va talabalarni kelajak muammolariga tayyorlashga sodiqlikni ifodalaydi. Bu davlatlar raqamli asrni bosib o‘tayotganda, elektron darsliklarning ahamiyati tobora ortib bormoqda, bu nafaqat ilg‘or va qulay, balki taraqqiyot va barqarorlik qadriyatlariga mos keladigan o‘quv muhitini shakllantiradi.

## Adabiyotlar

1. Abduvaxobova.R. & Abduvohobov.A"Mobil texnologiyalardan foydalangan holda elektron darslik yaratish":Tadqiq va Tadbiq ilmiy-uslubiy jurnal-60-63 bet
2. Hoshimov O.O, Tulyaganov M.M. Kompyuter va raqamli texnologiyalar Toshkent yangi asr avlodi-2009. 103-bet.
3. Xoldarboyev.R,&Abduvaxobova.R.“Elektron darsliklar yaratish texnalogiyalari”89-91 Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami:Kokand Unersity
4. S.S Qosimov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2006 y.

# ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARINING LINGVISTIK TAHLILI: "VARAQ" SHE'RI MISOLIDA

***Azizova Dilfuza Oltiboy qizi***
*O'zDJTU, rus filologiyasi 2-bosqich talabasi*
*dilfuzaazizova1424@gmail.com*

***Feruza Abdullayeva***
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,dotsent, Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya**. Maqolaning mazmuni shundan iboratki, qalblarimizdan o'z she'rlari bilan chuqur joy olgan shoirimiz Aleksandr Faynberg hamda uning mahorat bilan yozgan she'rlarining lingvistik tahlilidir. Shu bilan birga Faynberg merosining ahamiyati va bu orqali yosh kitobxonlarga shoir g'oyalarini yetqazib berish ko'zda tutiladi.

**Kalit so'zlar:** she'r, lingvistik tahlil, tashbeh, qiyoslash, "Varaq" she'ri

**Аннотация.** Содержание статьи представляет собой лингвистический анализ нашего поэта Александра Фейнберга, глубоко тронувшего наши сердца своими стихами, и его искусно написанными стихотворениями. При этом рассматривается значение наследия Файнберга и донесения идей поэта до юных читателей.

**Ключевые слова:** стихотворение, лингвистический анализ, аллегория, сравнение, стихотворение «Лист».

Aleksandr Faynbergni yodimizga olar ekanmiz , uning vatan madhini kuylovchi she'rlarini, tabiat jilosini , hayotning soda haqiqatlarini o'zida jamlagan pyesalari har birimizning yuragimizdan chuqur joy olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.Rus xalqi bilan bir qataorda o'zbek halqining ham e'tiborini qozongan shoirimiz Aleksanr Faynberg 1939-yilning 2-noyabrida Toshkent shahrida tavallud topgan. Shoirning oqko'ngil va mehribon bo'lganligi bolalikdan uning tirik har qanday mavjudotga ozor bermaganligi, tabiatni sevishi uning she'rlarida yaqqol aks etgan. Tabiat Aleksandr Faynberganing ijod manbai bo'lgan aynan shu orqali u ijod maydoniga qadam qo'ygan desak adashmagan boo'lamiz. Sobiq Jukovskiy ko'chasi Aleksandr Faynbergning hayotidagi eng beg'ubor lahzalariga, yoshligiga, bolaligiga guvoh bo'lgan. Ijodkorning bizga qoldirgan ijodiy merosi 15 ta she'riy to'plamni, tarjimalarni, va ssenariylarni qamrab oladi. Aleksandr Faynberg borliqning oddiygina va mavjud mo'jizalaridan ilhomlanib, uning qalami bu ilhomlarni varaqlarga tushirdi. Shu o'rinda uning "Varaq" she'rini atib o'tmaslikning iloji yo'q.

Yulduzlarni asraydi falak,
Teran dengiz asrar durlarni.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan she'rlarni.

Uning kitoblarida biz kitobxonlarni o'ziga rom etuvchi xususiyatlari shundan iboratki, u o'z atrofidagi har bir kichik narsalarda, detallarda mo'jizani va

go'zallikni ko'ra olgan va bularni she'rlarida aks ettira olgan. Ushbu to'rtlikni lingvistik tahlil qilsak, bu yerda o'xshatish hamda jonlantirish san'atlari yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni bu yerda falakni jonlantirgan holda, uning osmondagi yulduzlarni asrashi hamda dengizni jonlantirgan holda uning uning tubidagi xazinasi hisoblangan durlarni asrashi aytilmoqda. Bu orqali esa shoir daftaridan yirtilgan varaqqa uning she'rlarini asrashini takidlamoqda. Bularning barchasi jonlantirish san'atidir. Ushbu to'rtlikda faqat jonlantirish san'ati emas balki yashirin tarzda o'xshatish san'ati ham qo'llangan.

"Varaq" she'rining keying to'tligini tahlilida she'rga ajoyib tarif bergan:

She'r nafaqat o'qimoq, uqmoq,
She'r yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada so'qmoq,
Tebrangandek ko'llarda qamish.

Bunda Faynberg she'rni alohida ardoqlagan. She'rni o'qish, uqish o'zigina emas, balki uni his qilish kerakligini aytadi.She'rni shunchaki o'qish kerak emas, uni shunchaki uqish kerak emas, she'rni yurakdan kuyga aylanib chiqishi kerak. To'rtlikning so'nggi ikki qatorida u –dek qo'shimchasi orqali tashbeh, ya,ni o'xshatish san'atini qo'llaydi. She'rning keyingi uchinchi to'rtligiga e'tiborimizni qaratsak, bu satrlarda ham yuqorida keltirib o'tilgan she'riy san'atlarni kuzatish mumkin.

Har satrim – jon, har she'rim – yurak,
O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
She'rlarimni asra peshma-pesh.

Bu satrlar ham Aleksandr Faynbergning o'z she'rlariga, she'rlarni esa shoirga sodiqligi, u she'rlari bilan go'yoki bir oiladek, go'yoki o'rmon qushlar bulutlar kabilarga xeshligi naqadar oddiy va go'zal tasvirlangan. Va so'ngi to'rtlik orqali shoirning biz avlodlarga murojaatini ko'rish mumkin.

Avlodlarga kelmasin malol,
She'rlarim g'am chekmasin nochor,
Dengiz, shamol va yaproq misol,
Nafas olsin, kulsin beg'ubor.

Faynbergning bu satrlari keyingi avlodga uning she'rlarini asrashligi haqidagi da'vati desak adashmagan bo'lamiz. Uning she'rlari avlodlar tomonidan kulanib boqiy umr ko'rishi, dengiz,yaproq, shamol misol erkin va go'zal bo'lishini takidlagan. Faynberganing bunday ajoyib va oddiy ammo go'zal ba ma'noli she'rlarni bitishida uning tug'ma shunday qobiliyati kata rol o'ynagan desak adashmagan bo'lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich
2. https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi

5. Odinayev A. (iyun 2023). O‘zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o‘rganilishi. Education and Innovation, 2(6), 118-121.

# ALEKSANDR FAYNBER LIRIKASI SHE'RIYATNING GO'ZAL DURDONASI

***Azizova Dilfuza Oltiboy qizi***
*O'zDJTU, rus filologiyasi 2-bosqich talabasi*
*dilfuzaazizova1424@gmail.com*

***Feruza Abdullayeva***
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,dotsent, ilmiy rahbar*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va rus kitobxonlari qalbidan joy egallagan shoir va shu bilan bir qatorta mahoratli tarjimon hamda ssenarist Aleksandr Arkadevich Faynbergning bir nechta she'rlarining lingvistik tahlili ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** tashbeh, o'xshatish, jonlantirish, “Shamol” she'ri, baynalminal

**Аннотация.** В данной статье рассматривается лингвистический анализ ряда стихотворений Александра Аркадьевича Фейнберга, поэта, занимающего место в сердцах узбекских и российских читателей, а также искусного переводчика и сценариста.

**Ключевые слова:** аллегория, сравнение, оживление, поэма «Шамал», интернациональный.

Aleksandr Faynberg baynalminal shoir hisoblanadi. Bu esa uning she'rlarida har ikkala davlat, millatning ham an'analarini, urf-odatlarini, mentalitet va muhitini, odamlarining munosabatlari va xarakterlarini kuzatishimizning yaqqol namunasidir. U zamon bilan hamnafas shoir edi. She'rlari juda samimiy , oddiy va qisqa bo'lishi bilan bir qatorda, hayotning oddiy haqiqatlarini juda sodda holda kitobxonlarga yetkazib bergan. Shuni aytib o'tish joizki, Aleksandr Faynberg tarjima yo'nalishida ham katta e'tiborga loyiq shaxs hisoblanadi. Uning tarjimalari merosining kata qismini tashkil qiladi. Qalblarimizdan o'z she'rlari bilan chuqur joy olgan shoirimiz Aleksandr Faynberg hamda uning mahorat bilan yozgan she'rlarining lingvistik tahlili haqida takidlab o'tish joiz.

Asrlar qa'ridan miltirar umid,
Yurakda og‘rigan kabi jarohat
Qaydadir saodat sohili majud,
Unda umrboqiy muhabbat, rohat.

Faynbergning ushbu to'trligiga to'xtaladigan bo'lsak, bu to'rtlik qisqa bo'lishiga qaramasdan o'zida dunyo-dunyo ma'noni jamlagan. She'rda o'xshatish san'ati mahorat bilan qo'llangan. Asrlar qaridan umidning miltirashi qismida umid orqali jonlantirish san'atini ko'rishimiz mumkin. U she'ri davomida yuragidagi og'riqlarni, jarohatlarni bitmas tuganmas umrboqiy muhabbat va sevgiga, rohat va baxtga aylantira oluvchi bir saodat sohili borligini aytib o'tadi. U she'rlaridagi har bir so'zlarni go'yo ipga marjon tergan kabi joylashtiradi. Bu she'rxon va

kitobxonlarni o’ziga jalb qilmay qo’ymaydi. o‘z she’rlarida qarama-qarshilik (zidlash), o‘xshatish (tashbeh), jonlantirish va sifatlash kabi san’atlaridan unumli ravishda foydalangan. Aleksandr Faynbergning “Shamol she’riga to’xtaladigan bo’lsak, bunda tabiat yaqqol ko’zga tashlanadi. Tabiatning go’zal manzaralarini u mahorat bilan tasvirlagan.

Tun. Bolxonaga chiqaman bir pas.
Navbahor. Xurillab turadi shamol.
Oqargan sochimga, yuzimga emas,
Yurakka, yurakka uradi shamol.
Yoshlik-u baxt-shodlik, kulfat-g‘am bilan,
Dengiz-u bog‘larda yeladi bevosh.
Shamolning qarisi bo‘lmas umuman,
Shamol hamisha yosh, shamol doim yosh.

She’rning birinchi satrida osuda tunda sokin tovush bilan esayotgan shamolni tasvirlagan. Shamol uning oqargan sochiga ham yuziga ham emas, balki uning yuragiga borib urilganligini aytadi. Birinchi to’rtlikka hamohang bo’lgan ikkinchi to’rtlikda shamolning umri boqiylini u hech qachon o’lmasligini, shamolning qarisi, sochiga oq oralagani bo’lmasligini takidlaydi. Bundan shuni anglash mumkinki oq sochlar lirik qahramon hayotida ancha yo’l bosib qo’yganligi va shu sababdan shamol aynan kelib uning yuragiga urilayotgani bejiz emas. Shoir lirikasi she’riyatning go‘zal durdonalari bilan bezatilganligi tufayli beqiyosdir.

Aleksandr Faynbergning she’rlarida takidlagan orzulari ushalib, uning bugungi kundagi nomi, asarlari kitobxonlar qalbidan chuqur joy oldi. Bugungi kunga kelib uning hayoti, ijodi, faoliyat yo’lini barcha yoshlar o’rganishmoqdalar . Uning she’rlarini sevib o’qishmoqdalar va kuylashmoqdalar. U har bir kitobxonning qalbida chuqur iz qoldirgan, ko’lab kishilarning hurmatiga erishgan qalbi o’zbek rus shoiridir. Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi katta-yu kichikning qalbidan birdek hamisha yashaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. O‘ralov U. (dekabr 2022). O‘zbek xalqining chin do‘sti, tarjimon va shoir –
2. Aleksandr Faynberg. Pedagog (4), 745-747.
3. Odinayev A. (iyun 2023). O‘zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o‘rganilishi. Education and Innovation, 2(6), 118-121.
4. Meliqo‘ziyeva Z. (aprel 2023). O‘zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich
5. Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati. Scientific Impulse, 1(9), 770–772.
6. Ibrohimova M. (fevral 2023). Faynberg va uning adabiy borlig‘i. Scientific
7. Impulse, 1(7), 338-339.
8. https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich
9. https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi
10. https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg

12.https://cyberleninka.ru/article/n/aleksandr-faynberg-qalblarda-mangu-yashaydi/viewer

# KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O`QITISHNING USTUVOR JIHATLARI

***Doshimova Manzura***
*Xorazm viloyati Urganch shahar*
*1-son kasb hunar maktabi*
*o`qituvchisi*

***Yuldasheva Zumrad***
*Xorazm viloyati Urganch shahar*
*1-son kasb hunar maktabi*
*o`qituvchisi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada kompyuter grafikasi fanini o`qitishning ustuvor jihatlari haqida so`z yuritilgan. Kompyuter grafikasi programmasida ishlashda o`quvchilarni grafika bilan ishlashga qiziqtirish lozim. Mustaqil ish sifatida alohida, har bir o`quvchiga topshiriqlar ya`ni xisob-grafik ishlar tayyorlash lozim.

**Kalit so`zlar:** kompyuter grafikasi, dizayn asoslari, metod, dastur,axborot, tasvir, programma, grafik dizayn, algoritm.

Kompyuter grafikasi bilan ishlashni shaxsiy kompyuterdan foydalanishda eng mashhur sohalardan biri sifatida qayd etish mumkin. Shuni ta’kidlash mumkinki, kompyuter grafikasi bilan ishlash nafaqat professionallar, balki havaskorlar ham shug‘ullanadi. Kompyuter grafikasi ko‘pincha kino, fan, sanoat, arxitektura, tibbiyot kabi fanning turli sohalarida qo‘llaniladi. Barcha multimedia dasturlari kompyuter grafikasi asosida ishlaydi, xususan 3d- grafika. U bilan ishlashda ko‘pchilik jamoalar ko‘p vaqt sarflaydi. Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchisi hozirgi vaqtda kompyuter grafikasi bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi tez o‘sishi va o`quvchining kasb hunar maktabida o‘qish paytida uni o‘zlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshilik shaklida o‘zini namoyon qiladigan xususiyat bilan tavsiflanadi. Bu qarama-qarshilik ko‘plab asarlar mualliflarini o`quvchilarning o‘z-o‘zini ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy faktlarni tahlil qilish va oqilona qarorlarni sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida o‘quv jarayonini tashkil qilishni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. An’anaviy pedagogik tizim bo‘yicha o‘qitilgan bitiruvchilar mutaxassisning shaxsiy resurslarining tez `qarishi` (taqchilligi) bilan tahdid qilinmoqda. Bu hodisa, xususan, muhandislik faoliyatini avtomatlashtirilgan qo‘llab-quvvatlash vositalarini bilish sohasiga ham tegishli.

Bundan kelib chiqqan holda, kompyuter grafikasi sohasidagi professional bilimlar va kompyuter grafikasi sohasidagi dasturlash asoslarini bilish hozirgi vaqtda zamonaviy mutaxassisning talab qilinadigan fazilatlari hisoblanadi.

Misol uchun, eng mashhur dasturlardan biri Adobe Photoshop hisoblanadi, lekin bu dastur bepul emas, shuning uchun bu dasturning analoglari mavjud, masalan GIMP 2.8.16, raster rasmlarini to‘liq qayta ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasviriy san’atga taqlid qilish uchun maxsus dasturlar mavjud bo‘lib, ular bilan siz tabiiy zarbalar bilan tasvir yasashingiz mumkin. ArtRage 2.6.0 StarterEdition, ushbu dastur tuvalda yanada real bo‘yoq haydash uchun mo‘ljallangan. Rassom uslubida chizish uchun ham taklif qilishingiz mumkin. Artweaver 5.1.2 kabi qaysi dastur. Bu yerda haqiqiy krayonlar, qalamlar, bo‘yoqlar va bo‘yoqlarga taqlid qiluvchi maxsus vositalar yordamida turli rasmlar chizish mumkin. Bunday dasturlarni ko‘p sonli keltirish mumkin. Birinchi grafika tablig‘i 1888-yilda Elisha Grey tomonidan patentlangan Teleautograf bo‘lgan. Grafik lavhalar 1970-yillarning o‘rtalari va 1980-yillarning boshlarida tijorat muvaffaqiyatlari tufayli ommalashgan.

Kompyuter (mashina) grafikasi dastlabki, ya`ni kiruvchi axborotni (noma`lum tabiatga ega) tasvir ko`rinishiga olib keladi. Masalan: ekspert ma`lumotlarni grafik, diagramma yoki boshqa shakllarga vizuallashtirish. Bundan tashqari shakllarni almashtirish, harakatlantirish, virtual tasavvurga yaqinlashtirish.

Kompyuter grafikasini quyidagicha tasvirlash mumkin: COMPUTER GRAPHICS: · input – belgilar, · output – tasvir. Ularning o`rtasida keskin chegara yo`q va umumiy sxemada quyidagicha tasvirlash mumkin:

Tasvirni (dastlab matn, formula so`ng oddiy rasm) shaxsiy kompyuter ekranida chiqarish kompyuter grafikasining rivojlanishida birinchi qadam bo`ldi. Qisqa vaqt (50-yillardan boshlab) ichida kompyuter grafikasi tezkor rivojlandi va o`zining e`tiborini ikki asosiy yo`nalishga qaratdi: tasvirga yetarlicha tasavvur (reallik) va harakat (dinamika) berish, va ularni birlashtirish. Yuqoridagi aytilganlarni hisobga olgan xolda tasvirni kompyuterda hosil qilish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tasvirni ifodalash (poligonal setka, splayn funksiyalar).
2. Geometrik proeksiyalash (3D -> 2D).
3. Rastr algoritmlari.
4. Ko`rinmas chiziq va sirtilarni olib tashlash.
5. Bo`yash tekislikda va fazoda (Rendering).
6. Dinamika (Geometrik alsmashtirishlar).
7. Grafik dizayn asosiy tushunchalari.

Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda eng ko`p tarqalgan yo`nalishlardan biri bu kompyuter grafikasidan foydalanishdir. Bu yo`nalishda faqatgina professional dizayner yoki rassomlar emas, balki oddiy foydalanuvchilar ham ishlashi mumkin. Buning uchun maxsus kompyuter grafikasi programmalari bo`lishi zarurdir. Ma`lumki, har qanday korxona yoki firma o`z faoliyatida gazeta yoki jurnalda reklama e`lonlar berishi, buklet chiqarish zaruriyati paydo bo`ladi. Yirik firma va kompaniyalar bunday ishlarni prfessionallar qo`liga topshiradilar. CHegaralangan iqtisodiy byudjetga ega bo`lgan kichik korxonalar esa bu ishni asosan o`z imkoniyatlariga ko`ra bajaradilar. Zamonaviy multimedia programmalari kompyuter grafikasisiz ishlay olmaydilar. Ommaviy holda qo`llaniladigan programmalar ishlab chiqarishning 90% vaqti shu programmalarni bezash uchun sarflanadi. Kompyuter grafikasi programmalari 3 turga bo`linadi:

1. Rastrli grafika
2. Vektorli grafika
3. Fraktal grafika

Bu programmalar bir-birlaridan tasvirlarni aks ettirish usullari bilan farq qiladi.

Rastr grafikasi asosan elektron va poligraf nashriyotlarda qo`llaniladi. Rastr grafikasining asosiy elementi sifatida nuqta qabul qilingan. Agar tasvir ekranda ko`rilsa, bu nuqta «piksel» deb aytiladi. Kompyuterda qo`llaniladigan operatsion tizimlarning imkonitiyaga ko`ra, 480x640, 800x600, 1024x768 va undan ko`proq pikselga ega bo`lgan tasvirlar joylashuvi mumkin. Tasvirning o`lchamiga ko`ra uning imkoniyati ham oshib boradi. Ekranning imkoniyati parametrik bo`lib, bir dyuymdagi nuqtalar soni bilan belgilanadi. Rastr grafikasi uchun kamdan-kam hollarda grafik programmalar yordamida qo`lda bajarilgan tasvirlar ishlatiladi. Professional rasm yoki fotosuratni rastr grafikasida ko`proq qo`llash kuzatiladi. Oxirgi paytda rastr tasvirlarni ekranga kiritish uchun raqamli foto va videokameralar qo`llanilmoqda. SHu sababli rastr grafikasini asosiy maqsadi tasvirni yaratish emas, balki mavjud tasvirni qayta ishlashdir. Ammo rastrli grafika kamchilardan ham holi emas. Masalan,

1. Har bir tasvirni aks ettirish va kodlash uchun katta hajmdagi xotira maydonlari talab etiladi.
2. Mayda detallarni ko`rish uchun tasvirni kattalashtirib bo`lmaydi.

Vektorli grafika-uning tasvirni aks ettirishda asosiy elementi chiziq bo`lib hisoblanadi. Kompyuter xotirasida bu chiziq juda katta joy egallaydi, chunki xotirada chiziqning parametrlari ko`rsatiladi yoki formula orqali beriladi. Unda sodda ob`ektlar murakkab ob`ektlarga birlashtiriladi, shu sababli vektor grafikasini ob`ektga yo`naltirilgan grafika deb ham aytiladi. Kompyuter xotirasida vektor

grafikasi chiziqlar sifatida saqlanib turishiga qaramasdan, tasvir ekranga nuqtalar sifatida chiqariladi. Tasvirni ekranga chiqarishdan oldin har bir parametrni hisoblab chiqadi. SHu sababli vektor grafikasini hisoblanuvchi grafika deb aytiladi. Vektor grafikasi yordamida sodda turdagi bezash ishlarini olib borish mumkin.

Fraktal grafika-bu matematik tenglamalar yordamida tashkil etiladigan tasvirdir. Eng sodda fraktal ob`ekt sifatida qor uchqunlarini, yoki paporotnik bargini keltirish mumkin. SHuning uchun ham fraktal ob`ekt chizish yoki bezash asosida emas, balki programmalashtirish asosida hosil bo`ladi. Kompyuterda tashkil qilingan turli o`yinlarda ham fraktal grafikasidan foydalaniladi. Fraktal grafikasi kompyuter xotirasida saqlanib turmaydi. Har bir tasvir tenglama yoki tenglamalar sistemasi asosida quriladi. Fraktal grafikadagi tenglamaning biror koeffitsientini o`zgartirish orqali butunlay boshqa tasvirni hosil qilish mumkin. Sanab o`tilgan kompyuter grafikasi turlarini tashkil qilish va ularni boshqarish uchun bir qator programmalar ishlab chiqilgan.

Kompyuter grafikasi programmasida ishlashda o`quvchilarni grafika bilan ishlashga qiziqtirish lozim. Mustaqil ish sifatida alohida, har bir o`quvchiga topshiriqlar ya`ni xisob-grafik ishlar tayyorlash lozim. Amaliy mashg`ulotda o`quvchilar o`z varianti asosida turli grafikalar yaratishi lozim. Ma`ruza qilib o`qituvchi o`rgatganda odatda barcha asosiy tushunchalar, umumiy ma`lumotlar beriladi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter grafikasini o`qitish metodlari bilan o`rgatilsa o`quvchilar katta qiziqish bilan programmaning imkoniyatlarini o`rganadilar. Bunda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
2. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: `Universitet`, 2019. - 232 b.
3. D.B.Abduraximov, D.E.Toshtemirov. Mutaxassislik fanlarini oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2020. - 224 b.

# ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI KAFEDRALARINING AXBOROT ALMASHINUVINI AVTOMATLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI

***Hakimov Muzaffarbek Maribjon o`g`li***
*Andijon mashinasozlik instituti*
*Intellektual boshqaruv va kompyuter tizimlari fakulteti*
*Axborot tizimlari va texnologiyalari yo`nalishi 4- kurs talabasi*

***Isayev Bahodirjon Maxamatshoyevich***
*Ilmiy rahbar. Andijon mashinasozlik instituti*
*Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan. Shuningdek, axborot texnologiyasi, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, axborot xavfsizligi masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** axborot almashinuvi, avtomatlashtirish, ta`lim tizimi, axborot texnologiyasi, elektron hujjat almashuv.

**Абстракт.** В данной статье говорится о преимуществах автоматизации информационного обмена кафедр Андижанского машиностроительного института. Также рассматриваются информационные технологии, автоматизированные информационные системы и вопросы информационной безопасности.

**Ключевые слова:** обмен информацией, автоматизация, образовательная система, информационные технологии, электронный документооборот.

**Abstract.** This article talks about the advantages of automating the information exchange of the departments of the Andijan Institute of Mechanical Engineering. Information technology, automated information systems and information security issues are also covered.

**Key words:** information exchange, automation, educational system, information technology, electronic document exchange.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda axborot bilan ta‘minlanishga munosabatni tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini barcha sohalarda qo‘llash va yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e‘tibor qaratilmoqda.

Insoniyatning XXI asrga qadam qo`yishi jamiyat hayotining hamma sohalarida axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan belgilanmoqda. Axborot

va uni qayta ishlash borgan sari rivojlanib, ishlab chiqarish darajasiga, davlat resursiga va qimmatbaho tovarga aylanib bormoqda.

Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad - jamiyat va inson butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarini hal etishdir.

Axborot almashuv tizimi xizmat ko’rsatishning yangi turi hisoblanib, elektron xotiralar orqali ma’lumot almashish jarayonini avtomatlashtirilgan holda amalga oshiradi. Bu tizim elektron aloqaning bir ko’rinishi bo’lib, matnli ma’lumotlarni abonentlar o’rtasidagi almashuvini ta’minlaydi. Har bir xabar xususiy xotiralarda saqlanadi va avtomatik tarzda tizimlar o’rtasida almashinadi.

Axborot tizimi - bu yangi biznes strategiyalari va yangi g`oyalarni taklif qilish uchun axborotni yaratish, o‘zgartirish, saqlash, boshqarish va tarqatish uchun mo‘ljallangan jarayonlar, texnik vositalar, malakali xodimlar, dasturiy ta'minot, infratuzilma va standartlar to‘plami. Bu tashkilotda yaxshiroq qaror qabul qilish uchun samarali ish va samarali muloqotni ta'minlaydi.

Axborot tizimlarining mohiyati, tasnifi, turlari va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishga ko‘plab milliy va xorijiy olimlarning ishlari bag'ishlangan bo‘lib, ular orasida Salvatore Mart, Jerald Smit, Xevner Mart, Park Ram, I.Benbasat, R.Zmud, S.Avgeru, R.Agarval, X.Lukas, O.El Savi, O.Mansur, A.Gazavneh, N.Kok, P.Grey, R.Xoving, X.Klein, M.Mers, J.Roskart, A.Golitsin, I.Gutenberg, I.Ushakova, G.Fedorov, V.Qobulov, S.S.Gulyamov, K.X.Abdurahmonov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullaev, G.R.Baltabaeva, O.Umarovlarni ishlarini alohida tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan mustaqil o_rin egallashi uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalarini hayotimizning barcha sohalariga, jumladan, ta`lim tizimiga keng joriy etish zarurdir.

Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirish ta`lim samaradorligini rivojlanishini tezlatadi, ish samaradorligini oshiradi, davlat muassasalarining ishlash quvvatini ko`taradi.

O’zbekiston Respublikasi ta`lim tizimiga elektron texnologiyaning qo’llanishi va rivolanishining asosiy yo`nalishi bo`lib huquqiy-normativ bazani mukammallashtirish hisoblanadi. SHu yo`nalishdagi asosiy masalalardan biri bu elektron hujjatlarni yaratish va qo’llash borasida qonunchilik bazasini shunday yaratish lozimki, u umumiy axborot resurslar va tizimlardan foydalanish imkoniyatini, informatsiyaning konfeditsionalligini, shuningdek, xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini saqlashga qaratilgan bo`lmogi lozim.

Hozirgi davrda axborot kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) jahon miqyosida hayotga keng qo’llanishi industrial jamiyatdan axborot jamiyatga o`tishi bilan tavsiflanadi.

Axborot tizimlari axborot va axborot texnologiyalari kabi jamiyat paydo bo‘lgan vaqtdan buyon mavjud, chunki uning har qanday rivojlanish bosqichida boshqaruvga ehtiyoj bo‘ladi. Boshqaruv uchun esa tizimlashtirilgan, oldindan tayyorlangan axborot talab qilinadi. Axborot tizimi tegishli tashkilotlar (ob'ektlar)da faoliyat ko‘rsatuvchi va turlicha tuziluvchi axborotlar majmui uning axborot tizimini tashkil etadi. Axborot tizimlarining asosiy vazifasi - barcha resurslami samarali boshqarish uchun tashkilotlarga kerakli bo'lgan axborotlarni ishlab chiqish, tashkilotni boshqarish uchun axborot va texnikaviy muhitni yaratishdan iborat.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Голицына О. Л., Максимов Н. В. Информационные системы. М.: ММИЭИФП, 2004. 329 с
2. Ғуломов С.С, Алимов Р.Х, ва бошқалар. “Ахборот тизимлари ва технологиялари” “Шарқ”, Т-2000 й.
3. Алимов Р.Х, Юлчиева Г.Т., Алишов Ш.А. “Ахборот технологияси ва тизимлари”. Маъруза матнлари. Т: - ТДИУ, 2005 й.
4. Федорова Г. Н. Информационные системы: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования. М.: Академия, 2013. 208 с.

# MUNDARIJA

**Нурёгдиева М.М., Ахмедова С.М.** Ҳомиланинг бош мия анатомик ҳосилаларнинг динамикада ўзгариши ........ 3
**Madraimova M.R., Babajanova D.A.** Mol-mulk solig'ining mahalliy budjetdagi roli ........ 6
**Ismoilova D.J.** Abdulla Qahhor hikoyalarida inson ruhiyatining tasvirlanishi ........ 9
**Mamanazarova F., Qurbonova N.O'.** Antibiotiklarni qabul qilish qoidalari ........ 13
**Kurbonova N.U.** Sharq reyhardiyasi osimligini farmakognostik tahlil qilish ........ 16
**Odilova Y.I.** Ota-onalarning bolaga munosabati ijtimoiy fobiya shakllanishi omili sifatida ... 18
**Farmonova U.** "Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.ko'chim yo'li bilan hosil bo'lgan iboralar ........ 20
**Dustov B.T.** Yoshlarda tadbirkorlik va iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning innovatsion xususiyatlari ........ 22
**Abdug'aniyeva G.** Ergashgan qo'shma gaplar tahlili ........ 26
**Saloxiddinova N.I., Abduraimova M., Odilov D.** Ayol ijodkorlar she'riyatida ruhiyat manzarasi ........ 33
**Rahmonova D.Z.** O'smirlar o'rtasida internet zo'rovonligining oldini olishning psixologik asoslari ........ 35
**Shomuradova O'., Xayitova M.** Sportchining ratsional ovqatlanishi, ovqatlari tarkibiga ozuqaviy qo'shimchalar qo'shish va ularning foydali xususiyatlari ........ 38
**Shomuradova O'., Xayitova M.** Maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishida jismoniy tarbiyasining ahamiyati ........ 44
**Yo'ldosheva Sh., Arabboyeva M.** Leksemalarning (leksosememalarning) ishlatilish doirasi 48
**Tursunboyeva M., Arabboyeva M.** Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik,ularning ishlatilish doirasi ........ 51
**Arabboyeva M., Valiyeva M.K.** O'zbek tilshunosligida sintaksis va so'z birikmasi nazariyasi ........ 55
**Мамбеткаримова М.С.** Оптимизация лечения детей с микроцефалией ........ 57
**Мамбеткаримова М.С.** Неврологические проявления микроцефалии ........ 58
**Rasulova N.J., Arabboyeva M.** Sintaksis bo'limini o'qitish metodikasi ........ 59
**Hamdamova Ch.** C1 (HSK 5) darajasidagi salbiy va ijobiy so'zlar klassifikatsiyasining yozish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni (xitoy tili misolida) ........ 62
**Kaliknazarova A.** Artemiyaning tuzli muxit sharoitlariga moslashishining o'ziga xos bioekologik xususiyatlari ........ 66
**Barotova Sh.O.** The importance of angiotensin ii receptors and cardiac glycosides in the treatment of heart failure. ........ 69
**Barotova Sh.O.** Obesity and body weight prevention of glycemia ........ 70
**Абдулхафизов С.А.** Ширин маккажўхорини кўчат қалинлигини ҳосилдорликка таъсирини ўрганиш ........ 72
**Абдулхафизов С.А.** Гул карамни отечественная навини мақбул муддатда экиб юқори хосил олиш ........ 75
**Каюмов А.А., Саидаманова С.** Структура больных хроническим миелолейкозом в Узбекистане и оценка отдаленных результатов эффективности лечения, анализ и перспективы ........ 77
**Azizova M.M.** Turli lingvomadaniy muhitlarda "qadah so'z"larning ijtimoiy me'yorlashishi 79

**Жалилова У.Дж.** Изменения уровня микроэлементов при артериальной гипертензии .82
**Jalilova U.Dj.** Imbalance of microelements with high blood pressure....................................84
**Юсупова Н.А.** Сердечно-сосудистые заболевания у долгожителей ................................86
**Юсупова Н.А.** Нарушение функциональной активности симпатико-адреналовой системы сердечно-сосудистых заболеваний........................................................................88
**Турсунова Д.Э.** Дислипидемияларни комбинация тарзида даволашнинг самарадорлигини ва хавфсизлигини ўрганиш ..........................................................................89
**Жумабаев А.Б.** Минтақа иқтисодий салоҳияти самарадорлигини оширишга тўсиқлар ва уларни бартараф этиш йўллари..........................................................................................91
**Yelnazarova L.N.** Importance of angiotensin ii receptors and cardiac glycosides in the treatment of heart failure..........................................................................................................95
**Маматқулов Х.А.** Экспортга йўналтирилган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини суғурталашни такомиллаштириш йўллари ........................................................................96
**Qahhorova N.M.** Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni ..........................................................................................................................................99
**Maxamadaliyev B.B.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorij tajribasi ...........................................................................................................................................101
**Maxamadaliyev B.B.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillari ..........105
**Сирожидинов К.Б.** Геронт ахоли популяциясида коморбид касалликлар профилактикаси ..........................................................................................................108
**Сирожидинов К.Б.** Геронт аҳоли популяциясида коморбид касалликлар эпидемиологияси ........................................................................................................110
**Djumaniyazova R.B.** The analysis of the chief character of "Citadel"................................112
**Kaliknazarova A.** Artemiyanıń bazi parametrleri hám biologik qásiyetleri..........................115
**Tursunmamatova D.** So'z birikmalari va nutq madaniyati..................................................117
**Jumaniyazova R.Q.** Turizmni innovatsion boshqarish modelining tarkibiy xususiyatlari....120
**Xaydarova H.J.** Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish ...............................123
**Omongaldiyev M.D.** Investitsion jozibadorlikni oshirishning oʻziga xos xususiyatlari........127
**Bazarbayeva Sh.M.** XX-asr boshlarida Toshkent shahrida chorva mollari kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari............................................................................................................130
**Abduvaxobova R.A., Xoldarboyev R.** Rivojlangan mamlakatlarda elektron darsliklarning ahamiyati...........................................................................................................................133
**Azizova D.O., Abdullayeva F.** Aleksandr Faynberg she'rlarining lingvistik tahlili: "Varaq" she'ri misolida......................................................................................................................136
**Azizova D.O., Abdullayeva F.** Aleksandr Faynber lirikasi she'riyatning go'zal durdonasi .138
**Doshimova M., Yuldasheva Z.** Kompyuter grafikasi fanini o`qitishning ustuvor jihatlari...140
**Hakimov M.M., Isayev B.M.** Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirishning afzalliklari.................................................................144